

**Asadulla Abdulla o'g'li Qodirov**

# **O'ZBEKISTON TIBBIYOTI**

*O'zbekistonda tibbiyotning kelib chiqishi,  
shakllanishi va rivojlanishi*

**TOSHKENT  
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI  
TIBBIYOT NASHRIYOTI  
2004**

Darslik zamonaviy o'quv dasturiga moslashtirib yozilgan bo'lib, unda O'zbekiston hududida tibbiyotning kelib chiqishi, shakllanishi, ilmiy tibbiyotning taraqqiy etishi, shuningdek, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin unung ravnaq topishi bayon etilgan.

Darslik Oliy tibbiyot o'quv yurtlari va meditsina kollejlarning talabalariga darslik sifatida, shu mavzuga qiziqadigan mutaxassislariga va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

410200000 ~28  
K M 354(04) — 2004 2004

© Abu Ali ibn Sino nomidagi  
tibbiyot nashriyoti, 2004

ISBN 5-638-01954-5

---

---

## KIRISH

Tibbiyot inson faoliyatining muhim sohalaridan biridir. U boshqa ko'p sohalardan oldinroq paydo bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra qadim zamonlarda yashagan ibtidoiy odamlar hali o'zlari uchun turar joy qurish, kiyim tikish va ovqat pishirishni bilmay turib, ba'zi kasallik holatlarida o'zlarini muolaja qilishni bilib olganlar. Buni o'sha ibtidoiy odamlarining yashash sharoitlari taqozo qilgan. Ularning yashash sharoitlari esa juda og'ir va mashaqqatli bo'lgan.

Ibtidoiy odamlar uy joyisiz, o'rmonlarda, g'orlarda yarim yalang'och va ko'pincha och yashab, boshlaridan ko'p qiyinchiliklarni kechirganlar. Buninig natijasida ko'p kasalliklarga duchor bo'lganlar, yirtqich hayvonlar bilan to'qnashib, tan jarohatlari olganlar.

Tabiiyki, bunday holatlarda kishilar kasallikdan qutilish va tan jarohatlarini tuzatishga intilganlar. Natijada dastlabki oddiy muolaja usullari «kashf» etilgan. Bu haqda buyuk Hippokrat (Gippokrat) bunday, deb yozgan edi: «Hayotning o'zi kishilarni tabiblik san'atini izlab topishga majbur etgan».

Tibbiyotning kelib chiqishi tarixini atroflicha o'rganish shuni ko'rsatdiki, «birinchi tabib» organizmnining o'zi ekan, ya'ni organizmnining o'zi birinchi bo'lib kasallikka qarshi kurasharkan. Haqiqatan tirik mavjudodlarning organizmi kasallik paydo qiluvchi omillarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Buni quyidagi oddiy misoldan ko'rish mumkin: Agar organizmga tashqaridan biror yot narsa, masalan, zirapcha kirib qolsa, uning atrofida qon tanachalari (leykotsitlar) to'planib, zirapcha bilan kirgan mikroblarni yutib, yo'q qila boshlaydilar. Natijada organizm bu mikroblardan holi bo'ladi.

Organizmnining kasalliklarga qarshilik ko'rsatish xususiyati qadimgi Sharq hakimlariga ham ma'lum bo'lgan. Masalan, Abu

Ali ibn Sino «odam tanasi doimo kasallikdan qutilishga intiladi», deb yozgan edi. Ba'zi bir tirik mavjudotlarning organizmi yo'qotilgan tana qismini tiklash xususiyatiga ham ega. Masalan, kaltakesakning dumi biror sabab bilan uzilib ketsa, unda yangi dum o'sib chiqadi. Shuningdek, tananinig biror qismida paydo bo'lgan, kichikroq jarohatlar ham «o'z- o'zidan» bitib ketadi.

Organizmda kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati mavjudligi tufayli, ba'zan bemor biror sabab bilan davolana olmasa ham, sog'ayib ketishi mumkin. Qadimgi tabiblar yana shuni aniqlaganlarki, organizmda ayrim yuqimli kasalliklarga nisbatan «qabul qilmaslik» xususiyati paydo bo'lishi ham mumkin. Bu hozirgi tilda «immunitet», deb ataladi. Masalan, qadimgi Xitoy va Eron hakimlari bir marta chechak va qizamiq bilan og'rikan kishi bu kasalliklar bilan ikkinchi marta og'rimaliklarini aniqlaganlar. Shunga asosan dastlabki variolatsiya (emlash) usullari ishlab chiqilgan. Masalan, xitoylar chechakka qarshi emlash usulini qo'llaganlar. Qadimgi Eroniyalar ilon zahariga qarshi immunitet paydo qilishga ham uringanlar va bu sohada ma'lum natijaga erishganlar. Ular odamga oz-ozdan ilon zaharini berib borib, ohirida uning organizmda mazkur zaharga nisbatan immunitet paydo qilganlar. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, tirik mavjudotlar organizmi haqiqatdan kasalliklarga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Bu xususiyatni «organizmning o'z ichki tibbiyoti», deb atash mumkin. Hayotda bu «ichki tibbiyot» ning ahamiyati juda katta. Atrof tabiatda kasallik paydo qiluvchi omillar shu qadar ko'p va xilma-xilki, agar organizmning shu «ichki tibbiyoti» bo'lmaganida barcha mavjudotlar har hil kasalliklardan allaqachon qirilib yo'q bo'lib ketardilar.

«Organizmning o'z ichki tibbiyoti» tirik mavjudotlar hayotining barcha bosqichlarida biogenez jarayoni sifatida rivojlangan. Lekin, shu narsa ham ma'lum bo'ldiki, «organizmning o'z ichki tibbiyoti» hamma hollarda va hamma kasalliklarga nisbatan qabul qilmaslikni ta'min eta olmas ekan. Kasallikdan qutilish uchun «Tashqi tibbiyot», ya'ni har xil davo tadbirlarini amalga oshirish ham kerak ekan. Shunday qilib, har xil muolaja usullari ishlab chiqila boshlandi. Bu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, «Tashqi tibbiyot», ya'ni har xil muolaja usullari kasallikni o'zi yo'qotmaydi. U, «Ichki tibbiyot» kasallikni yenga olishi uchun unga zamin tayyorlaydi. Hippokrat shuni ta'kidlab, «Tabiat davolaydi, tabib unga yordam beradi», deb yozgan edi. Bu yerda Hippokrat «tabiat» deganda

organizmning o'z tabiatini, uning kasalliklarga qarshi kurashish xususiyatini ko'zda tutgan edi. Shunday qilib, «Tashqi tibbiyot»ni rivojlantirish ya'ni har xil muolaja usullarini topish va ishlatish zaruriyati kelib chiqqan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra oddiy muolaja usullari hali yer yuzida insonlar paydo bo'lmagan oldin ham ma'lum bo'lgan. Masalan, ba'zi hayvonlar tabiatda shifobaxsh o'simliklar borligini bilganlar va ulardan foydalanganlar. Buni biz biror sabab bilan tanasi jarohatlangan hayvonlarning xatti-harakatlaridan korishimiz mumkin. Bu haqda tibbiy tarixiy adabiyotda ko'p misollar keltirilgan. Masalan, tabiatshunos olim Y. Rotsiusning yozishicha og'zida yara-chaqalar paydo bo'lgan bir gibbon (kichik odamsimon maymun) o'rmondan bir shifobaxsh o'simlik topib kelib, uni xamirsimon holatga kelguncha chaynagan, so'ng bu «muolaja»ni yana bir necha marta takrorlagan. Shundan keyin ko'p o'tmay gibbonning og'zidagi yara-chaqalar tuzalib ketgan. Jarohatlangan bir quyon esa o'rmondan yopishqoq o'rgimchaklarni topib kelib, ularni ezib tanasining jarohatlangan joyiga surtgan. Ma'lum bo'lishicha bu o'rgimchaklarning tanasida og'riq qoldiruvchi va qon oqishini to'xtatuvchi modda bor ekan.

Ma'lumki, bezgak kasalligini tuzatuvchi hina dorisi (hinin) Amerikadan keltirilgan. Bu dori Hina, deb ataluvchi daraxtning po'stlog'idan olinadi. Hinani Amerikalik hindular topgan ekanlar. Hindular hina daraxtining po'stlog'i bezgak kasalligini tuzatuvchi xususiyatga ega ekanligini puma (yovvoyi mushukning bir turi) dan bilib olgan ekanlar. Hindularning kuzatishicha, bezgak bilan og'rib qolgan pumalar hina daraxtining po'stlog'ini chaynar ekanlar. Shimolda yashovchi xalqlarning kuzatishicha, uzoq masofani yugurib bosib charchagan bug'ular levzey nomli o'simlikning ildizini topib chaynar ekanlar. Ma'lum bo'lishicha, bu o'simlikning ildizida kuch-quvvat beruvchi modda bor ekan.

Taniqli kimyogar olim, akademik S.Y. Yunusovning yozishicha, unga Zarkentlik Turob tabib ismli bir kishi o'zi ko'rgan qyidagi hodisani so'zlab bergan ekan: bir ilon tasodifan tog'dagi qoyaning teshigiga boshini suqibdi. U yerda arilarning ini bor ekan. Bu «kutilmagan mehmon»dan bezovta bo'lgan arilar ilonga hujum qilib, uni chaqib gavdasini shishirib yuboribdilar. Ilon bir necha daqiqa karaxt bo'lib qolibdi. So'ng o'ziga kelib, tezda soy tomonga tushib u yerdan sabzi bargisimon bir o'simlikni topib chaynab yuta boshlabdi. Shundan keyin bir oz vaqt o'tgach

ilonning gavdasidagi shish yo'qolibdi va u hech narsa bo'lmagandek o'z yo'lida davom etibdi. Ilonning gavdasidagi shishni yo'qotgan o'simlik erman (absintin) ekan. Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari kitobi»da erman «og'riqni qoldiruvchi va shishni yo'qotuvchi shifobaxsh o'simlikdir» deyilgan. Yuqoridagi hodisa shuni ko'rsatadiki, ilonlar shifobaxsh o'simliklarni bilar ekanlar.

Hayvonlar issiqlik manbaidan ham davo sifatida foydalanar ekanlar. Bu haqda men o'zim quyidagi hodisaning guvohi bo'ldim. Uyimizda bir mushuk bor edi. Bir kun kimdir uni urib, bir oyog'ini mayib qilib qo'yibdi. Mushuk uch oyoqlab, oqsoqlanib yura boshladi. Men uni qo'limga olib qarasam, oldingi o'ng oyog'i shishib ketibdi. Mushuk shu ahvolda bir necha kun oqsoqlanib yurdi. So'ng mayib bolgan oyog'ini davolash yo'lini topib oldi. Qish vaqti edi. Bir kun men yuvinish uchun vannaxonaga kirsam, mushuk isitish sistemasining tagiga yotib olib, mayib oyog'ini ikki radiator orasiga qoyib isitib yotibdi. Shu tariqa mushuk tahminan ikki hafta davomida bu prosidurani davom ettirdi. Shundan so'ng uning shikastlangan oyog'i tuzalib, to'rt oyoqlab yurib ketdi. Bu voqeadan men juda hayratlandim. Demak, mushuklar «issiqlik terapiyasi» dan foydalanishni bilar ekanlar.

Hayvonlarda kasallik holatida bir-birlariga yordam berish instinkti ham mavjud. Bu haqda XVIII asrda yashagan Sayyid Muhammad Hasrat ismli bir hakim quyidagi misolni keltirgan: «Daryo bo'yiga ikki qush kelib qo'ndi va ulardan biri tumshug'i bilan daryodan suv olib, ikkinchi (kasal) qushning orqa teshigiga yubora boshladi. U shu usul bilan kasal qushning ichagini bir necha marta yuvdi. Shundan song ular uchib ketdilar». Sayyid Muhammad bu misolni keltirib, «odamlar huqna (klizma) qilishni qushlardan organganlar», deb yozgan. Yana bir misol: bir ona it o'zining sovuq qotib, o'lim darajasiga borib qolgan 4ta bolasini galma-galdan bir necha soat ya'lab, ya'ni massaj qilib, tiriltigani ma'lum.

Jarohatlanganda yoki biror kasallik holati paydo bo'lganida davolanish ayniqsa maymunlarda yuqoriroq rivojlangan. Bu tabiiydir. Chunki maymunlar idrok qilish jihatidan boshqa hayvohlarga nisbatan yuqori turadilar. Maymunlarning o'z bolalariga qanchalik mehribon ekanliklarini zooparklarda hammamiz ko'p ko'rganmiz.

Ba'zi jonzotlar iftoslik zararli ekanligini ham biladilar. Masalan, qaldirg'ochlar o'z uyalarini hech iftos qilmaydilar. Ularning bolachalari uylarini iflos qilmaslik uchun orqa teshiklarini tashqariga

chiqarib turib, ichlarini bo'shatadilar. Arhidey nomli qush ham juda ozoda tabiatli jonzotdir. U uyasini hech iflos qilmaydi. Doim uni tozalab turadi. Janubiy Amerikaning qalin o'rmonlarida kichik sharsharalar yaqinida chayqabyer, deb ataluvchi hayvonlar yashaydilar. Bular ozodalikda qaldirg'ochlardan ham, arhideylardan ham o'tib ketganlar. Chayqabyerlar o'z ozuqalarini oqib turgan suvda chayib, tozalab song og'izlariga oladilar.

Hayvonlar jarohatlanish yoki kasallik holatida davolanish kerakligini bilsalar ham, ularda «o'lim», «o'lish» degan tushuncha yo'q. Masalan, ko'pincha shunday holni kuzatish mumkin: Biror hayvon o'z bolalarini xavfsizroq va qulayroq joyga ko'chirishda tirik bolalari bilan bir qatorda o'lib qolgan bolasini ham tishlab ko'tarib olib borib, yangi joyga o'rnashtirib qo'yadi. Uni o'lib qolganligini bilmaydi.

Hayvonlarda davolanish va bir-birlariga yordam berish qadim zamonlarda, yuqorida aytib o'tganimizdek, hali insonlar paydo bo'lmasdan oldin kelib chiqqan bo'lsa ham ularning «tibbiyoti» rivojlanmay qolgan. Hayvonlar faqat «qo'l yordamida» amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muolajalarni qila oldilar, xolos. Masalan, yangi tug'ilgan bolachasining kindigini tishlab uzish, tanaga kirib qolgan yot narsalarni (masalan, zirapchani) tishlab chiqazib tashlash. Jarohatlangan joyni yalab qon oqishini to'xtatish, ba'zi shifobaxsh o'simliklardan foydalanish va h.k. Hayvonlar «tibbiyotining» bunday rivojlanmay qo'lishining asosiy sababi shu ediki, ular qurol ishlatishni o'rgana olmadilar. Qurol ishlatmasdan turib, biror sohani takomillashtirish va rivojlantirish mumkin emas.

«Odamlar tibbiyoti»ning kelib chiqishi va rivojlanishi masalasida turlicha fikr mavjud. Ko'pchilik tibbiyot tarixchilari yaqin vaqtlargacha odamlar muolaja usullarini hayvonlardan, xususan, odamsimon maymunlardan o'rganganlar, degan fikrda edilar. Lekin, bu fikr isbot etilmadi. Ma'lumki, maymunlarning, ayniqsa shimpanzening gavda tuzilishi va intellektual qobiliyati odamlarnikiga yaqinroq turadi. Ko'p olimlar shunga asoslanib, odam maymundan kelib chiqqan va hamma ko'nikmalarni maymundan o'rgangan, degan fikrda edilar. Bu fikr to'g'ri bo'lib chiqmadi. Bir hayvonning ikkinchi bir hayvonga aylangani hech qachon kuzatilgan emas. Bo'ri hamma vaqt bo'riligicha, ayiq — ayiqligicha qolavergan. Shuningdek, maymun ham (shu jumladan odamsimon maymun ham), maymunligicha qolgan. U hech qachon odamga aylangan

emas. Binobarin, odam maymundan kelib chiqqan va barcha ko'nikmalarni maymundan o'rgangan, degan fikr asosli emas.

Antropologiya fanining so'ngi dalillari shuni ko'rsatdiki, odam avval boshidanoq odamsimon maxluq sifatida yaratilgan. Uning odamga xos hamma asosiy belgilari bo'lgan. Masalan, bu maxluq ikki keyingi oyoqlarida tik yurgan. Oldingi oyoqlari (qo'llari) bo'sh bo'lgan. Ularda bir narsani ushlab uchun beshtadan barmoq bo'lgan. Idrok etish qobiliyatlari hamma hayvonlarning idrok etish qobiliyatidan yuqori bo'lgan. Umuman bu maxluqning gavda tuzilishi hozirgi odamning gavda tuzilishiga yaqin bo'lgan. Shuning uchun antropologlar bu maxluqni antropoid ya'ni odamsimon maxluq deb ataganlar.

Antropoidning gavdasi evolyutsion rivojlanish natijasida takomillashib, u haqiqiy odam qiyofasini olgan.

Odamning bunday evolyutsion takomillashishi ba'zi Sharq olimlariga ham ma'lum bo'lgan. Masalan, Samarqandlik mashhur olim va adib Nizomiy Aruziy Samarqandiy (XII-asr) o'zining «Majma'an-navodir» (Nodir hikoyatlar) nomli asarida bunday, deb yozgan: «Osmon yoritgichlari»ning ta'siri ostida havo va suv ishtirokida dastlab tabiatdagi jonsiz narsalar paydo bo'ldi. So'ng ko'p zamonlar o'tganidan keyin turli o'simliklar kelib chiqdi. Hayvonlardan birinchi bo'lib yomg'ir chuvalchangi paydo bo'ldi. Oxirida esa nasnos (odamsimon maxluq) kelib chiqdi. Nasnos shunday maxluqki, uning qomati tik, qaddi alifdek, tirnoqlari enlidir. Bu maxluq ko'p jihatdan odamga o'xshaydi. Hozirgi odamlar shu nasnosdan kelib chiqqanlar»\*.

Nanosning muolaja usullariga to'xtalib, Aruziy bunday deb yozadi: «u po'lat, brinj, mis, qo'rg'oshin va qalaydan uy anjomlari va qurol-yarog'lar tayyorladi. O'simliklar olamidan yemish, kiyim-kechak va paloslar bunyod etdi. Hayvonot olamidan esa minish va yuk tashishni yuzaga chiqardi. Bu uchta olamning (omilning) hammasidan esa dori-darmonlarni ajratib oldi va ular bilan muolaja qildi»\*\*. Bu yerda Aruziy juda muhim bir dalilni, ya'ni nasnosning qurol ishlatganligini ko'rsatgan. Ma'lumki, inson aynan qurol ishlatish tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan.

Antropoid maymunga nisbatan muolaja usulidan kengroq foydalangan. U qurol yordamida maymun qilolmaydigan muolaja usullarini ham amalga oshirgan.

\* Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Nodir hikoyalar, Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1985 y. 12-bet.

\*\* O'sha joyda.



Antropoidlar qanday muolaja usullaridan foydalanganlari va qanday shifobaxsh o'simliklarni ishlatganlarini aniq aytish qiyin. Lekin, antropoidlarning muolaja usullari va ular ishlatgan shifobaxsh o'simliklarning xillari eng yuqori darajada rivojlangan odamsimon maymunlarnikiga nisbatan ancha yuqori bo'lgan. Fikrimizcha antropoidlar dastlab og'riq qoldiruvchi, kayf beruvchi, ich ketishni to'xtatuvchi, yara-chaqalarni tuzatuvchi dorivor o'simliklardan foydalangan bo'lsalar kerak. Bu dorilar o'z tabiiy holida ishlatilgan, ya'ni ularni chaynab yutganlar.

Odamsimon maxluqlar tabiatda shifobaxsh o'simliklar borligini oldindan bilgan emaslar. Ular ovqat qidirish jarayonida tabiatda shifobaxsh o'simliklar borligini bilib olganlar. So'ng zarur bo'lib qolganida bu o'simliklarni izlab topib ishlatganlar. Dorivor o'simliklarni topish va ulardan foydalanish juda uzoq vaqt davom etgan.

Bir shifobaxsh o'simlik topilganidan so'ng ikkinchisini topish o'rtasida asrlar o'tgan, chunki, antropoidlarning «laboratoriyasi» tabiatning o'zi bo'lgan. Tabiatning sir-asrorlarini bilib olish esa bu maxluqlar uchun oson ish bo'lmagan. Bunda ko'proq tasodif rol o'ynagan. Masalan, biror joyi og'rib turgan maxluq tasodifan og'riq qoldiruvchi o'simlikni yeganida undagi og'riq to'xtab qolgan. So'ng esa biror joyi og'riganida shu o'simlikni qidirgan. Ichi ketayotgan maxluq bir vaqt uning ichini to'xtatgan o'simlikni qidirgan. Shunday qilib, qadamba-qadam dorivor o'simliklar topila borgan.

Qo'l bilan amalga oshiriladigan muolaja usullariga kelsak, odamsimon maxluqlar tug'ruq paytida ayolga yordam berish, tug'ilgan chaqaloqning kindigini kesish va bog'lash, jarohatlangan joydan oqayotgan qonni to'xtatish va uni bog'lash kabi muolajalarni qilganlar. So'ng esa bu usullar takomillashib, rivojlanib borgan. Masalan, ilgari chaqaloqning kindigini tishlab uzgan bo'lsalar, keyinchalik bu maqsad uchun qirrali toshdan foydalanganlar.

Qirrali toshlarni tananing biror joyida to'planib qolgan yiringni chiqarib yuborish uchun ham ishlatganlar. Keyinchalik bu maqsad uchun ochiq tabiatda topiladigan metallardan foydalanganlar.

Muolajada qirrali tosh (toshpichoq) ishlatila boshlagan kunni «odam tibbiyoti» ning paydo bo'lgan kuni deb atash mumkin. Bu «tibbiyot» asta-sekin rivojlanib va takomillashib borib, hozirgi zamon tibbiyoti darajasiga yetdi. O'zbekiston hududida ham tibbiyot shu yo'lni bosib o'tgan. Buni arxeologik materiallar va tibbiy-tarixiy adabiyot isbot etadi. Respublikamizdagi arxeologiya muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarida bunday materiallar juda ko'p.

---

## I b o b . O'ZBEKISTON HUDUDIDA TIBBIYOTNING KELIB CHIQISHI

### Dastlabki muolaja usullarining ishlab chiqilishi

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston hududida tibbiyot insoniyat jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichida, ibtidoiy jamoa davrida kelib chiqqan. Tibbiyotga o'sha davrda yashagan antropoidlar (odamsimon maxluqlar) asos solganlar.

Hozirgi O'zbekiston hududida antropoidlarning suyaklari Farg'ona viloyatidagi Selengur g'oridan topilgan. Arxeologlarning aniqlashicha Selengurda topilgan antropoid bizdan 800 — 700 ming yil muqaddam yashagan ekan. Demak, bizning tibbiyotimiz 800 — 700 ming yillik tarixga ega.

Antropoidlar tashqi qiyofalari jihatdan hali unchalik odam ko'rinishni olmagan maxluq bo'lganlar. Idrok etishda ham ular odamlardan yiroq edilar. Iekin maymunlarga nisbatan ancha yuqori rivojlangan bo'lganlar.

Tarixdan ma'lumki, ibtidoiy odamlar birinchi bo'lib qurol ishlata boshlaganlar. Qurol ishlatish natijasida antropoidlarning muolaja usullari tez rivojlana boshladi. Boshqa hayvonlarda esa muolaja usullari shakllanmay qolgan.

Antropolog olimlarning yozishlaricha, antropoid ti pigakinuvchi maxluqlardan birinchi bo'lib avstralopiteklar\* qurol ishlata boshlaganlar. Ammo, ularning ishlatgan qurollari oddiy tayoq, hayvonlarning suyagi va ishlov berilmagan toshdan iborat bo'lgan.

Bu qurollar bilan biror murakkabroq ishni bajarish mumkin emas. Binobarin, avstralopiteklar ishlatgan oddiy qurollar bilan muhimroq muolaja qilib bo'lmagan. Shuning uchun avstralopitek-

---

\* «Antropologlar bu maxluqni avstralopitek (Avstrialiya maymuni), deb noto'g'ri ataganlar. Antropoidlar maymunga o'xshaganlar ham, maymun bo'lmaganlar. Ularni avstralantrop, ya'ni Avstraliya odami, deb atashi to'g'riroq bo'lar edi. Ammo, bu maxluq jahon ilmiy tarixiy adabiyotiga «avstralopitek» nomi bilan kirib qolgan.

larning muolaja usullari odamlarnikidan ko'ra, ko'proq maymunlarnikiga yaqinroq bo'lgan.

Antropoid tipiga kiruvchi maxluqlardan gavda tuzilishi va idrok etish jihatidan avstralopitekka nisbatan yuqoriroq rivojlangan maxluqlar pitekantrop<sup>\*\*</sup> (maymun odamlar)dir. Pitekantrop-larni «homo erektus», ya'ni «tik yuruvchi odam», deb ataganlar. Bu maxluqlarning intellektual qobiliyati ham yuksakroqdir.

Pitekantrop<sup>\*\*</sup>lar avstralopitekklarga nisbatan har xil qurollardan kengroq foydalanganlar. Ba'zi antropologlarning fikricha, pitekantrop<sup>\*\*</sup>lar birinchi bo'lib, qurol yasay boshlaganlar. Xususan, ular toshpichoq (o'tkir qirrali qilib kesilgan tosh), toshbolta, tosh-to'qmoq yasaganlar. Ular shu qurollardan muolaja maqsadida foydalangan bo'lishlari ham mumkin. Masalan, tananing biror joyida, teri ostida yig'ilib qolgan yiringni kesib chiqarib yuborish, yangi tug'ilgan chaqaloqning kindigini kesish va h.k.

O'zbekiston hududida topilgan Selengur odamining gavda tuzilishi va idroki pitekantropnikiga yaqin bo'lgan, balki undan ham yaxshiroq rivojlangan. Demak, Selengur odami pitekantrop bajargan hamma ishlarni qila olgan. Binobarin, Selengur odamining muolaja usullari ham ancha yuqori bo'lgan.

Tarixiy rivojlanishda pitekantrop<sup>\*\*</sup>lardan so'ng Sinantrop<sup>\*\*</sup>lar (Xitoy odamlar) davri boshlanadi. Bu maxluqlar o'z gavda tuzilishi va idroki jihatidan pitekantrop<sup>\*\*</sup>larga nisbatan ko'proq rivojlangan bo'lganlar. Ko'pchilik antropologlarning fikricha, sinantrop<sup>\*\*</sup>lar qurol yasashda juda mohir bo'lganlar. Ular ancha takomillashgan qulay va nozikroq qurol yasay olganlar. Bu qurollar bilan esa ba'zi murakkabroq muolaja qilish imkoniga ega bo'lganlar. Masalan, o'tkir qirrali qilib yasalgan tosh yoki suyak bilan qattiq jarohatlanib, osilib qolgan biror a'zoni (qo'l yoki oyoqni) kesib tashlash. Yoki suyakdan yasalgan igna bilan oyoq ostiga kirib qolgan zirapchani chiqarib olish va h.k.

Antropoidlar hayvonot olamidani ajralib chiqib, haqiqiy inson qiyofasiga ega bo'lgunlaricha yana bir necha bosqich rivojlanish yo'lini bosib o'tdilar. Xususan, ular sinantrop<sup>\*\*</sup>lar bosqichidan keyin atlantrop<sup>\*\*</sup>lar, so'ng heidelberglar va olduvaylar bosqichini o'tdilar. Shu uchala davr antropoidlarini birlashtirib, ularni arxantrop<sup>\*\*</sup>lar, deb atadilar.

---

<sup>\*\*</sup>Bu yerda ham antropologlar bu maxluqni «pitekantrop» («maymun odam»), deb noto'g'ri ataganlar.

Arxantropoidlardan alohida ahamiyatlisi olduvaylardir. Bu xil antropoidlar boshqa turlarga nisbatan idrokliroq bo'lganlar. Shuning uchun ularni «Homo habilis» ya'ni «Uquvli odam», deb ataganlar. Bular boshqa antropoidlardan birinchi galda o'zlarining idrok etish qobiliyatlari bilan ajralib turganlar. Tashqi qiyofalari ham haqiqiy odamga juda yaqin bo'lgan. Xatti-harakatlari va yashash tarzlari hayvonlarnikidan tamomam ajralib chiqib, insonlarnikiga yaqinlashgan. Har xil muolaja usullarini qo'llashda ham olduvaylar boshqa antropoidlarga nisbatan uquvliroq bo'lganlar. Bu yerda eng muhimi shuki, olduvaylar muolaja usullarini qo'llashda faqat instinktiv harakat qilmay, o'z idrokini ham ishga solganlar. Masalan, qanday kasallik holatida qaysi usul va qanday dorivor o'simlik ko'proq yordam berishini ajrata boshlaganlar. Demak, olduvaylar turli xil o'simlik turlicha xususiyatga ega ekanligini bilganlar.

Antropogenes (odamning kelib chiqishi) jarayonining navbatdagi bosqichida antropoidlar (odamsimonlar) paleoantropolar (qadimgi odamlar)ga o'tdilar. Bular hamma jihatdan hozirgi zamon odamlariga juda o'xshash bo'lganlar. Bu yerda shuni ko'rsatib o'tish kerakki paleoantropning yuzaga chiqishi antropoidning paleoantropga aylanishi emas, balki antropoidning o'zida mavjud bo'lgan odamlarga xos xususiyatlarning rivojlanishi va takomillashishi natijasidir. Paleoantropolarning suyagi birinchi marta Germaniyaning Neandertals vodiysida topilgan edi. Shuning uchun bu maxluqlarni neandertalslar, deb atadilar. Neandertalslar bizdan 100 000 yil muqaddam yashaganlar.

Bizda neandertalslarning suyagi Surxondaryo viloyatida, Boysun tog'idagi Teshik to'sh g'oridan topildi. U 9 yashar bolaning suyaklari ekan. Neandertalslar tashqi ko'rinish jihatidan odam qiyofasini olgan bo'lsalar ham, ba'zi jihatdan odamdan farq qilganlar. Masalan, ularning manglayi pastga qiyalab tushgan. Qoshining tepasi bolishsimon bo'lib, bo'rtib chiqqan, jag' suyagi katta, tishlari yirik. Boshining hajmi esa o'zidan oldingi antropoidlarnikidan ancha kattadir. Neandertalslarda idrok etish bilan birga oddiy abstrakt fikrlash qobiliyati ham paydo bo'lgan. Masalan, ular qurol yasashda uning shakli qanday bo'lishi kerakligini oldindan fikran belgilab olganlar. Arxeologlar neandertalslar yashagan qarorgohlardan 60 xilga yaqin turli tosh qurollarini topganlar. Ammo, ular bu qurollar orasida muolaja maqsadida ishlatilganlari bor yoki yo'qligini ko'rsatmaganlar. Fikrimizcha shunday qurollar

bo'lgan, albatta. Ammo, by qurollar toshdan yasalgan bo'lganligi uchun ulardan foydalanish imkoniyati unchalik keng bo'lmagan.

Insonlar taraqqiyotida paleoantropdan so'ng mezentroplar (oralik odamlar) davri boshlanadi. Bu davr 50—40 ming yilni o'z ichiga oladi. Bunday odamlarning suyaklari birinchi marta Fransiyaning Kromanyon nomli g'oridan topilgan. Shuning uchun ularni kromanyon odami, deb ataganlar.

Bizda kromanyonlarning suyagi 1930 - yilda Samarqand shahrining markazida, Ko'lbog' degan joydan topildi. Antropologlarning fikricha kromanyonlar neandertalslarga nisbatan baland bo'yli, yelkaları keng, jismoniy jihatdan kuchli bo'lganlar. Idrok etish jihatidan ham kromanyonlar neandertalslarga nisbatan ancha yuqori turganlar. Kromanyonlar ko'pxo'rakli maxluq bo'lganlar. Ular juda ko'p xil o'simliklarni iste'mol qilganlar. Shuning uchun bular neandertalslarga nisbatan ko'proq shifobaxsh o'simliklarni bilganlar. Binobarin, Kromanyonlar ishlatgan o'simliklarning soni ham ko'p bo'lgan.

Kromanyonlar o'z gavda tuzilishi, idroki va yashash tarzi jihatdan hozirgi zamon odamlariga ancha yaqin turganlar. Qurol yasashda katta maxoratga erishganlar. Ular birinchi bo'lib, o'q va o'qyoq (kamon) ixtiro qilganlar. Buning natijasida kromanyonlarning go'sht iste'mol qilish chegarasi kengaygan. Ular kattaroq hayvonlarni ham uzoqdan turib kamon bilan otib, ularning go'shtini iste'mol qilganlar.

Kromanyonlar erishgan muhim natijalardan biri shu bo'ldiki, ular birinchi bo'lib, ba'zi hayvonlarni «uy sharoiti»ga o'rgata boshladilar. Bizning hududimizda yashagan kromanyonlar «uy sharoiti»ga dastlab qo'y, echki va sigirni, so'ng otini o'rgatganlar.

O'sha zamonda ziroat ishiga ham qadam qo'yilgan. U vaqtdagi odamlar tabiatdagi mavjud tayyor yemishlarni yig'ib, terib iste'mol qilish bilan cheklanib qolmay, o'zlari ba'zi o'simliklarni ekib o'stira boshladilar. Shunday qilib, kromanyonlar har xil kasallik xolatlarini davolashda turli o'simliklardan keng foydalana boshlaganlar.

Mezentroplardan so'ng neoantropplar (yangi odamlar) davri keldi. Bu antropogenez jarayonining oxirgi bosqichi edi. Neoantropplar insonga xos bo'lgan hamma xususiyatlarga ega bo'lganlar. Antropologlar ularni «homo sapiens» (fikrlovchi odam), deb atadilar. Bizda bunday odamlarning suyaklari birinchi marta Samarqand viloyatining "Tog"li qoratepa massivida topildi. Bu odam qabrga ko'milgan ekan. Demak, neoantropplar o'lgan odamning jasadini ko'mish kerakligini bilganlar.

Neoantroplar hayotidagi eng muhim o'zgarish shundan iborat bo'ldiki, ular o'zlari uchun turar-joy qurishni bilib oldilar. Bu asosan atrofi toshlar va daraxt shohlari bilan o'rab olingan chayladan iborat edi. Bunday chaylalarni ko'proq daryo bo'ylarida (baliq tutish uchun), chakalakzor o'rmonlarda (hayvonlarni ovlash uchun) qurganlar.

Neoantroplar ish quroli yasashda ham yangilik kiritdilar. Ular ursa sinib ketmaydigan juda qattiq tosh jinslaridan (masalan, nefrit, yashma) qurol ishlay boshladilar. Bu toshlarga ishlov berishda o'tkirlash va silliqlash usullaridan foydalandilar. Shunday yo'l bilan toshdan bo'lsa ham o'tkir, silliq va qulay qurollar yasaganlar. Shubhasiz bu qurollardan muolaja maqsadlarida ham foydalanganlar.

Neoantroplar hayotidagi yana bir muhim yangilik sopol buyumlar kashf etilishi bo'ldi. O'sha davr kishilari sopol idishlarda ovqat pishirish bilan birga ba'zan dorivor o'simliklarni qaynatib, ulardan qaynatmalar va damlamalar tayyorlay boshladilar. Shunday qilib, doridan foydalanishning yangi usulini — qaynatma va damlama tayyorlashni ham bilib oldilar.

O'sha zamon kishilarining hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan omillardan biri olovning kashf etilishi bo'ldi. Birinchidan, kishilar olovdan foydalanib yer yuzining hayvonlar va o'simliklar ko'proq bo'lgan shimolroq hududlarida ham yashay boshladilar. Ikkinchidan olov odamlarning oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish usullarini ham o'zgartirib yubordi. Ilgari go'sht xomligicha yeyilgan bo'lsa, endi u olovda pishirib yoki suvda qaynatib iste'mol qilinadigan bo'ldi. Tabiiyki, go'sht olovda yumshoqroq va mazaliroq bo'lib pishadi. Biz hozir yeydigan kabobni o'sha neoantroplar kashf etganlar, desak xato bo'lmas. Olovda pishirilgan, ayniqsa, qaynatilgan go'sht oson va tez hazm bo'lib, me'da va ichaklarga qattiq botmaydi. Binobarin, olovda pishirilgan go'sht iste'mol qilgan neoantroplar me'da-ichak kasalliklarga kamroq duchor bo'lganlar. Olovning kashf etilishi tibbiyotning rivojlanishida juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Insonning antropoid sifatida dunyoga kelib, toki hamma jihatdan inson qiyofasini olgan neoantroplargacha rivojlanib o'tgan davrini antropologlar tosh davri, deb ataydilar. Bu davr 2 million 500 ming yilni o'z ichiga oladi. Uzoq davom etgan bu davrda insonlar uchun asosiy ish quroli tosh bo'lgan. Tosh yordamida biror murakkabroq muolaja usulini amalga oshirish mumkin emas. Buning

uchun ancha takomillashgan qurol kerak. Toshni esa takomillashtirib (unga ishlov berib) bo'lmaydi, u sinib ketadi. Shuning uchun tosh davrining «tibbiyoti» ba'zi ijobiy natijalarga erishgan bo'lsa ham, juda past darajada rivojlangan edi.

Tosh davridan so'ng bronza davri kelgan. Odamlar tog'larda va ochiq dalalarda toshga o'xshagan, lekin ursa sinmaydigan ma'danlar mavjudligini sezib qolganlar va ulardan foydalana boshlaganlar. Xususan, har xil shakl va o'tkirlidagi buyumlar yasab, ularni ishlatganlar. Bu topilmalarning ko'pchiligini mis (yunoncha — enus) tashkil etgan. Birinchi yasalgan buyumlar va qurollar shu misdan ishlangan. Shuning uchun bronza davrining daslabki bosqichini eneolit (mis davri), deb ataganlar.

So'ng misga boshga metallar (qalay, qo'rg'oshin) qo'shib ishladilar va unga bronza, deb nom berdilar. Bronza qattqlik va yumshoqlikda juda qulay metal bo'lib, undan turli shaklda va turli o'tkirlidagi qurollar va asboblari yasash mumkin bo'lgan. Tibbiy muolaja asboblari ham bronzadan ishladilar. Xususan, jarrohlik pichoqlari, qaychilari, naychalar, ignalar, suyak kesadigan va qiradigan iskanalar shu bronzadan yasaldi. Bular yordamida ancha murakkabroq jarrohlik operatsiyalarini bajara oldilar. Masalan, bosh suyagini trepanatsiya qilish, o'zi tug'olmagan ayolning qomini yorib, bolani chiqarib olish, kuchli jarohatlangan a'zoni (qo'l yoki oyoq) kesib tashlash va h.k. Shuning uchun bronza davriga kelib, muolaja ishlari, ayniqsa jarrohlik ko'proq rivoj topdi. Jarrohlik muolaja usullarini ishlab chiqishda qurol ishlatish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Daslabki muolaja usullari ishlab chiqilgandan so'ng tibbiyot rivojlanishda davom etib, alohida kasb sifatida shakllandi.

### **Tibbiyotning kasb sifatida shakllanishi**

Tibbiyot ibtidoiy jamoa davrining matriarxat bosqichida kelib chiqqan, birinchi «tabiblar» ayollar bo'lganlar. Tarixiy dalillar shuni tasdiqlaydi.

Ma'lumki, ibtidoiy jamoa davrining matriarxat bosqichida oila va qabilaga ayollar boshchilik qilganlar. Binobarin, ular o'z oila va qabila a'zolarining hayoti va sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishlari zarur bo'lgan. Shunga ko'ra ayollar tibbiy yordamga muhtoj bo'lganlarni muolaja qilganlar. Masalan, tug'ayotgan ayolga yordam berganlar, tug'ilgan chaqaloqning, kindigini bog'laganlar va

kesganlar, jarohatlanganlarning jarohatini bog'laganlar, jarohatdan oqayotgan qonni to'xtatish chorasini ko'rganlar, bemorlarni parvarish qilganlar va h.k.

Shifobaxsh o'simliklarni ham birinchi bo'lib, ayollar topib ishlata boshlaganlar. Ibtidoiy jamoa kishilari ko'proq hayvonlarni ov qilish bilan shug'ullanganlar. Bu ishda ayollar kamroq qatnashganlar. Ular ko'pincha o'z qarorgohlarida qolib, yaqin joylardagi o'rmonlardan har xil yegulik va shifobaxsh o'simliklarni yig'ib kelib, ulardan foydalanganlar. Shunday qilib, tibbiyotni ayollar boshlab berganlar.

Ilgari tibbiyot tarixchilari o'rtasida tabobatning asosini bizdan yuz ming yil muqaddam yashagan neandertalslar solganlar, degan fikr hukm surardi. Lekin, arxeologik — ashyoviy dalillar shuni ko'rsatdiki tibbiyotning asosini neandertalslardan ancha oldin yashagan antropoidlar solgan ekanlar. Neandertalslar tibbiyotni kashf etgan emaslar. Ular ilgari ma'lum bo'lgan muolaja usullarini rivojlantirdilar, xolos.

Neandertalslar hayotidagi eng katta kashfiyot shu bo'ldiki, ular o'zaro munosabatlarida bir-birlari bilan tovush chiqarib sozlashni o'rganib oldilar. Bu esa o'z navbatida tibbiyotni tez rivojlanishi uchun imkon yaratdi. Bemor uni davolayotgan kishiga o'z kasalligi haqida so'zlab berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Davolovchi esa shunga qarab, kasallikni oson aniqlash va davolash imkoniyatiga ega bo'ldi. Shunday qilib, neandertalslar tibbiyotni yana bir qadam yuqoriga ko'tardilar. Ular tibbiyotda ishlatiladigan shifobaxsh o'simliklarning sonini ham ko'paytirdilar.

Ibtidoiy odamlar zaharli moddalardan ham foydalanganlar. Oddiy kamon o'qi bilan yirik hayvonni (masalan, fil, mamont, timsox va h. k.) o'ldirib bo'lmaydi. Bunday holda o'q uchiga zaharli o'simliklardan olingan suyuqliqni surtib otganlar. Afrika qit'asida yashovchi hozirgi ba'zi qabilalar bu maqsad uchun o'zida kurare yoki strofantin saqlovchi o'simlikdan olingan suyuqliklardan foydalanadilar. Ehtimol qadimgi odamlar ham shularni ishlatgan bo'lsalar kerak.

Shu yuqorida keltirilganlarning hammasi matriarxat davri tibbiyotiga taalluqlidir. Matriarxat tibbiyotining asosiy xususiyati shundan iboratki, bu davrda tibbiyot hali kasb sifatini olmagan edi. Oila yoki qabila boshlig'i zarur bo'lib qolganida jarohatlangan yoki kasallikka uchragan kishini davolab, boshqa vaqtda o'z ishi bilan shug'ullanardi.



Kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum davriga kelib patriarxat bilan almashdi. Erkaklar moddiy boyliklarni o'z qo'llariga oldilar. Buning natijasida ular oila va qabilada yetakchi mavqei egalladilar. Oila va qabilaning hayoti va sog'ligi haqida qayg'urish ham erkaklar zimmasiga tushdi. Shuning uchun ular muolaja ishlari bilan shug'ullana boshladilar. Odatda bu ish bilan ko'proq yoshi ulug'roq, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan kishilar shug'ullanganlar.



Trepanatsiya qilingan bosh suyagi.

Tabiiy holda topiladigan metallardan foydalanish shu patriarxat davriga to'g'ri keladi. Ulardan qurollar, shu jumladan muolaja uchun ishlatiladigan asboblari tayyorlay boshladilar. Bular yordamida anchagina murakkabroq muolaja usullari amalga oshirila boshlandi. Masalan, bosh suyagini trepanatsiya qilish (teshish), chiqqan, singanlarni davolash va h. k. Bosh suyagini teshishdan maqsad «miyaga kirib olgan» kasallikni chiqarib yuborish bo'lgan. Ibtidoiy davr odamlari, kasallik ko'proq bosh miyaga o'mashib oladi, deb o'ylaganlar.

Arxeologik tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, hozirgi O'zbekiston hududida yashagan qadimgi odamlar shunday usullardan foydalanganlar. Masalan, Xorazm viloyatida qadimgi odamning trepanatsiya qilingan bosh suyagi topildi. Ba'zi «tabiblar» shifobaxsh o'simliklarni ekib, o'stirib ulardan ham foydalanganlar.

Ibtidoiy jamoa davrining oxiriga kelib, odamlar ko'chib yurishdan asta-sekin o'troq hayot kechirishga o'ta boshladilar. Buning natijasida mehnat taqsimoti kelib chiqdi. Avvalo mehnat erkaklar bilan ayollar, kattalar (qariyalar) va yoshlar o'rtasida taqsimlandi. So'ng asta-sekin mehnat ayrim kasblar bo'yicha taqsimlandi. Buning natijasida turli kasblar kelib chiqdi. Davolash ishi bilan shug'ullanuvchi tajribali kishilar bu ishni o'zlariga kasb qilib oldilar. Shunday qilib tabiblik kasbi shakllangan.

Lekin, bu jarayon tez va oson amalga oshmadi. Tibbiyotni rivojlantirish, yangi tashxis va davolash usullarini ishlab chiqish

u vaqtdagi odamlar uchun yengil bo'lmagan. Shunday bo'lsa ham tibbiyot asta-sekin rivojlanishda davom etdi. Tabiblar soni ham ko'paya bordi.

Tabiblik kasbi boshqa ko'p kasblardan oldin shakllandi. Chunki odamlar juda erta, hayotga endigina qadam qo'yanlaridayoq salomatliklarini saqlab qolish va kasalliklardan qutilishga intilganlar, jarohatlanganlarida yoki biror kasallikka uchraganlarida qo'lidan yordam keladigan odamlarga murojaat qilganlar.

Bular esa bemorlarni davolashni o'zlariga kasb qilib olganlar.

### **Kasalliklarning sabablari haqidagi dastlabki tushunchalar**

Ibtidoiy odamlar kasalliklarning sabablarini rivojlanishining turli bosqichida turlicha tushunganlar. Insoniyat jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichida (matriarxat davrida) yashagan kishilarning tabiat va unda sodir bo'lib turuvchi hodisalar haqidagi tushunchalari juda sodda (primitiv) bo'lgan. Ular dunyo tashqi tomondan qanday ko'rinishga ega bo'lsa, uni shunday tasavvur etganlar. Hodisalarning ichki mohiyatini bilmaganlar va u bilan qiziqmaganlar. Kasalliklar haqida ham shunday bo'lgan. Ular bemor nima sababdan kasal bo'lib qolgan; degan masala bilan qiziqmay, uni davolayverganlar. Bunda davolash asosan simptomatik xarakterga ega bo'lgan. «Tabiblar» kasallikning sababini emas, uning alomatlarini davolaganlar. Masalan, kishining boshi og'risa, u nima uchun og'riyapti, deb o'ylab o'tirmay, og'riq qoldiruvchi, ichi ketayotgan bo'lsa ichni to'xtatuvchi dori berganlar, xolos. U vaqtdagi «tabiblar»ning kasallik sababini fikrlashga idroklari oqizlik qilgan.

Kishilarda abstrakt fikrlash qobiliyati paydo bo'lganidan so'ng ular atrofdagi hodisalar bilan qiziqqa boshlaganlar va har xil hodisalarning mohiyatini bilishga intilganlar. Shuningdek, kasalliklarning ham sababini bilishga harakat qilganlar. Lekin, bu masalada ko'p narsaga idroklari yetmagan. Masalan, tabiatda sodir bo'lib turuvchi vahimalik hodisalar (momaqalldiroq, chaqmoq, yer qimirlashi, vulqon otilib chiqishi va h.k.) haqida fantastik fikrlar paydo bo'lgan. Odamlar bu hodisalarni keltirib chiqaruvchi qandaydir g'ayritabiiy kuchlar bo'lsa kerak, deb o'ylaganlar. Kasalliklar haqida ham shunday fikr yuritganlar. Masalan, kasallik paydo qiluvchi qandaydir johil kuch bo'lsa kerak, deb faraz

qilganlar. Bunday tushunchaning eng qadimiysi feteshizm, ya'ni atrof tabiat va undagi narsalarni vohimali qilib tasavvur etishdir. Bu tushunchaga binoan tabiat va undagi mavjud narsalarda qandaydir g'ayritabiiy kuch bor, shu kuch kasalliklarni ham keltirib chiqaradi, deb o'ylaganlar. So'ng animizm (lotincha anima — ruh so'zidan) tushunchasi paydo bo'ldi. Bu tushunchaga binoan dunyo son-sanoqsiz ruhlarga to'lib-toshgan. Shular har xil falokatlarini keltirib chiqaradilar. Kasalliklarni ham shu ruhlar paydo qiladi, deb o'ylaganlar. Ruhlar hisobiga kishining o'lib ketgan ajdodlari ruhini ham qo'shganlar. Agar kishi marhum avlod-ajdodiga nisbatan hurmatsizlik qilsa, o'sha marhumning ruhi kishiga har xil kasalliklar yuborib, undan o'ch oladi, deb o'ylaganlar. Har xil kasalliklarni yuboruvchi «johil» ruhlardan tashqari, kishiga sog'liq va baxt keltiruvchi «rahmdil» ruhlar ham borligiga ishonganlar.

O'sha zamon kishilarining tushunchasicha kasallik paydo qiluvchi «johil» kuchlar odam tanasiga (ko'proq bosh miyaga) kirib olib, har xil kasallik alomatlarini (isitma ko'tarilishi, qaltirash, bosh og'rig'i va h.k.) keltirib chiqaradi, deb hisoblaganlar.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari, yana totemizm tushunchasi ham mavjud. Bu tushuncha «totem» degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, u «mening qabilam», degan ma'noni bildiradi. O'sha zamon kishilari har bir qabila ma'lum bir hayvon (totem)dan kelib chiqqan, deb hisoblaganlar. Shunga ko'ra agar kishi o'z totemiga nisbatan hurmatsizlik qilsa, u o'sha kishiga kasallik yuborib, uni qiynaydi, deb o'ylaganlar.

Bemorlarni davolash choralari kasalliklar haqidagi tushunchalarga muvofiq olib borilgan. Bu tadbirlar asosan kishi tanasiga kirib olgan «johil kuch»ni chiqarib yuborishga qaratilgan. Avval har xil o'yinlar, raqsga tushishlar, xushomadgo'yliklar bilan bu «kuch»ning ko'nglini yumshatib, uni bemor tanasidan o'zi chiqib ketishiga erishmoqchi bo'lganlar. Agar bu chora bilan «johil kuch»ni chiqarib yuborish mumkin bo'lmasa, uni zo'rlik bilan «chiqarganlar». Bu maqsad uchun qo'rqitish usuli qo'llanilgan. Masalan, tanaga kirib olgan «johil kuch»ga qarshi «hujum qilish» usulidan foydalanilgan. Shu usul asosida shamonizm (afsungarlik) kelib chiqqan. «Johil kuch»ni haydash uchun shamon har xil shovqinli musiqiy asboblardan foydalangan. Bundan tashqari u «johil kuch»ni «qamchi urib haydash» usulini ham ishlatgan. O'zbek xalq tibbiyotida bu usul «ko'chiriq» ya'ni «johil kuch»ni joylashib



Qadimgi yunonlarning  
tibbiyot xudosi Asklepiy

olgan joyidan ko'chirib (haydab) yuborish deb atalgan.

Ibtidoiy jamoa davrining oxiri va quldorlik davrining boshida din kelib chiqdi. Shundan keyin tabiatda sodir bo'luvchi har bir hodisa diniy tushuncha bilan bog'landi. Bunday tushuncha tibbiyot sohasiga ham tarqaldi. Har bir kasallik gunoh qilgan kishiga tangri tomonidan yuboriladi, deb o'ylay boshladilar. Bemorlarni ibodatxonalarda davoladilar. Shunday qilib «ibodatxona tibbiyoti» kelib chiqdi.

Ibodatxonalardagi davolash usullari asosan har xil duolar o'qish va diniy marosimlarni bajarishdan iborat edi. Ba'zan shifobaxsh o'simliklardan ham foydalanardilar. Ammo, bu dorilarning ta'sirini diniy nuqtai nazaridan tushunar edilar.

Amaliy tibbiyotda kasalliklarning kelib chiqishi haqida tajribaga asoslangan to'g'ri fikrlar ham mavjud edi. Amaliy tibbiyot vakillari o'z kuzatishlariga asoslanib, kasallik kishi organizmiga

tashqi zararli omillarning ta'siridan kelib chiqadi, degan xulosaga keldilar. Bunda birinchi o'ringa turli ovqatlarni qo'ydilar. Xususan, sifatsiz ovqat iste'mol qilish, och qolish yoki aksincha badxo'rlik qilish va h.k. Bunday hollarda oshqozon-ichak yo'llarida ovqat yaxshi hazm bo'lmay ularda kasallik kelib chiqadi, degan xulosa chiqardilar.

So'ng iqlim, havo harorati, shamollar va boshqa tabiiy omillarga ahamiyat berdilar. O'zbekiston hududida yashagan qadimgi xalqlarning kasallik va uning sabablari haqidagi tushunchalari shunday edi.

O'lkamiz tibbiyoti tarixini o'rganishda uzoq o'tmishdagi ajdodlarimiz qanday kasalliklar bilan og'rikanliklarini bilish muhim ahamiyatga ega. Paleopatologik (qadimgi zamonlardagi kasalliklar haqidagi fan) tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, kasallik paydo qiluvchi omillar yer yuzida tirik mavjudotlar kelib chiqishi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan ekan. Arxeologik qazilmalar vaqtida

topilgan eng sodda organizmlarda ham kasallik alomatlari topilgan. Xususan, ularda yuqumli kasalliklarning asoratlari aniqlangan. Toshga aylanib qolgan ko'pgina mavjudodlarning tanasida ham travmatik shikastlanishning qoldiqlari ham kuzatilgan. Tarixiy adabiyotda neandertalilar va kromanyonlarda kasallik alomatlari topilgani haqida ma'lumot mavjud.

O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik tekshirishlar shuni ko'rsatadiki bizning qadimgi ajdodlarimizda har xil kasalliklar va shikastlanishlar ko'p bo'lgan ekan. Xususan, qadimgi odamlarning suyaklarida turli somatik kasalliklar, travmalar va anomaliyalarning asoratlari aniqlangan.

### **Ilmiy tibbiyotning shakllanishi**

Inson faoliyatining bir sohasi sifatida kelib chiqqan tibbiy kasb doimo rivojlanib, takomillashib bordi. U yangi tashxis va davolash usullari bilan boyidi. Buni kishilar hayotining o'zi taqozo qilgan. Tabiblar ham, bemorlar ham tibbiyotning rivojlanishidan manfaatdor edilar. Bemorlar tajribaliroq tabibga murojaat qilishga harakat qilganlar. Tabiblar o'zlariga bemorlarni ko'proq jalb qilish uchun ularga to'g'ri tashxis qo'yish va yaxshiroq davolashga intilganlar. Shu maqsadda tashxis qo'yish va davolashning yangi-yangi usullarini izlab topardilar. Har xil dorilarni ishlatib ko'rganlar va davolash usullarini takomillashtirganlar. Bu bilan ular doim tibbiyotni boyitib borardilar. Shunday qilib, dastlab empirik, amaliy muolaja sifatida paydo bo'lgan tibbiyot rivojlanib, takomillashib ilmiy tibbiyotga aylandi. Ammo, bu jarayon tez va osongina amalga oshgan emas. Amaliy tibbiyot tajribasi umumlashtirilib, fikrdan o'tkazilib, ilmiy tibbiyotga aylangunga qadar ko'p asrlar o'tdi.

Ilmiy tibbiyotning shakllanish jarayoni quyidagicha amalga oshgan: Bemorlarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlarning soni asta-sekin ko'payib borgan. Bu jarayon kishilar o'troq yashash tarziga o'tib, turli o'simliklarni sun'iy ravishda o'stira boshlaganlaridan so'ng ancha tezlashdi. Buning natijasida tibbiyotda ishlatiladigan juda ko'p dorivor moddalar topildi. Ularning xususiyatlarini va qanday kasalliklarda ishlatishlarini esda saqlash qiyin bo'lib qoldi. Har bir dorining xususiyatini va ta'sirini biror yo'l bilan belgilab qo'yish zaruriyati tug'ildi. Shu vaqtda yozuv kashf etildi. Tabiblar darhol undan foydalanib, har xil dorilarning xususiyatlari va ular qanday kasalliklarda ishlatilishini yozib qo'ya boshladilar.

Shunday qilib, birinchi tibbiy yozuvlar paydo bo'ldi. Bu yozuvlar dastlab asosan retseptlardan iborat edi. Unda dorining nomi, xususiyati, qanday kasallikda ishlatilishi ko'rsatilardi.

Tibbiyotning fan sifatida shakllanishida yozuvning kashf etilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuv tufayli tibbiyot empirik amaliyotdan fanga aylandi. Tabiblar har hil kasalliklar va ularning belgilarini ham yozib bora boshladilar. Shunday qilib, birinchi tibbiy adabiyot paydo bo'ldi.

O'zbekiston hududida o'tmishda qadimgi turkiy, xorazmiy va so'g'diy yozuvlari bo'lgan. Shu yozuvlarda boshqa fanlar qatorida tibbiyotga oid ma'lumotlar ham bo'lgan, albatta. Lekin, hozircha bunday ta'lumotlar topilgan emas.

Diqqat e'tiborli tabiblar faqat bemorlarni davolash bilan cheklanib qolmay, tashrix (odam anatomiyasi) bilan ham qiziqqanlar. Odam organizmida sodir bo'ladigan fiziologik (normal) va patologik (kasallik) holatlaridagi o'zgarishlarni ko'zdan kechirib borganlar. Bundan tashqari har xil dorilarning organizmga ko'rsatadigan ta'sirini ham o'rganganlar. Bu kuzatishlarda aniqlangan ma'lumotlar yozib borilgan. So'ng ularni umumlashtirib, maxsus kitoblarda bayon etganlar. Bu kitoblarda odam organizmining tuzilishi, undagi fiziologik va patologik jarayonlar, kasallarga tashxis qo'yish hamda davolash usullari ko'rsatib berilgan. Xususan, qanday kasallikda qaysi dorini ishlatish, qanday muolaja usullarini qo'llash ko'rsatilgan. Shunday qilib, birinchi tibbiy kitoblar paydo bo'lgan. Bu bilan ilmiy tibbiyotga asos solingan.

O'zbekiston hududida eramizning X—XI asrlariga kelib, haqiqiy ilmiy tibbiyot shakl topdi. Bu bilimning shakllanishi o'sha davrda yashagan buyuk hakimlarning, birinchi galda mashhur hakim Abu Ali ibn Sinoning ismi bilan bog'liq. Ibn Sinoni O'rta Osiyoda tibbiyot ilmining asoschisi, deb atash mumkin. Olimning eng katta xizmati shundan iboratki, u o'sha davr tibbiyoti erishgan natijalarni umumlashtirdi, uni o'z tajribalari bilan boyitdi va shuning asosida ilmiy tibbiyotni yaratdi. Ibn Sino va o'sha davrda yashagan buyuk olimlarimizning faoliyatlari hamda yaratgan asarlari tufayli tibbiyotimiz o'rta asrlardayoq jahon ilmiy tibbiyoti darajasiga ko'tarildi.

## **II b o b . O'ZBEKISTONNING QADIMGI ZAMON TIBBIYOTI**

O'zbekistonning qadimgi zamon tibbiyoti haqidagi dastlabki ma'lumotlarni biz zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»dan topamiz. «Avesto» O'rta Osiyo, Eron va Ozarbayjon hududida qadim

zamonlarda yashagan xalqlarning diniy aqidalari haqidagi muqaddas kitobdir. Kitobni eramizdan oldingi VII - asrda yashagan payg'ambar Zardusht yozgan, deb hisoblaydilar. Abu Rayhon Beruniy ham shunday fikrda bo'lgan. U mazkur payg'ambarni Zardusht ibn Safid Tuman, deb atagan.

«Avesto»da O'rta Osiyo va unga qo'shni bo'lgan mamalatlarda yashagan xalqlarning ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy hayotlariga oid ko'p ma'lumotlar bayon etilgan. Unda tibbiyotga oid ma'lumotlar ham mavjud. Kitob avvalo tibbiyotning mustaqil kasb ekanligini e'tirof etadi va tabiblarga bemorni davolaganlari uchun haq to'lash zarurligini ta'kidlaydi. Kitobda bunday deyilgan: «Kohinlarga duo o'qiganlari uchun, tabiblarga kasalni davolaganlari uchun haq to'lash lozim». Bunda tabibning mehnat haqi rasmiy jihatdan belgilab qo'yilgan. Masalan, viloyat hokimini davolagani uchun ikki juft qora mol, tuman hokimini davolagani uchun ot aravasi bilan, jamoa boshlig'ini davolagani uchun bitta buqa berish lozimligi ko'rsatilgan.

«Avesto» uchta kitobdan iborat. Birinchi kitob «Vendidat» («Videvdat»), deb ataladi. U jismoniy va ruhiy poklanish haqidagi qonunlar majmuasidir. Ikkinchi kitob «Vispred» («Vispart»), ya'ni hamma narsani bilish, deb ataladi. Uchinchi kitob «Yasna» deyiladi. Bu kitobda zardushtlarning ibodat qilish qoidalari ko'rsatilgan.

Biz uchun bu kitoblardan muhimi «Vendidat»dir. Bu kitobda tibbiyotga oid ma'lumotlar berilgan. «Vendidat» 22 bobdan tashkil topgan. Shulardan 8 bobi (V- XII boblar) tibbiyot nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Xususan, unda salomatlikni saqlash uchun nimalar qilish kerakligi ko'rsatilgan. Birinchi galda o'lgan odamning jasadidan ehtiyot bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Kitobda yozilishicha, o'lgan odamning jasadida tiriklar uchun zararli xususiyat paydo bo'ladi. Shuning uchun murdaga yaqinlashmaslik zarurligi tavsiya etilgan. Aftidan, o'sha vaqtlardayoq kishilar murda zahari mavjudligidan xabardor bo'lganlar. Bundan tashqari murda orqali har xil yuqumli kasalliklar tarqalishi mumkinligini ham tahmin qilgan bo'lsalar kerak.

Zardushtizm dini yer, suv va havoni muqaddas deb e'lon qilgan. Ularni iflos qilish katta gunoh hisoblangan. Modomiyki, murda o'zida kishilarga zarar keltiruvchi xususiyat paydo qilar ekan, uni yerga ko'mish, suvga cho'ktirish yoki yoqib yuborish mumkin emas. Chunki u shu tabiat omillarini zararlaydi, deyilgan.



Qadimgi  
Misrliklarning tibbiyot  
xudosi. Imxoteb

Shu sababdan o'lgan kishining jasadini aholi yashaydigan yerdan uzoq joyga olib borib, tepalik yerlarda ochiq qoldirganlar. U yerda murdani yumshoq qismlarini yirtqich hayvonlar yeb tugatganlaridan so'ng, uning suyaklarini yig'ib olib kelib, ossuariy (suyakdon)larga solib, uyda maxsus qurilgan katak(tokcha)da saqlaganlar. Bizning o'lkamiz hududida arxeologik qazilmalar vaqtida bunday ossuariylar ko'p topilgan.

«Vendidat»da yozilishicha, birinchi bo'lib, Trita ismli zot tabiblik ishi bilan shug'ullangan. U odamlarni kasallik va o'limdan saqlagan. Yaxshilik xudosi Oxuramazda Tritaga kasallarni davolash uchun samodan 10 000 xil dori yuborgan. Trita xaoma, deb ataluvchi ichimlikni kashf etgan kohin hisoblanadi. Xaomani hayot va sog'liq manbai deb ataydilar.

«Avesto»da Traeton ismli tabib haqida ham ma'lumot berilgan.

Qadimgi Eronliklar uni tabiblik xudosi, deb ataganlar. Ularning yozishicha Traeton har xil isitmalar, qichimalar, zaharlanishlar kabi kasalliklarni tuzatuvchi dori kashf etgan.

Fikrimizcha, Trita va Traeton ikki nom bilan yuritiluvchi bir zot bo'lsa kerak. «Avesto»da tibbiyotning kelib chiqishi haqida bir rivoyat bor. Unda aytilishicha, odamlarga tabiblik san'atini Yima ismli zot o'rgatgan. Bu zotni Nuh payg'ambarga nisbat qiladilar. Rivoyatga ko'ra Nuh payg'ambar butun yer yuzi suv bilan qoplanganida katta kema yasab, unga har xil hayvonlardan bir juftidan olib, ularni yo'qolib ketishdan saqlab qolgan ekan.

«Avesto»da odam anatomiyasi va fiziologiyasi haqida ba'zi ma'lumotlar berilgan. Unda odam gvdasi quyidagi qismlardan iborat, deb ko'rsatilgan: suyaklar, muskullar, yog'lar, miya, tomirlar, qon, jigar o'ti va urug' (erkak kishining jinsiy urug'i). Ikki xil tomir mavjudligi aytilgan. Ulardan biri qizil (sog'lom)



qon oquvchi tomir, ikkinchisi qora (nosogʻ) qon oquvchi tomir. Bulardan tashqari oq qon tashuvchi yoki umuman qon tashimaydigan tomir ham borligi koʻrsatilgan. Bu yerda limfatik tomirlar yoki nerv (asab) tomirlari koʻzda tutilgan boʻlsa kerak.

Kitobda qon, oʻt (jigar oʻti) va urugʻning paydo boʻlishi haqida oʻziga xos fikr yuritilgan. Unda oʻt jigarda, qon yurakda, urugʻ umurtqa ustuni kavagida (kanalida) ishlab chiqiladi, deyilgan.

Sezish, hid bilish, eshitish, koʻrish va taʼm bilish markazlari miyada joylashgan, deb toʻgʻri fikr yuritilgan. Odam aʼzolaridan suyak iligiga alohida ahamiyat berilgan. Hayot markazi shunda joylashgan, deb koʻrsatilgan.

Hayot haqida ham oʻziga xos fikr aytilgan. Chunonchi, hayot oʻt(olov)li jarayon, oʻlim esa yonib tugashdir, deb yozilgan. Bu hodisa issiqlik muvozanati buzilishi natijasida kelib chiqadi, deyilgan. Inson hayotining manbai olov va suvdur, deb koʻrsatilgan.

Kasallikning kelib chiqishi haqida bir necha xil fikr bayon etilgan. Avvalo, kasallik Axriman ismli «Johil ilohiyat» bilan bogʻlangan. Har qanday kasallik shu Axrimanning ruhi kishining gavdasiga kirishi bilan boshlanadi, deb yozilgan.

Kasallik kishi organizmiga zararli yel(shamol)ning taʼsirdan kelib chiqadi, deb ham koʻrsatilgan. Aytilishicha, yel ikki xil — sovuq va issiq boʻladi. Issiq yel ayniqsa xavflidir, chunki unda Axrimanning koʻzga koʻrinmas, mayda zarrachalari boʻladi, deb yozilgan.

Kitobda yuqoridagi hayoliy fikrlardan tashqari haqiqatga yaqin amaliy mulohazalar ham bor. Masalan, kasallik paydo qiluvchi omillar qatoriga ovqat ham kiritilgan. Xususan, toʻyib ovqat yemaslik yoki esa aksincha badxoʻrluk, sifatsiz taom isteʼmol qilish kasallik keltirib chiqaradi, deyilgan.

Kishilarning ruhiy holatiga ham jiddiy ahamiyat berilgan. Masalan, kasallik «chuqur oʻylash», yaʼni ruhiy tushkunlik natijasida ham paydo boʻlishi mumkinligi taʼkidlangan. Jismoniy charchash ham kasallik keltirib chiqarishi mumkinligi koʻrsatilgan. Har xil hasharotlar chaqishi natijasida ham kasallik paydo boʻlishligi taʼkidlangan. Ammo, bu yerda hasharotlarni Axriman yuboradi, ular shu Axrimanning buyrugʻi bilan kishini chaqib, uning tanasiga zarar qiladi, deb xato fikr aytilgan.

Kasalliklardan qutulish masalasida avvalo yaxshilik xudosi Oxuramazdaga sajda qilmoq kerak, faqat uning yordami bilan kasallikdan qutulish mumkin, deb yozilgan.

Amaliy jihatdan esa «Avesto»da uch xil davolash usullari koʻrsatilgan. Bular: pichoq bilan davolash (jarrohlik), oʻsimliklar



Jahon ilmiy tibbiyotiga asos  
solgan mashhur hakim  
Hippokrat.  
(460—377)

bilan davolash (dorivorlik) va avrash, ya'ni afsungarlik. Hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan oxirgi usulni psixoterapiya, deb atash mumkin. Ammo, u zamondagi tabiblar bu usulning mohiyatini boshqacha tushunganlar. Ularning fikricha, kasallikni johil kuchlar keltirib chiqaradi va uni avrash usullari bilan tanadan chiqarib yuborish mumkin, deb o'ylaganlar. Bu usul davolashning asosiy usuli hisoblangan.

Amaliy tibbiyotda jarrohlik usulidan ham keng foydalanilgan. Binobarin, o'sha vaqtda mohir jarrohlardan ham bo'lgan.

Ma'lumki, Sharq mamlakatlarida yer yuzida tarqalgan o'simliklarning turli xili o'sadi. Shulardan ko'pi shifobaxsh

o'simliklardir. «Avesto»da ko'rsatilishicha, ular orasida zaharilari ham mavjud. Shuning uchun dori tanlashda ehtiyot bo'lish kerakligi ta'kidlangan.

«Avesto»da tabib oldiga juda mas'uliyatli talab qo'yilgan. Unda yozilishicha tabiblikni kasb qilib olmoqchi bo'lgan kishi dastlab uchta bemorni muvaffaqiyatli davolab, o'z mahoratini ko'rsatishi kerak.

Kitobda tibbiyotning asosiy vazifasi nimadan iborat bo'lishi kerak, degan masalaga alohida ahamiyat berilgan. Bu masalada «Avesto»da yozilgan fikr hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan ham to'g'ridir. Chunonchi, unda tibbiyotning asosiy vazifasi kishi tanasining sog'lig'ini saqlashdan iborat, deb ko'rsatilgan. Tana sog'lig'ini saqlash va turli kasalliklarga qarshi muvaffaqiyatli kurashish uchun «Avesto» birinchi galda gigiyenik va obodonchilik tadbirlarini amalga oshirishni tavsiya etgan. Masalan, chirib buzilayotgan narsalarga yaqinlashmaslik, turar joylarni ozoda saqlash, obodonchilikka ahamiyat berish, ekin ekiladigan yerlardan to'g'ri foydalanish, ko'proq mevali daraxtlar ekish va hokazo. Zardusht eng muhim tadbirlardan biri sifatida aholini toza, yaxshi

sifatli ichimlik suvi bilan ta'min etishni ko'rsatgan. Aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari yetarli va yaxshi sifatli bo'lishi kerakligini ta'kidlagan.

Zardusht to'g'ri ovqatlanish masalasiga alohida ahamiyat bergan. Yetarli ovqatlanmaydigan xalq kamquvvat bo'ladi, bolalari yaxshi o'smaydi, deb ko'rsatgan. «Avesto»da kishi uzoq vaqt ovqat yemay, ro'za tutib yursa, u zayıflashib, bola yaratish qobiliyatini yo'qotadi, deyilgan.

Zardushtning ta'kidlashicha, yoshlar jismoniy va ruhiy jihatdan yetilgan bo'lishlari lozim. Uning yozishicha, qiz bola 15 yoshidan boshlab, bola tug'ish qobiliyatiga ega bo'ladi. Demak, u shu yoshdan boshlab turmush qurishi mumkin. Oila salomatligi uchun yigit faqat sog'lom qizga uylanishi lozim. Er o'z xotini uchun sog'lom hayot sharoitini yaratib berishi kerak. Ayniqsa, uning xotini homilador bo'lgan vaqtda unga nisbatan alohida g'amxo'rlik qilishi zarur. Shundagina xotini yetuk va sog'lom bola tug'adi.

Zardusht dini o'zining hayotga yaqinligi bilan boshqa dinlardan farq qiladi. U asketizmga berilishni qoralaydi. «Avesto»da yozilishicha, kishilar o'z mehnatlari bilan real dunyoda o'zlari uchun eng yaxshi yashash sharoitini yaratishlari va uzoq umr ko'rishlari mumkin. «Avesto» bo'yicha O'zbekistonning qadimgi zamon tibbiyoti shulardan iborat.

Eramizdan oldingi IV asrning oxirlarida O'rta Osiyo, shu jumladan hozirgi O'zbekiston hududi, Makedoniyalik Iskandar qo'shinlari tomonidan zabt etildi. Bu yerda dastlab Yunon—Makedoniya, so'ng Yunon—Baktriya davlatlari vujudga keldi. Yunonlar O'rta Osiyoga o'z hayot tarzlari va madaniyatlarini olib keldilar. O'sha davrda Yunoniston o'zining yuksak madaniyati va ilm-fani bilan jahonga mashxur edi. Mamlakatda buyuk faylasuflar, olimlar, donishmandlar paydo bo'ldilar. Shular qatorida ulug' hakimlar ham bor edi. Ulardan biri ilmiy-materialistik tibbiyotga asos solgan buyuk Hippokratdir.

Yunonlar O'rta Osiyoni zabt etib, o'z hukmronliklarini o'rnatganliklaridan keyin bu yerga yunon savdogarlari, sayyohlari va turli kasb egalari kela boshladilar. Shular qatorida hakimlar ham bo'lgan, albatta. Ularning ba'zilar O'rta Osiyo shaharlarida o'mashib qolib, shu yerda o'z kasblari bo'yicha ishlay boshlaganlar. Binobarin, o'sha vaqtdagi yunon madaniyati va tibbiyoti bu yerdagi madaniyat va tibbiyotga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu yerli tabiblar

yunonlardan ko'p narsani o'rgandilar. Afsuski, biz o'sha vaqtdagi O'rta Osiyo tibbiyoti haqida yetarli ma'lumotga ega emasmiz.

Eramizdan oldingi II asrning oxirida Yunon—Baktriya davlati yemirilib, uning o'rnida Kushon davlati vujudga keldi. Tarixiy ma'lumotlarda aytilishicha, Kushon davlati ko'p sharq va g'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq va madaniy aloqada bo'lgan. Savdo-sotiq iqtisodiy hayot va madaniyatning rivojlanishini tezlashtirgan. Shu jarayonda tibbiyot ham ancha rivojlandi. U chet mamlakatlardan keltirilgan dori-darmonlar bilan boyidi. Masalan, Xitoydan kamfora, panta (pantokrin) keltirildi. Ehtimol, o'sha vaqtda jenshen ham olib kelingan bo'lsa kerak. Hindistonda murch va har xil ziravor moddalar keltirilardi. Kushon davlati eramizning V asrigacha hukum surdi.

Hozirgi O'zbekiston hududida VI asrning o'rtalarida Eftalitlar davlati vujudga keldi. Eftalitlar davri qadimgi O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy hayotida yangi yuksalish davri bo'ldi. Bu davrdagi eng muhim kashfiyot yozuvning kash etilishidir. Yozuvning kashf etilishi madaniy hayot va ilm-fanning rivojlanishida juda muhim o'rin tutdi. Dastlabki kitoblar paydo bo'la boshladi. Ular orasida tibbiyotga oidlari ham bo'lgan, albatta. Ammo, hozircha o'sha davrga oid tibbiy yozuvlar topilgan emas.

Eftalitlar davlati VI asrning oxirlarigacha davom etdi. Bu vaqtga kelib, Oltoy, Yettisuv va Markaziy Osiyoda yashovchi turli turkiy qabilalar birlashib, Turk Hoqonligini tuzishdi. U Vizantiya, Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirdi. Yangi savdo-sotiq markazlari paydo bo'ldi. Masalan, Shosh (Toshkent) o'sha vaqtda «savdogarlar shahri», deb nom olgan edi. Mamlakatda ziroat ishlari ham rivoj topdi. Bunday umumiy iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonida tibbiyot ham ancha yuksaldi. Lekin, u davrdagi tibbiyot haqida biror aniq ma'lumotga ega emasmiz. Biz o'sha davrda yashagan kishilarning yashash tarzi va ba'zi urf-odatlariga asoslanib, ularning tibbiy tushunchalari haqida qisman fikr yuritishimiz mumkin, xolos. Masalan, hoqon huzuriga kelgan chet el vakillari yonib turgan ikki gulxan o'rtasidan o'tkazilarkanlar. So'ng ularni hoqon qabul qilar ekan. Ehtimol, bu tadbir chet mamlakatlardan kelib qolishi mumkin bo'lgan biror kasallikni o'tkazib yubormaslik uchun qilingan chora bo'lsa kerak. O'sha vaqtda yashagan turkiy xalqlar yosh bolalarni kasalliklardan saqlash uchun ularning peshanasiga uzoq saqlanib

qoladigan bo‘yoq bilan xoch suratining solib qo‘yar ekanlar. Bular albatta juda primitiv «tibbiy choralar»dir.

### **III b o b . O‘ZBEKISTON XUDUDIDA O‘RTA ASRLARDA TIBBIYOTNING RIVOJLANISHI**

O‘zbekiston hududida O‘rta asrlarda ilm-fan yuksak darajaga ko‘tarildi. Katta shaharlarda ilm markazlari, Akademiyalar paydo bo‘ldi. Buyuk olimlar, faylasuflar, san‘at va adabiyot namoyandalari yetishib chiqdilar. Umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ilmi ham yuksaldi. Shaharlarda kasalxonalar, shifoxonalar, dorixonalar va boshqa tibbiy maskanlar barpo etildi, tibbiy maktablar ochildi. Tibb ilmi sohasida yirik mutaxassislar yetishib chiqdilar. Ular tibbiyot ilmining ko‘p sohasiga oid asarlar yaratdilar. Aynan shu davrda buyuk Ibn Sinoning «Tib qonunlari kitobi» dunyoga kelgan edi. Ammo, O‘rta Osiyoda tibbiyot fani yuksak natijalarga erishgan bo‘lsa ham, u ba‘zi nuqson va kamchiliklardan holi emas edi. Buning sababi shuki, O‘rta asr fani, ayniqsa tabiiy fanlar, tajriba (eksperiment)ga suyanmay, ko‘proq abstrakt — falsafiy fikr yuritish va intuitsiyaga asoslanardi. Bu holat tibbiyot fani sohasiga ham tegishli edi.

O‘rta asrlarda tibbiyot nazariy jihatdan mizojlar va rutubatlar (humorol) tushunchalariga asoslanardi. Hakimlar har qanday kasallik birinchi galda tananing yoki uning bir qismining mizoji hamda undagi xiltlarning o‘zgarishi natijasida kelib chiqadi, deb o‘ylaganlar. Ammo, bu tushunchalar tajribada isbotlanmagan edi.

Mizoj deganda issiqlik, sovuqlik, quruqlik va ho‘llik omillari ko‘zda tutilgan. Rutubatlar deganda organizmdagi to‘rt xil suyuqlik — qon, safro (jigar o‘ti), savdo (qora o‘t) hamda shilliqsimon suyuqlik (flegma) ko‘zda tutilgan.

Mizojlar tushunchasining kelib chiqishi uzoq tarixga ega. U qadimgi zamon naturfilosofiyasining unsurlar (birlamchi elementlar) haqidagi nazariyasi bilan bog‘liq.

Qadimgi faylasuflar butun borliqning asosini to‘rt unsur (yer, suv, havo va olov) tashkil etadi, deb tushunganlar. Bu yerda faylasuflar olovni mustaqil unsur, deb ataganlar. Lekin, olov mustaqil holatda uchramaydi, u qandaydir boshqa bir narsaning yonishidan paydo bo‘ladi. Shu narsa yonib bo‘lganidan so‘ng olov o‘chadi. Demak, u mustaqil yashovchi narsa (unsur) bo‘lolmaydi.

Qadimgi filosoflar (naturfilosoflar) yer yuzidagi hamma mavjudotlarning tanasi shu yuqorida ko‘rsatilgan to‘rt unsurdan tashkil

topgan, deb o'ylaganlar. Bu unsurlarning har biri o'z xususiyatiga ega. Masalan, yer — quruq, suv — ho'l, havo — sovuq, olov — issiq. Qadimgi hakimlar naturfilosoflarning bu fikrlarini tibbiyotda talqin etganlar. Ular bunday fikr yuritganlar: modomiki odam tanasi — quruq yer, ho'l suv, sovuq havo va issiq olovdan tashkil topgan ekan, demak unda shu unsurlarning xususiyati bor, ya'ni odam organizmida issiqlik, sovuqlik, quruqlik va ho'llik xususiyatlari bor. Shular mizojdir. Shunday qilib mizojlar tushunchasi paydo bo'lgan.

Hakimlar mizojlar tushunchasidan sog'lik va kasallik holatlarini izohlash uchun foydalandilar. Ular bunday fikr yurutdilar: Odam gavdasini tashkil etgan unsurlar bir-birlariga nisbatan qarama-qarshi xususiyatga egadirlar. Shu qarama- qarshiliklar muvozanatda bo'lsalar tanada sog'lik saqlanadi. Agar ulardan biri yoki undan oshig'i ustun kelib qolsa muvozanat buzilib, kasallik holati yuzaga keladi. Muvozanatning o'zgarishi har xil variantda bo'lishi mumkin. Xususan, to'rt xususiyat (mizoj)dan faqat bittasi ustun kelib qolishi mumkin. Bu oddiy mizoj buzilishi, deb ataladi. Mizojlar qo'shaloq holatda ham o'zgarishlari mumkin. Masalan, issiqlik bilan quruqlik, yoki issiqlik bilan ho'llik, yoki esa sovuqlik bilan quruqlik, yoki sovuqlik bilan ho'llik. Bunday mizoj o'zgarishi murakkab o'zgarish, deb ataladi. Kishi organizmida unsurlardan (mizojlardan) qaysi biri yetakchi o'rin tutishiga qarab, odamlar to'rt xil mizojga bo'linadilar. Organizmida issiq mizoj yetakchi o'rin tutgan kishilar issiq mizojli, sovuq mizoj yetakchi o'rin tutgan kishilar sovuq mizojli kishilar, deb ataladilar va h.k.

Biz yuqorida olovning mustaqil unsur emasligini ko'rsatib o'tgan edik. Haqiqatan u mustaqil unsur (element) emas. Shu sababdan issiqlik mizoji deyilganda «mustaqil» olovdan paydo bo'lgan mizoj emas, balki issiqlik mizojni keltirib chiqaruvchi omillardan paydo bo'lgan mizoj ko'zda tutiladi. Hozirgi ilmiy til bilan aytganda odam organizmidagi issiqlik oksidlanish jarayonining namoyon bo'lishidir.

Amaliy tibbiyotda ko'proq ikki xil mizoj — issiqlik va sovuqlik e'tiborga olinadi. Bunday tushuncha dastlab qadimgi Xitoy tibbiyotida paydo bo'lgan edi. Qadimgi xitoylarning tibga oid kitoblarida bunday deb yozilgan: «Kishining salomatligi yoki kassalikning kelib chiqishi ikki qarama-qarshi omilga bog'liq».

Ulardan biri issiqlik paydo qiluvchi «Yan», ikkinchisi sovuqlik paydo qiluvchi «in». «Yan» havoda bo'ladi, «In» qonda suzib yuradi.

«Yan» havo bilan o'pkaga kirib, undan yurak orqali tomirlardagi qonga o'tadi va uni harakatga keltiradi, hamda unda issiqlik paydo qiladi. «in» passivdir. U qonda sovuqlik paydo qiladi. Agar «Yan» bilan «in» o'zaro muvozanatda bo'lsalar salomatlik saqlanadi. Ularning biri ustun kelib qolsa muvozanat yo'qolib, kasallik kelib chiqadi. Kitobda issiqdan paydo bo'ladigan kasalliklar va sovuqdan paydo bo'ladigan kasalliklar mavjud deb yozilgan.

Shunday qilib, qadimgi hakimlar kishi organizmining, sog'lig'i va kasallikning kelib chiqishini qarama-qarshi kuchlarning ta'siriga bog'liq, deb tushunganlar.

Qarama-qarshi xususiyatlar (kuchlar) haqidagi tushcha keyin Yevropa mamlakatlarga ham tarqaldi. Qadimgi Yunoniston olimlari bu tushunchani kengaytirdilar. Masalan, eramizdan oldingi VI asrda yashagan mashhur Yunon hakimi Alkmeon\* issiqlik va sovuqlik tushunchalariga yana achchiqlik va chuchuklik, qattiqlik va yumshoqlik, shirinlik va bemazalik kabi bir qancha qarama-qarshiliklarni qo'shdi. Haqiqatan tabiatda kishi organizmiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi bir-biriga qarama-qarshi omillar juda ko'p.

Qadimgi yunonlar tibbiyotga humoral (rutubatlar) tushunchasini ham olib kirdilar. Bu tushunchani antik dunyosining eng buyuk hakimi Hippokrat fan darajasiga ko'tardi va uning prinsiplarini ishlab chiqdi.

Hippokratning fikricha kishi organizmining salomatligi yoki kasallikning kelib chiqishi tanada mavjud bo'lgan to'rt xil suyuqlik — qon, safro (jigar o'ti), savdo (qora o't) va shilliqsimon modda (flegma)ga bog'liq. Bu suyuqliklar o'z xususiyatlariga ega. Ular doimo bir-birlariga ta'sir etib turadilar. Ularning ta'sir kuchi muvozanatda bo'lsa kishining sog'lig'i saqlanadi. Agar ulardan bining sifati buzilsa yoki miqdori ko'payib ketsa kasallik holati kelib chiqadi.

Hippokrat organizmdagi bu suyuqliklarning qaysi biri yetakchi o'rinni egallashiga qarab, insonlarni to'rt toifa (konstitutsiya)ga

---

\* Sharq mamlakatlarida «Luqmoni hakim» nomi bilan mashhur bo'lgan shaxs shu Alkmeondir. Arablar qadimgi yunon va Rim olimlarining kitoblarini tarjima qilishda ilmiy atamalarni o'zlarining tiliga moslab o'zgartirib yozganlar. Ular hatto olimlarning ismlarini ham arab tiliga moslab o'zgartirganlar. Masalan, Aristotelni — Arastu; Platonni — Aflotun; Hippokratni — Buqrot; Jalenini — Jofinus, deb o'zgartirganlar. Shuningdek, Alkmeonning ismini ham o'zgartirib, uni Al-Luqmon deb ataganlar. Ajam mamlakatlarida (Arabistondan tashqari mamlakatlar) Al - Luqmondagi «Al» arab tilidagi old qo'shimcha sifatida tushirib qoldirilib, olimning ismi «Luqmon» deb atala boshlagan. Keyinchalik esa «Luqmon» afsonaviy shaxsga aylanib ketgan.

bo'lgan. Birinchi toifaga tanasida qon yetakchi o'rin tutuvchi kishilarni kiritgan va ularni sangviniklar (sangvis — qon so'zidan) deb atagan. Ikkinchi toifaga tanasida safro yetakchi o'rin egallovchi kishilarni kiritgan va ularni holeriklar (holeus — safro so'zidan), deb atagan. Uchinchi toifaga tanasida qora o't yetakchi o'rin tutuvchi kishilarni kiritgan va ularni melanholiklar (melanoza — qora o't so'zidan), deb atagan. To'rtinchi toifaga tanasida shilliqsimon suyuqlik (flegma) yetakchi o'rin tutuvchi kishilarni kiritgan va ularni flegmatiklar (flegma suyuqligi so'zidan) deb atagan.

Hippokratning yozishicha shu to'rt toifaga kiruvchi odamlarning har biri o'ziga xos kasallikka moyil bo'ladi. Shuning uchun bemorning qaysi toifaga kirishini bilish muhim diagnostik ahamiyatga ega. Bemorning qaysi toifaga kirishini bilib olib, undan shu toifaga kiruvchi kishilarda uchraydigan kasalliklarni axtarib topamiz. Lekin amalda bu usul ko'pincha to'g'ri natija bermaydi.

Bu yuqorida keltirilgan mizojlar tushunchasi ham, rutubatlar nazariyasi ham hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan qaralsa ilmiy asosga ega emaslar. Mizojni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydi. Mizoj biror tajriba (eksperiment) usuli bilan isbot etilgan emas.

Odam organizmida doimo sodir bo'lib turuvchi murakkab fiziologik, bioximik va patologik jarayonlarni faqat mizojga ya'ni issiqlik va sovuqlikka bog'lash juda primitiv fikr yuritishdir.

Rutubatlar nazariyasi ham ilmiy tushunchaga ziddir. Aslida kasalliklar organizmdagi suyuqliqlarning o'zgarishidan kelib chiqmaydi, aksincha har xil kasalliklar natijasida tanadagi suyuqliqlarda o'zgarishlar yuzaga keladi. Bundan maxsus qon kasalliklari (anemiya, leykemiya) istisnodir. Bularda birinchi o'zgarish qonning o'zida paydo bo'ladi.

XVII—XVIII asrga kelib, Yevropa hakimlari rutubatlar nazariyasi va mizojlar tushunchasi istiqbolsiz ekanini sezib, ulardan voz kechdilar va tibbiyotda eksperiment usulini qo'llab, katta natijalarga erishdilar. Sharq tibbiyoti esa mizojlar tushunchasi va rutubatlar nazariyasidan nari o'tmay 200 yil orqada qolib ketdi.

Tibbiyotning asosiy masalalaridan biri odam gavdasining tuzilishi haqidagi fandir. Bizning muqaddas kitobimiz, Qur'on odam gavdasini yorib ko'rishni ta'qiqlagani uchun mamlakatimizda tibbiyotning bu sohasi yetarlicha rivojlanmay qolgan. Buning natijasida jarrohiya ilmi sust rivojlandi. Shunga qaramay mamlakatda



ancha tajribali jarrohlar ham yashaganlar. Ular ba'zi murakkabroq jarrohiy operatsiyalarni ham qila olganlar. Masalan, ko'z kataraktasini operatsiya qilish, qovuqdagi toshni chiqarib olish, chiqqan-singan suyaklarni joyiga tushirib, taxtakachlab, davolash, tomirdan qon olish, tanaga qadalib qolgan o'q uchini kesib chiqarib olish, kasal tishni olib tashlash va h.k.

O'zbekiston hududida O'rta asrdayoq hakimlar tibbiyotning ayrim sohalarini bo'yicha ixtisoslasha boshlaganlar. Masalan, ular orasida kakhollar (ko'z kasalliklarini davolovchilar), jarrohlar, shikastbandlar (chiqqan-singanlarni davolovchilar), qovuqdan toshni chiqarib oluvchilar (hozirgi tilda urologlar), teridagi har xil yara-chaqalarni davolovchilar, tanadan rishtani chiqarib oluvchilar, qon oluvchilar, zuluk soluvchilar bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra o'sha vaqtda hayvonlar kasalliklarini davolovchi mutahassislar ham bo'lgan.

Tibbiyot fanining har tomonlama rivojlanishi, bu sohada erishilgan natijalarni umumlashtirish va yozma shaklda ifodalash zaruriyatini taqozo qildi. Shunday qilib, tibbiyot ilmining ayrim sohalariga oid asarlar paydo bo'ldi. Ular asosan tibbiy maktablarda o'qiydigan talabalar uchun yozilgan darsliklar edi. Yirik olimlar tibbiyotning hamma sohalarini o'z ichiga olgan katta ilmiy asarlar ham yaratdilar. Masalan, Abu Ali ibn Sino tomonidan yaratilgan «Tib qonunlari kitobi», Ismoil Jurjoniy tomonidan yaratilgan «Xorazm shohi xazinasi» shunday asarlar edi.

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, hozirgi O'zbekiston hududida O'rta asrlarda bir necha yirik davlatlar mavjud bo'lgan. Ularda tibbiyot yaxshi rivojlangan edi. Shulardan biri qadimgi Xorazm davlatidir.

#### **IV b o b . X O R A Z M D A V L A T I D A G I T I B B I Y O T**

O'rta asrga kelib, qadimgi Xorazm qayta tiklandi. Arablar hukmronligi davrida parchalanib ketgan Xorazm davlati qaytadan yirik mustaqil davlat bo'lib birlashdi. Xorazm shohi Ma'mun ibn Muhammad shimoliy va janubiy Xorazm yerlarini birlashtirib, yagona Xorazm davlatini tashkil etdi.

Xorazm davlati siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishganidan so'ng bu mamlakat har jihatdan rivojlanib ketdi. Xususan, ziroat ishlari, har xil hunarmandchilik kasblari, savdo-sotiq tez yuksala boshladi. Ilm-fan, san'at va adabiyot yuqori darajaga ko'tarildi.

Shular qatorida tibbiyot ilmi ham yuksaldi. Shaharlarda shifoxonalar, kasalxonalar va dorixonalar barpo etildi.

Xorazm davlati X asr oxiri va XI asr boshlarida ayniqsa yuksak darajada rivoj topdi. Bu vaqtda mamlakatda ma'muniylardan Ma'mun ibn Ma'mun hukmronlik qilardi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra bu shohning o'zi ham o'qimishli kishi bo'lgan. U ilm kishilarini qo'llab-quvvatlagan. Ularga saroydan joy berib, yaxshi maosh to'lagan. O'sha davrda shoh saroyida ko'p yirik olimlar, faylasuflar yashaganlar. Ular qatorida hakimlar ham bo'lgan. Saroydagi olimlar «Majlisi ulamo» («Olimlar majlisi»)ga uyushgan edilar. Bu «Majlis» tarixda «Ma'mun Akademiyasi» nomi bilan mashhur bo'lgan. «Akademiya»ga O'rta asr Sharqining buyuk namayandalaridan biri bo'lgan Abu Rayhon Beruniy rahbarlik qilgan. «Akademiya»da fanning deyarli hamma sohaları bo'yicha mutaxassislar bo'lgan. Ular qatorida taniqli hakimlar ham bor edi. «Akademiya» a'zolarining ro'yxatida hakimlardan Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Sharafuddin ibn Abdulloh Iloqiy, Abu Mansur Qamariy, Abul Hayr Hammor kabi o'sha zamonning yirik hakimlari bo'lgan.

«Ma'mun Akademiyasi» O'zbekiston hududida turli fanlarning, shu jumladan tibbiyot fanining rivojlanishida katta ro'l o'ynadi. «Akademiya» a'zolari — hakimlar kasallarni davolash bilan birga tibbiyot ilmi sohasida kuzatish ishlarini ham olib borganlar. Bu ishlarni asosan Urgenchdagi mashhur saroy kasalxonasida amalga oshirganlar. Bu yerda Ibn Sino, Abu Sahl Masihiy va Sharafuddin ibn Abdulloh Iloqiy ham xizmat qilganlar. Ular har bir kasallikning o'ziga xos belgilari va xususiyatlarini umumlashtirib, xulosalar chiqarganlar va yangi davolash usullarini ishlab chiqqanlar, tibbiyotning nazariy va amaliy sohalariga oid asarlar yaratganlar. Xorazmda yashab ijod qilgan hakimlardan bizga Abu Sahl Masihiy, Abu Ali ibn Sino, Sharafuddin Abu Abdulloh Iloqiy, Abul Hayr Hammor, Ismoil Jurjoniy va Umar Chag'miniy ma'lum. Shular haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

**Abu Sahl Masihiy** (Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihiy-Jurjoniy) o'z davrining katta tajribaga ega bo'lgan hakimlaridan biri edi. Tavalludi ma'lum emas. Vafoti 1011 yil.

Masihiy kelib chiqishi jihatidan asli nasroniy bo'lgan. Uning ota-bobolari Yevropoda ilm kishilari quvg'in qilingan davrda Jurjonga ko'chib kelib, shu shaharda yashab qolgan ekanlar. Abu Sahl shu

Jurjonda tug'ilgan va shu shaharda musulmoncha maktabda o'qib ta'lim olgan. So'ng Jurjondagi madrasalardan birida o'qib, o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan ko'p fanlarni o'zlashtirib olgan. Keyinchalik tib ilmiga qiziqib qolib, uni chuqur bilib olgan. Kasallarni muvaffaqiyatli davolab katta shuhrat qozongan. Masihiy tibbiyot ilmidan tashqari falsafa, mantiq va boshqa bilimlarni ham yaxshi bilgan. Olim o'zining chuqur bilimi va tajribasi bilan ko'p hurmatga sazovor bo'lgan. Shuning uchun uni «Ma'mun Akademiyasi»ga qabul qilganlar. Masihiy tib ilmining turli sohalariga oid bir nechta kitob yozgan. Shulardan bizga «Tibbiyot ilmining asoslari», «Tibbiyotning yuzta muammosi», «Umumiy tibbiyot haqida kitob», «Chechak haqida kitob», «Vabo haqida kitob» nomli asarlari ma'lum. Bu kitoblarda Masihiy nazariy va amaliy tibbiyotning muhim masalalari haqida so'z yuritadi. Shulardan «Tibbiyot ilmining asoslari» va «Tibbiyotning yuzta muammosi» nomli kitoblari alohida ahamiyatga ega. Ularda Masihiy tibbiyot ilmining eng muhim masalalarini bayon etgan. Xususan, bemorga to'g'ri tashxis qo'yish, kasallikka mos dori tanlash va uni ishlatish usullari ko'rsatilgan. Bu kitoblar ko'p yillar davomida tabiblar uchun amaliy tibbiyotdan qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

**Abu Abdulloh Iloqiy** (Sharafuddin Abu Abdulloh ibn Muhammad ibn Yusuf Iloqiy). Bu hakim o'z davrining mashhur allomalaridan biri bo'lgan. U o'lkamizda tib ilmining rivojlanishiga katta xissa qo'shgan buyuk olimlardan biri.

Iloqiy hozirgi O'zbekiston hududida, Ohangaron tumaniga qarashli Iloq degan joyda tavallud topgan. Tug'ulgan yili ma'lum emas. Vafoti 1068 yil. O'sha vaqtda bu tuman Iloq, deb atalgan. Shuning uchun bu olim o'ziga «Iloqiy» deb taxallus olgan.

Iloqiy dastlab Shosh (hozirgi Toshkent) shahrida bilim olgan. U vaqtda Shosh Sharqning ilmiy jihatdan ancha yuksak darajada bo'lgan shaharlaridan biri edi. Shaharda masjid-madrasalar, karvonsaroylar, savdo rastalari, har xil hunarmandchilik ustaxonalari ko'p bo'lgan. Shular qatorida davo maskanlari — kasalxonalar, shifoxonalar va dorixonalar ham mavjud edi. Shaharda ko'p mudarrislar, olimlar, hakimlar yashaganlar.

Iloqiy shahardagi madrasalardan birida dastlabki bilimni olganidan so'ng yanada chuqurroq bilimga ega bo'lish uchun Buxoroga jo'naydi. Bu vaqtda Buxoro faqat din yo'lida emas, shu bilan birga ilm sohasida ham shuhrat qozongan. Iloqiyning maqsadi yaxshi

tabib bo'lish edi. Boshqa fanlarga ham qiziqardi. Masalan, u falsafa, mantiq, riyoziyot bilan ham shug'ulangan.

Iloqiy Buxoroda mashhur hakim Ibn Sino yashashinni eshitib, undan saboq olish niyatida edi. Ammo, u Buxoroga yetib kelganida Ibn Sino Xorazmga ketib qolgan ekan.

Iloqiy Buxoroda bir qancha vaqt to'xtab, bu yerdagi olimlardan falsafa, mantiq va riyoziyotdan dars oladi. So'ng Ibn Sino bilan uchrashish uchun Xorazmga jo'naydi. Bu vaqtda Iloqiy o'zining ancha keng bilimi bilan ko'zga ko'rinib qolgan edi. Shuning uchun uni Xorazmda yaxshi kutib olganlar va shoh saroyida xizmat qiluvchi olimlar qatoriga kiritganlar.

Urganchda Iloqiy Ibn Sino bilan uchrashib, tanishib undan tib ilmining asosalarini bilib oladi. So'ng mustaqil ravishda tibbiyotga oid kitoblarni mutolaa qilib, bu fanni chuqur o'zlashtirib oladi. Shunday qilib ko'p o'tmay Iloqiy ham o'sha zamonning ko'zga ko'ringan hakimlaridan biri bo'lib yetishadi. Uni «Ma'mun Akademiyasi»ga qabul qiladilar.

Iloqiy bemorlarni davolash bilan bir qatorda har bir kasallikning belgilari, uning qanday kechishi va qanday oqibatlarga olib kelishini sinchiklab kuzatib boradi. So'ng bu kuzatishlarining natijalarini umumlashtirib o'z kitoblarida bayon etadi.

Iloqiy tibga oid ko'pgina kitob yozgan. Lekin, ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Bizga Iloqiyning tibga oid quyidagi kitoblari ma'lum: «Kasalliklarning sabablari va belgilari», «Muolaja usullari», «Tibbiy to'plam», «Qisqacha qonun».

«Kasalliklarning sabablari va belgilari»da Iloqiy o'zi ko'rgan va davolagan kasalliklarning kelib chiqish sabablari va ularning belgilari (simptomlari)ni batafsil bayon etgan.

Iloqiy kasalliklarning umumiy kelib chiqish sabablari masalasida o'sha vaqtdagi Sharq tibbiyoti tushunchalariga asoslangan edi. Masalan, u kasallik keltirib chiqaruvchi asosiy omil deb rutubatlarni hisoblagan. Bunda olim qon bilan safroni birinchi o'ringa qo'ygan. Iloqiyning fikricha dastlab bemorning qonida o'zgarish paydo bo'ladi. So'ng u boshqa a'zolarida kasallik keltirib chiqaradi. Shuning uchun Iloqiy har qanday kasallikni davolashda avvalo bemordan bir oz miqdor qon olishni tavsiya etgan.

Iloqiyning yozishicha safro (jigar o'ti) ham birinchilardan bo'lib o'zgarishga uchraydi. Shuning uchun Iloqiy qon olish bilan birga safroni haydovchi dori berish ham zarur deb hisoblagan.

O'zgargan yoki ortiqcha qon va safro chiqarib yuborilgandan so'ng dorilar berish tavsiya etilgan. Bular asosan simptomatik dorilardan iborat bo'lgan.

Kasallarga tashxis qo'yishda Iloqiy o'sha vaqtda asosiy diagnostik usul hisoblangan tomir urishini tekshirishni birinchi o'ringa qo'ygan. So'ng boshqa usullar bilan — bemorning ahvolini ko'zdan kechirish, uning chiqindilarini (ahlat, siydik, balg'am) tekshirish ham kerakligini uqdirgan. Siydikni ko'zdan kechirishda uning tusi, tiniqligi va hidiga ahamiyat berish zarurligini eslatgan. Iloqiyning o'zi kasallarga tashxis qo'yishda shu usullarning hammasidan foydalangan.

«Muolaja usullari» kitobida Iloqiy o'sha vaqtda qo'llanilgan hamma davo usullarini, chunonchi dori-darmon bilan davolash, jarrohlik usulini ishlatish, qon olish va parhez yo'li bilan davolash usullarini ko'rsatgan. Bulardan tashqari yana bir muhim davo usulini — tabiatning shifobaxsh omillaridan (sof havo, dengizda cho'milish, sayr qilish) foydalanish yaxshi natija berishini eslatgan. Iloqiy parhez masalasiga ham katta ahamiyat bergan. Uning yozishicha ba'zi kasallikni kerakli ovqat (parhez ovqatlari) berish yo'li bilan ham davolash mumkin.

«Tibbiyot to'plami» kitobida Iloqiy o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan hamma nazariy va amaliy tibbiyot haqidagi fikrlarni jam qilgan. Kitobda muallif o'z fikr va mulohazalarini ham bayon etgan. Bemorlarga tashxis qo'yish va davolash masalalaridagi har xil qarashlarni taqqoslagan.

Iloqiyning «Qisqacha qonun» kitobi haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi tibbiyot tarixchilari bu kitob Ibn Sinoning «Tib qonunlari» nomli asarining qisqartirilgan nusxasidir deb hisoblaydilar. Shunday bo'lishi ham mumkin.

Iloqiyning asarlari o'lkamizda tibbiyot ilmining rivojlanishida muhim ro'l o'ynadi. Ulardan tabiblar ko'p yillar o'z faoliyatlarida amaliy qo'llanma sifatida foydalanganlar.

**Abul Hayr Hammor** (Abul Hayr ibn Sevor ibn Behnom al-Hammor) o'sha davrning mashhur hakimlaridan biri bo'lgan. Melodiy 942 yilda Bag'dodda tavallud topib o'sha yerda ta'lim olgan. Xususan, u tibbiyot ilmini chuqur o'rganib yaxshi mutaxassis bo'lib yetishgan va ko'p yil Bag'dodda hakimlik qilgan. So'ng Xorazm shohi Ma'mun ibn Muhammadning taklifi bilan Urganchga ko'chib kelib, saroy tabibi vazifasida xizmat qilgan.

Abul Hayr Hammorning Xorazmda yashagan davri uning hayotida juda samarali davr bo'lgan. Ammo, u bu yerda uzoq yashamadi. G'azna hukmdori Mahmud G'aznaviy talabi bilan uning saroyiga jo'natilgan olimlar qatorida Abul Hayr Hammor ham bor edi. Tarixchilarning yozishlaricha Abul Hayr Hammor mu'loyim so'zligi va samimiyligi bilan Mahmudda o'ziga nisbatan xayrxohlik paydo qilgan va uning iltifotiga sazovor bo'lgan.

Abul Hayr Hammor tib ilmining turli sohalariga oid ko'pgina asar yozib qildirgan. Shulardan bizga quyidagi kitoblar ma'lum: «Inson a'zolarining tuzilishi», «Tabiblarning bilimini sinash», «Tutqanoq kasalligi haqida risola», «Qariyalar taomi». Afsuski, biz bu kitoblarning nomini bilamiz, xolos. Ular bizgacha yetib kelmagan.

XII asrga kelib, Xorazm davlati O'rta Sharq hududida eng rivoj topgan mamlakatlardan biriga aylandi. Mamlakatda ilm fan, madaniyat, san'at va adabiyot yuksak darajaga ko'tarildi. Shular qatorida tibbiyot ilmi ham rivoj topdi. O'sha davrda hukmdorlik qilgan Xorazm shohlari taraqqiyparvar bo'lib chiqdilar. Bu masalada ayniqsa shoh Qutbiddin Muhammadning xizmati alohida o'rin tutadi. Mashhur hakim Ismoil Jurjoniy bu shoh haqida majoziy qilib, bunday yozgan: «Qutbiddin Muhammadda faqat birgina kasallik bor, u ham bo'lsa mamlakatni bundan ham obod qilish va xalqni esa yanada ma'rifatli qilish kasalligidir».

Qutbiddin Muhammad davrida Xorazm o'z rivojlanishida haqiqatan yuksak cho'qqiga yetgan edi. Qutbiddin ilm-fanning rivojlanish negizi sifatida birinchi galda «Akademiya»ning ish faoliyatini kengaytirdi. Akademiya fanning deyarli hamma sohaları bo'yicha mutahassislarni kiritdi. Boshqa mamlakatlardan ham olimlarni taklif etdi. Shunday qilib, «Akademiya»ning a'zolarining soni 30 kishiga yetkazildi. Shular qatorida anchagina hakimlar ham bor edi.

«Akademiya»da fanning turli sohaları bo'yicha tez-tez suhbatlar, munozaralar va kengashlar o'tkazilib turgilan. Bu munozara va kengashlarda Qutbiddinning o'zi ham faol qatnashgan.

O'sha zamon tarixchilarning yozishicha, Qutbiddin Muhammad juda o'qimishli, bilimdon shoh bo'lgan. Fanning turli sohalariga qiziqqan va ular haqida chuqur bilimga ega bo'lgan. San'at va adabiyotni ham juda sevgan.

Qadimgi Xorazm davlatida tibbiyot fani XII asrga kelib yanada rivoj topdi. Bu sohada chuqur bilimli va yaxshi tajribali hakimlar

yetishib chiqdilar. Shaharlarda ko'p tibbiy maskanlar barpo etildi. Nazariy va amaliy tibbiyotning turli sohalariga oid asarlar yaratildi. Bu davrni Xorazm renessansi, deb atash mumkin. O'sha davrda yashagan hakimlardan Ismoil Jurjoniyy va Umar Chag'miniy ayniqsa katta shuhrat qozondilar.

**Ismoil Jurjoniyy** (Zaynutdin Abu Ibrohim Ismoil ibn Hasan ibn Ahmad ibn Muhammad al-Husayn al Jurjoniyy). Bu olim O'rta asr sharqining mashhur hakimlaridan biri bo'lgan. U 1080 yilda Eronning Jurjon shahrida tavallud topib, 1141 yilda Marv shahrida vafot etgan.

Jurjoniyyning tarjimaiy holida. yozilishicha u 1110 yilda Xorazm shohi Qutbiddin Muhammadning taklifiga binoan Urganchga ko'chib kelgan va saroy tabibi vazifasiga tayinlangan. Jurjoniyy ko'proq shohning o'zi va uning oilasiga tabiblik qilgan. Lekin u Urganchda uzoq yashamagan. Ko'p o'tmay Marv shahriga ko'chib ketgan va umrinning oxirigacha shu shaharda yashagan.

Ismoil Jurjoniyy Urganchda uzoq yashamagan bo'lsa ham, uning bu yerdagi hayoti juda unuimli bo'lgan. U Urganchda saroy qoshidagi kasalxona va dorixonaga boshchilik qilgan. Bu yerda bemorlarni davolash bilan birga turli kasalliklarning kechishini ko'zdan kechirib borgan va shunga asosan xulosalar chiqargan. So'ng ularni umulashtirib, o'z asarlarida bayon etgan.

Ismoil Jurjoniyy tibga oid ko'p asar yaratgan. Lekin, ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Bizga olimning quyidagi asarlari ma'lum: «Xorazmshoh zahirasi», «Kasalliklarni aniqlash» («tashxis qo'yish»), «Tibbiyotning mohiyati», «Dori-darmonlar zahirasi», «Ibn Sino haqida so'z». Bu kitoblarda tibbiyotning eng muhim masalalari bayon etilgan. Ulardan «Xorazmshoh zahirasi», «Tibbiyotning mohiyati» va «Dori-darmonlar zahirasi» alohida ahamiyatga ega.

«Xorazmshoh zahirasi» 600 sahifadan ortiq katta kitobdir. Unda tibbiyot ilmining barcha nazariy va amaliy masalalari qamrab olingan. Xususan, odam gavdasining tuzilishi (anatomiya), a'zolarning funksiyalari (fiziologiya), kasalliklar (patologiya), kasallarga tashxis qo'yish va davolash usullari ko'rsatilgan.

Jurjoniyyning tibbiyotning mohiyati va uning vazifalari haqidagi fikrlari ko'p jihatdan hozirgi zamon tushunchasiga mos keladi. Masalan, Jurjoniyy tibbiyotning asosiy vazifasi kasallikning oldini olishdan iborat, deb yozgan. Jurjoniyyning bu fikri hozirgi zamon profilaktik tibbiyotining prinsipi ga tamoman mos keladi.

«Xorazmshoh zahirasi» mazmun jihatidan Ibn Sinoning «Tib qonunlari kitobi»ga oʻxshab ketadi. Ammo, tuzilishi undan boshqachadir. Bundan tashqari Jurjoniyning fikr yuritishlarida ham farq bor. Masalan, Jurjoniyy aʼzolar va ularning funksiyalari haqida soʻz yuritarkan, odam organizmi tabiatning bir qismidir. Shuning uchun u ona qornidagi davrdan boshlab, tabiat taʼsirida boʻladi, deb yozadi.

Mizoj masalasida ham Jurjoniyy boshqacharoq fikr yuritgan. Uning fikricha mizoj asosan qonning xususiyatidir va u nasl orqali oʻtadi. Jurjoniyning yozishicha hamma vaqt ham mizoj muvozanatining buzilishi kasallikni keltirib chiqarmaydi, u faqat kasallik paydo boʻlishi uchun zamin yaratishi mumkin.

«Xorazmshoh zahirasi»da amaliy tibbiyotga oid quyidagi masalalar bayon etilgan: Sogʻ va kasal kishi tanasini taqqoslash; kasalliklarning xillari; ularning belgilari; bemorni koʻzdan kechirish (tekshirish) usullari; tashxis qoʻyish; har bir bemorni oʻziga xos usullar bilan davolash. Tashxis qoʻyishda asosiy usul sifatida tomir urishini tekshirish koʻrsatilgan. Bundan tashqari bemorning chiqindilarini tekshirish zarurligi ham tayinlangan. Bu yerda Jurjoniyy bir muhim fikr aytgan. U kasallik paydo boʻlganidan soʻng uning birinchi belgilari koʻzga koʻringunga qadar maʼlum vaqt (yashirin davr) oʻtishini koʻrsatgan. Bu koʻproq isitmali (yuqumli) kasalliklarga xos ekanini taʼkidlaydi. Soʻng har bir alohida kasallikda beriladigan dori-darmonlar va parhez taomlarni koʻrsatgan, bir qancha maslahatlar va koʻrsatmalar berilgan. Xususan, ozodalik (gigiena) qoidalarga rioya qilish, sof havodan foydalanish, ovqat pishirish va ichish uchun toza suv ishlatish, mavsimga muvofiq kiyinish, sogʻliqqa zarar qilmaydigan sharoitda yashash, vaqtida toʻyib uxlash, yaxshi dam olish va h.k. Safarga chiquvchilar uchun ham maslahatlar berilgan. Bu umumiy masalalardan tashqari kitobda ayrim aʼzolar kasalliklari va ularni davolash choralari ham koʻrsatilgan. Bu masala «Xorazmshoh zahirasi» turkumiga kirgan maxsus kitobda bayon etilgan. Bu kitob 21 qismdan iborat boʻlib, har biri ayrim aʼzo va unda uchraydigan kasalliklarga bagʻishlangan. Tuzilishi jihatidan bu asar «Tib qonunlari»ning uchunchi kitobiga oʻxshashdir.

«Xorazmshoh zahirasi» da travmatologiya (chiqqan-singanlar), teri kasalliklari, zaharlanishlar va ularga qarshi choralar hamda kosmetika masalalariga ham maxsus qismlar bagʻishlangan.



Umuman «Xorazmshoh zahirasi» Ibn Sinoning «Tib qonunlari kitobi»dan so'ng tibbiyot sohasida yozilgan eng katta asar hisoblanadi. Bu asar qadimgi O'zbekiston hududida tibbiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

«Tibbiyotning mohiyati» kitobida Jurjoniyl nazariy va amaliy tibbiyotning asosiy masalalarini qisqa shaklda bayon etgan. Unda bu fanning eng muhim masalalari ko'rsatilgan. Kasallarni davolashning asosiy qoidalari bayon etilgan. Tibbiyotning asosiy vazifasi, ya'ni kasallikning oldini olish yo'llari ko'rsatilgan.

«Dori-darmon zahirasi»da muallif o'sha vaqtda ishlatilgan dorilar, ularning xususiyati va ulardan foydalanish usullarini bayon etgan. Bu kitob o'sha davr uchun farmakologiya fanidan qo'llanma hisoblangan. Undan ko'p tabiblar o'z amaliy faoliyatlarida foydalanganlar. O'rta Asr Sharqi tibbiyotida Ismoil Jurjoniyl yirik olim sifatida alohida o'rin egallaydi.

**Umar Chag'miniyl** (Mahmud ibn Muhammad ibn Umar Chag'miniyl) har taraflama chuqur bilimlil olim va hakim bo'lgan. U hozirgi Buhoro viloyati hududidagi Chag'min nomli qishloqda tavallud topgan. Olimning tug'ulgan yili ma'lum emas, vafoti 1221 yil (Urganch).

Chag'miniyl yoshlik chog'idayoq har xil fanlarga qiziq boshlagan. Shu maqsadda u Urganchga kelib, bu yerdagi madrasalardan birida ta'lim olgan. So'ng o'z bilimini yanada kengaytirish maqsadida Samarqanga boradi. Bu yerda aniq fanlar (riyoziyot, fizika, astronomiya) va falsafa ilmini chuqur o'rganadi. So'ng tibbiyotga qiziqib qolib, bu fanni ham puxta o'zlashtirib oladi. Shundan keyin Urganchga qaytib kelib, o'z ishini davom ettiradi.

Chag'miniyl tabiat fanlari sohasida muhim kashfiyotlar ham qilgan. Masalan, u Kopernikdan bir necha asr muqaddam heliosentrik (quyosh markaz) gipotezani oldinga surgan edi.\* Bundan tashqari Chag'miniyl yil fasllarining almashinishi yerning quyosh atrofida aylanishiga bog'liqligini isbotlab bergan. Chag'miniyl hakim sifatida ham mashhur bo'lgan. U o'z davrining bilimdon hakimlaridan biri hisoblangan. Ammo, bizga Chag'miniylning tabiblik faoliyati haqida juda kam ma'lumot yetib kelgan. Olimning tibga oid birgina asari ma'lum, xolos. Bu kitob «Qonuncha» («Kichik qonun»), deb ataladi. Kitobda tibbiyotning asosiy masalalari juda

---

\* Aslini olganda bu gipotezani birinchi bo'lib IX asrdayashagan mashhur Farg'onalik olim A'xmad ibn Muhammad al-Farg'oniyl aytgan.

ixcham qilib bayon etilgan. Chag'miniyning bu kitobi haqida turlicha fikr mavjud. Ba'zilar bu kitob Chag'miniyning o'z qalamiga mansub desalar, boshqalar u Ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarining qisqartirilgan varianti, deyilar. Ammo, ikkinchi fikr to'g'ri bo'lmasa kerak. Chunki, Chag'miniyning «Qonuncha»si Ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobidan tuzilishi va masalalarning bayon etilishi jihatidan o'ziga xosdir. Aftidan Chag'miniy o'z «Qonuncha» sida ko'p mualliflarning kitoblarini umumlashtirib bayon etgan bo'lsa kerak. Bu fikrni Chag'miniyning o'zi ham tasdiqlaydi. U o'z kitobi haqida so'zlab, «mazkur kitobni tuzishda men ko'p mualliflarning kitoblaridan foydalanganman», deb yozgan.

Chag'miniyning «Qonuncha»si tibga oid mashhur kitoblardan biri hisoblanadi. Hakimlar o'z amaliy ishlarida bu kitobdan keng foydalanganlar.

«Qonuncha» 10 bobdan iborat. Ularning har biri bir necha qismga bo'lingan. Kitobda quyidagi masalalar bayon etilgan: tabiat hodisalari va ularning inson organizmiga ta'siri; jug'rofiy ma'lumotlar; inson tanasining tuzilishi (anatomiya); salomatlikni saqlash tadbirlari, teridagi har xil chiqiqlar va ularni davolash; tashqi a'zolar kasalliklari, oziq-ovqatlar, ichimliklar, ularni tayyorlash va iste'mol qilish.

Chag'miniy odam organizmining tabiati (xususiyati) masalasida unsurlar tushunchasiga asoslangan. Uning yozishicha unsurlarning xususiyatlari (mizojlari) sharoitning ta'siriga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan, yoz faslida havo issiq va quruq mizojli bo'ladi. Kuzda sovuq-quruq mizojli bo'ladi. Qishda havo sovuq va ho'l mizojli bo'ladi. Havoning bunday o'zgarib turishi kishi organizmiga salbiy ta'sir etadi va unda kasallik paydo qilishi muki.

Chag'miniy ko'proq ichki kasalliklar bilan shug'ullangan bo'lsa kerak. Chunki, u ichki a'zolar (o'pka, me'da, ichaklar, jigar, yurak) kasalliklari, ularning belgilari va davolash usullarini batafsilroq bayon etgan. O'pkada uchraydigan kasalliklardan sil, zotiljam, havo o'tkazuvchi yo'llar (traxeya, bronxlar) kasalliklari hamda o'pkadan qon oqishi mufassal yozilgan. Bu kasalliklarning belgilari va davolash usullari ko'rsatib berilgan. Me'da - ichak kasalliklarini davolashda har xil dori-darmonlardan tashqari parhez usullaridan foydalanishni ham tavsiya etgan. Bosh (miya), buyrak, jinsiy a'zolar va teri kasalliklari ham bayon etilgan. Chag'miniyning

«Qonuncha»si, o'zining masalani aniq, ravshan va qisqa berishi bilan ajralib turadi. Ko'p tabiblar o'z amaliy faoliyatlarida shu kitobdan foydalanganlar.

## V b o b . BUXORO DAVLATIDAGI TIBBIYOT

IX—X asrlarda Buxoro davlatida ham ilm-fan va madaniyat tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Buxoro hukmdorlari — Somoniylar o'z shon-shuhratlarini oshirish uchun saroylaridan olimlar, faylasuflar, shoirlar va san'at namoyandalariga o'rin berib, ularni qo'llab-quvvatladilar.

O'sha davrda Buxoro davlati O'rta va Yaqin Sharq miqyosida eng rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan. Bu yerda boshqa fanlar qatorida tibbiyot ilmi ham yuksak darajaga ko'tarildi. Buxoroda ko'p mashhur hakimlar yashardilar. Ular qatorida eng mashhuri Abu Ali ibn Sino edi.

### Abu Ali ibn Sino

Abu Ali ibn Sino (Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali ibn Sino) 980 (370 hijriy) yilda Buxoroga yaqin joyda bo'lgan Afshona nomli qishloqda tavallud topgan. Mashhur tarixchi Abu Bakr Muhammad Narshahiyning yozishicha, Afshona bir vaqtlar kattagina shahar bo'lgan. So'ng vaqt o'tishi bilan u o'z mavqeini yo'qotib, kichikroq qishloqqa aylanib qolgan va Isfana, deb atala boshlagan. Bu qishloq hozir yana Afshona, deb atalmoqda.

Ibn Sinoning o'zi tarjimaiy holida yozishicha, uning otasi Abdulloh ibn Hasan Afshonaga qo'shni bo'lgan Hurmayson (hozirgi Romiton) qishlog'ida qandaydir ma'muriy xizmatga boshchilik qilgan. O'sha vaqtdagi tarixchilar Abdulloh ibn Hasan, soliq yig'uvchi edi, deb yozganlar. Demak, u soliq yig'uvchilarning boshlig'i bo'lgan.

Abdulloh ibn Hasan o'z vazifasiga ko'ra Hurmayson atrofidagi qishloqlarga tez-tez borib turgan. Shulardan birida, Afshona qishlog'ida bir husndor qizni ko'rib qolib, uni yoqtirib unga uylanadi va shu qizning oilasiga ichkuyov bo'lib kiradi. Shu oilada dastlab Husayn (ibn Sino), so'ng Mahmud ismli ikki o'g'il tug'iladi. Abdulloh ibn Hasan o'z davrining ilg'or fikrli ma'rifatparvar kishilaridan biri bo'lgan. Ilm-fanni qadrlagan. O'zi ham o'qimishli

kishi bo'lgan. U bolalarini ham o'qimishli kishilar bo'lib yetishishlarini istagan. Shu sababdan bo'lsa kerak, katta o'g'li Husayn maktab yoshiga yetganida o'z oilasini bilim o'chog'i bo'lgan Buxoroga ko'chirib olib kelgan. Bu yerda Abdulloh Husaynni shahardagi nufuzli maktablardan biriga o'qishga bergan. Maktabda Ibn Sino dastlab odatdagidek, arab alifbosi va musulmon dini qonun-qoidalarini o'rgangan. Xususan, Qur'on va adab ilmini o'zlashtirib olgan.

«Qur'on ilmi»ga uni yodlab olish, qiroat bilan o'qish, uning suralari va oyatlarini izohlab berish kiradi. «Adab ilmi»ga arab tili qoidalari, she'r san'ati, xususan ma'oniy, bayon va qofiyani to'g'ri ishlatish kiradi. Odatda, talabalar bu bilimlarni egallash uchun yillab, hatto o'n yillab vaqtlarini sarf qiladilar. Ibn Sino «Qur'on ilmi» va «Adab ilmi»ni juda oz muddatda mukammal egallab olgan. Badiiy adabiyotga ham qiziqqan, she'rlar yoza boshlagan. O'sha vaqt tarixchilarining yozishlaricha Ibn Sino o'qigan kitoblarini shu qadar tez va mukammal o'zlashtirib olar ekanki, buni ko'rgan kishilar hayratga tushgan ekanlar.

O'g'lining bunchalik zo'r iste'dodi va ilmga bo'lgan intilishini ko'rgan Abdulloh uning bilimini yanada oshirish maqsadida Buxorodagi taniqli ilm sohiblarini yollab, ularda Husaynni o'qitadi. Dastlab uni Mahmud massoh ismli hind hisobi (riyoziyot) va handasa bo'yicha mutaxassisda o'qitadi. So'ng Husayn Ismoil Zohid ismli qonunshunosdan fiqh (qonunshunoslik) ilmini o'rganadi. Bulardan tashqari Ibn Sino o'sha zamonda ma'lum bo'lgan boshqa fanlarga ham qiziqqa boshlaydi. Ko'p o'qish va o'qiganlarini chuqur fikr qilish natijasida Ibn Sinoda, yosh bo'lishiga qaramay, har xil fanlar va dunyoviy masalalar haqida mustaqil mulohazalar paydo bo'la boshlaydi.

O'sha vaqtda Buxoroga Abu Abdulloh an Notiliy ismli bir faylasuf olim kelib qoladi. Ibn Sinoning otasi o'g'lim, bu olimdan ilm o'rgansin, deb an Natiliyni o'z uyiga joylashtiradi. Husayn bu olimdan falsafa, mantiq va handasa ilmlaridan dars ola boshlaydi. Ammo, ko'p o'tmay an Notiliy bu fanlarda unchalik kuchli emasligi ma'lum bo'lib qoladi. Bu haqda Ibn Sinoning o'zi «Tarjimaiy holi»da bunday, deb yozgan: «U (Notiliy) menga qanday ilmiy masala haqida gapirmasin, men bu masalani undan ko'ra dunustroq tasavvur qilardim».

Ibn Sinoning yozishicha, an Notiliy ko'p o'tmay Xorazmga ketib qolgan. Shundan so'ng Ibn Sino fanlarni mustaqil o'rganishga

kirishgan. Xususan, u falsafa, mantiq va fiqhga oid kitoblarni ko'p mutoala qilgan. Tabiat fanlariga oid kitoblarni ham chuqur o'rgangan.

Shunday qilib, Ibn Sino ancha yosh chog'idayoq, o'sha zamonda ma'lum bo'lgan bilimlarning ko'pini puxta o'zlashtirib olgan. Shundan so'ng u katta ilmiy munozaralarda ham qatnasha boshlagan. Shunday suhbat va munozaralarda ibn Sino o'zining chuqur ilmiy mulohazalari va mantiqiy fikrlari bilan ko'pgina katta olimlardan ustunlik qilgan. Bu Ibn Sinoning faqatgina zo'r iste'dodi natijasi bo'lmay, shu bilan birga uning tinimsiz mehnati mahsuli ham edi. Haqiqatan, Ibn Sino bilim olishda juda tirishqoq va sabot-matonatli bo'lgan. Bu haqda uning o'zi bunday, deb yozgan: «Keyin men yana bir yarim yil ilm va mutoalaga berildim. Mantiq va falsafaning hamma sohalarini qaytadan puxtalab o'qib chiqdim. O'sha kezlarda biror kecha ham to'yib uxlamasdim. Kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmasdim... Kechalari oldimga sham chiroq qo'yib olib, faqat o'qish va yozish bilan band bo'lardim... Ana shu zayilda hamma ilmlarni mustaqil egallab oldim». Bu yerda Ibn Sino ilm o'rganishda o'zining qanchalik tirishqoq va sabot-matonatli ekanligini ko'rsatuvchi quyidagi voqeani keltiradi: Ibn Sino barcha tabiat bilimlarini o'zlashtirib olganidan so'ng, ilohiyotni o'rganishga kirishgan va Aristotelning «Mo ba'da at-tabia», ya'ni «Tabiatdan keyingi fan» («Metafizika») kitobini o'qiy boshlaydi. Ammo uning mazmuniga tushuna olmay qayta-qayta o'qiyberadi.; u hatto bu kitobni butunlay yodlab oladi. Shunda ham Ibn Sino uchun bu kitobning mazmuni qorong'i bo'lib qolaberadi. Faqat shundagina Ibn Sino «bu kitob tushunib bo'lmaydigan kitob ekan», deb undan umidini uzadi. Ammo, bir tasodifiy hodisa sabab bo'lib Ibn Sino bu kitobning mazmunini tushinib oladi. Bu voqea shunday bo'lgan ekan: O'sha vaqtda Buxoro bozorida maxsus kitobfurushlar va muqovachilar rastasi bo'lgan ekan, Ibn Sino u yerga tez-tez borib, yangi kitoblar xarid qilib turarkan. Bu kitob rastasi faqatgina kitob sotiladigan joy bo'lmay, bu yerda ko'pincha olimlar va shoirlar yig'ilishib har xil kitoblar haqida suhbatlar, munozaralar o'tkazib turisharkan. Ibn Sino ham ko'pincha bu yig'inlarda qatnasharkan. Bir gal Ibn Sino shu rastaga borganida bir kitobfurush chiroyli qilib muqovalangan bir kitobni unga ko'rsatib, «buni sotib ol, juda yaxshi kitob», deb maqtaydi. U Abu Nasr Forobiyning «Mo ba'da at-tabia»ga yozgan sharhi ekan. Ibn Sino «Bu kitob ya'ni «Mo ba'da at-tabia» tushunib



Abu Ali ibn Sino  
(980-1037)

bo'lmaydigan asar» deb sotib olishdan bosh tortadi. Ammo, kitobfurnish — «bu kitobning egasi pulga juda muhtoj, uni arzonga — 3 dirhamga beradi, ol» deb Ibn Sinoni ko'ndiradi. Ibn Sino noiloj kitobni sotib oladi va uyga kelib, uni o'qib chiqib «Mo ba'da at-tabia»ning mazmunini tushunib oladi. Ibn Sino bu voqeani shogirdi Abu Ubayd Juzjoniga aytib berib, uni quyidagi so'zlar bilan tugatgan ekan: «Bundan men o'zimda yo'q sevinib ketdim va tangri taolaga shukur aytib, o'sha kunning ertasiga kambag'allarga ancha sadaqa ulashdim».

Bu voqea uch muhim jihatdan guvohlik beradi. Birinchidan, Ibn Sinoning bilim yolida zo'r sabr-matонатligi, ikkinchidan, bozorida «Metafizika»ning sharhidek nodir kitobni bimalol sotib olish mumkin bo'lgan Buxoroning yuksak madaniyati. Uchinchidan, o'sha zamonda yurtimizda Aristoteldek buyuk faylasufning asariga sharh yozish qo'lidan keladigan olimning mavjud bo'lganligidir.

Abu Ali ibn Sino tib ilmi bilan ham ancha erta shug'ullana boshlagan. Bu haqda uning o'zi tarjimaiy holida bunday, deb yozgan: «Keyin tib ilmi bilan shug'ullangim kelib qoldi va unga oid kitoblarni o'qishga kirishdim. Tib o'zi qiyin fanlardan emas. Shu sababli qisqa vaqt ichida bu bilimda katta natijalarga erishdim. Bemorlarni ham ko'rib turardim. O'rttirgan tajribalarim tufayli men uchun davolash eshiklari shunday keng ochildiki, buni ta'riflab berish qiyin. Bu vaqtda men o'n olti yoshda edim».

Ibn Sino haqiqatan tibga oid asarlarni ko'p o'qigan. U o'zidan oldin o'tgan yirik hakimlarning asarlari bilan tanish bo'lgan. Xususan, Hippokrat, Galen, Oribaziy, Sushruta, Abu Bakr Roziy kabi buyuk hakimlarning nomlarini o'z asarlarida ko'p marta tilga olgan.

Ibn Sino tib ilmini haqiqatan oson va tez o'zlashtirib olgan va kasallarni muvaffaqiyatli davolab Buxoro aholisi o'rtasida hurmatga

sazovor bo'lgan. Shahardagi nufuzli kishilar ham kasal bo'lib qolganlarida ibn Sinoda davolanganlar. Buning natijasida uning obro'e'tibori yana oshgan. Nihoyat bu «Yosh mo'jizakor tabib» haqidagi xabar, Shoh saroyiga ham yetib borgan. Bir kun esa Ibn Sinoni shohning o'zini davolashga chorlaganlar. Ibn Sino o'zining chuqur mulohazalari bilan saroy tabiblariga foydali maslahatlar bergan. Buning natijasida u shohning hurmatlariga sazovor bo'lib, «saroyga yaqin kishilar» qatoriga kiritilgan. Bu haqda Ibn Sinoning o'zi tarjimaiy holida bunday deb yozgan: «Buxoroning podshosi Nuh ibn Mansur edi. Ittifoqo u shunday bir kasallikka duchor bo'libdiki, tabiblar uning kasalligi haqida bir fikrga kelisha olmabdilar. O'qishga qattiq kirishganim tufayli nomim ular o'rtasida mashhur bo'lib qolgan ekan. Podshoh huzurida mening haqimda gapirishib, undan meni ham chaqirishni so'rashibdi. Podshoh bunga rozi bo'libdi. Men borib boshqa tabiblar bilan birgalikda shohni davolashda ishtirok etdim, va shu orqali unga tanildim»\*.

Buxorodagi shoh saroyida nodir kitoblarga boy katta kutubxonaga bo'lgan. Bu Ibn Sinoga ma'lum edi. Ammo, bu kutubxonadan faqat saroy amaldorlari va shohga yaqin kishilargina foydalana olardilar. Ibn Sino «saroyga yaqin kishilar» qatoriga kirganidan so'ng uning uchun ham kutubxonadan foydalanish imokniyati paydo bo'ldi. Ibn Sino bu kutubxonadagi nodir kitoblarni o'qishni juda istardi. Bir kuni qulay fursat topib, u shohdan saroy kutubxonasiga kirib, u yerdagi kitoblarni o'qish uchun ruxsat so'raydi. Xususan, tibga oid kitoblarni o'qimoqchi ekanini bildiradi.

Shoh ruxsat bergach, Ibn Sino kutubxonaga kirib, u yerdagi kitoblarning ko'pligi va xilma-xilligini ko'rib, hayratda qoladi. Bu yerda olimga ilgari nomlari ham ma'lum bo'lmagan kitoblar ko'p ekan. Ibn Sino bu kutubxonaga va undagi kitoblar haqida bunday ma'lumot bergan: «Men ko'p xonalardan iborat kutubxonaga kirdim, har bir xonada kitob sandiqlari turardi, kitoblar esa ustma-ust taxlab qo'yilgan edi.

Xonalarning birida arab tiliga oid kitoblar, she'rilar, boshqasida fiqhga oid asarlar turardi. Shu tartibda har bir xonada fanning ayrim bir sohasiga oid kitoblar to'plangan edi... U yerda shunday kitoblarni ko'rdimki, ko'pchilik hatto ularning nomlarini ham

---

\* Abu Ali ibn Sino, Tarjimai holi, Toshkent 1980, 11-bet.

eshitmagan bo'lsa kerak. O'zim ham ularni bundan ilgari ko'rmagan edim, keyin ham uchratmadim.»\*

Ibn Sino o'ziga xos tirishqoqlik va qunt bilan kutubxonadagi nodir kitoblarni o'qishga kirishadi. Ammo, u bu yerda tibga oid qanday kitoblarni ko'rgan va o'qigan haqida hech narsa yozmagan. Lekin, bunday kitoblar bo'lgan, albatta. Chunki, o'sha vaqtlarda yozilgan va tarjima qilingan kitoblar orasida tibga oid asarlar ko'pchilikni tashkil etgan.

Ibn Sino kitob o'qishga shu qadar beriladiki, kutubxonadan chiqmay kecha- kunduz o'sha yerda qolib ketadi. Bundan xabardor bo'lgan kishilarning yozishlaricha, faqat shohning o'zi yoki saroy amaldorlaridan biri betob bo'lib qolib, Ibn Sinoni chaqirtirganlaridagina u o'qishdan boshini ko'tarar ekan. Shunday matonatli mehnat tufayli Ibn Sino kutubxonadagi kitoblarning ko'pini o'qib chiqqan. Buning natijasida Ibn Sinoning bilimi tenggi yo'q darajada oshib ketgan. Bu vaqtda Ibn Sino endigina o'n sakkiz yoshga to'lgan edi, xolos.

X asr oxirida (999 yil) Oltoy va Yettisuv tomonlaridan kelgan qoraxoniylar Buxoroni zabt etdilar. Somoniylar davlati tugatilib, qoraxoniylar hokimiyati o'rnatildi. Qoraxoniylar mamlakatda o'zgacha siyosat va yangicha tartib o'rnatdilar. Bu Ibn Sinoga unchalik yoqmaydi. Ammo, shunday bo'lsa ham u qoraxoniylar saroyida xizmat qilishga majbur bo'ladi. Bu haqda olimning o'zi bunday deb yozgan: «Otam vafot etib ahvolimda o'zgarish yuz berdi. Sulton huzuridagi vazifalardan birini o'z zimmasiga oldim. Keyin zarurat yuzasidan Buxoroni tark etdim». Ma'lumotlarga ko'ra Ibn Sinoning otasi 1002-yilda vafot etgan. Demak, bu voqealar shu yillarda sodir bo'lgan. 1004-yil kech kuzida yoki 1005-yil boshida Ibn Sino Buxorodan yashirincha chiqib ketadi. Olim buning sababini ochiq ko'rsatmay «zarurat yuzasidan Buxoroni tark etdim» deb qo'yaqolgan. Bu iboralardan Buxoroda Ibn Sino uchun noxush holatlar yuz berganligi ma'lum bo'ladi. Uning Buxorodan yashirincha chiqib ketganligi ham shuni ko'rsatadi.

Fikrimizcha, qoraxoniylar Ibn Sinoga nisbatan unchalik do'stona munosabatda bo'lmaganlar. Ular umuman oldingi hukmdorlar(somoniylar)ga yaqin bo'lgan kishilarni yoqtirmaganlar. Bunday vaziyatdan chiqish uchun Ibn Sino zohidlar ridosini kiyib, Buxoroni tark etadi va Xorazm davlatining poytaxti Urganchga

---

\* Abu Ali Ibn Sino, Tarjimai holi, Toshkent, 1980, 11-bet.



jonaydi. Bu vaqtda Xorazmning qadimgi madaniyati tiklanib, uning poytaxti Urganch Sharqning yuksak darajada rivojlangan shaharlaridan biri bo'lib qolgan edi. O'sha vaqtda hukmronlik qilgan Ma'muniylar fan ahllarini qo'llab-quvvatlardilar. Bu Ibn Sinoga ma'lum edi. Shuning uchun u Xorazmga yo'l oladi;

Ibn Sino yo'lda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirib, 1005 yil boshlarida Urganchga yetib boradi. Bu yerda olimni yaxshi kutib oladilar. Unga saroydan joy berib, yashashi va ilmiy-ijodiy ishlari uchun zarur sharoit yaratib beradilar. Bu haqda Ibn Sinoning o'zi tarjimaiy holida bunday deb yozgan: «Keyin zarurat yuzasidan Buxoroni tark etib, Urganch tomoniga ko'chishimga to'g'ri keldi. U yerda ilmni sevuvchi Abul Husayn\* as-Sahliy vazir edi. U yemung amiri huzuriga kirdim. Amir Ibn Ma'mun edi. Men uchun menga o'xshaganlarga beriladigan yetarli miqdorda oylik tayin qilishdi».

Ibn Sino o'z tarjimaiy holida Xorazmda yashagan yillari haqida juda kam yozgan. Lekin, tarixdan ma'lumki, olimning bu o'lkada yashagan yillari uning hayotida eng samarali yillar bo'lgan. Xorazm shohi ibn Ma'mun ma'rifatparvar shoh bo'lgan. U ilm ahllarini qadrlagan va doim ularni qo'llab-quvvatlagan.

Ali ibn Ma'mundan keyin shohlik qilgan Abu Abbos Ma'mun ibn Ma'mun ham ilm ahllarini qo'llab-quvvatlashni davom ettirgan. Mashhur Xorazm Akademiyasi shu shoh davrda tashkil etilgan edi. Ibn Sinoni ham Akademiyadagi olimlar qatoriga kiritdilar. Akademiyaga o'sha davrning mashhur olimi Abu Rayhon Beruniy rahbarlik qilardi. Akademiyada to'plangan olimlar Beruniyning rahbarligida fanning har sohalarini bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar. Ibn Sino Abu Rayhon Beruniy bilan juda do'stlashib oladi. Ular ko'p ilmiy masalalarni birgalikda o'rganib, birgalikda yecharkanlar. Beruniyning o'zi ham bir jihatdan tibbiyotga yaqin kishi bo'lgan. U turli dorivor o'simliklar va moddalarni yaxshi bilgan.

Ibn Sino Xorazmda o'zining tibga oid birinchi asarini yozadi. Bu asar «Daf'al- mador al-kulliya an al-abdan al-insoniya bi-tadoruk anva'-xata at-tadbir» («Tadbirda yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf qilish yo'li bilan inson tanasiga yetgan zararlarni tugatish») deb ataladi. Bu kitob keyin qisqaroq qilib, «Tadoruk anva' al-xata al-vaqe' fi-t-tadbir at-tibbiya» («Tibbiy qoidalarda uchraydigan

\* Bu vazirning ismi ba'zi manbalarga Hasan ibn Suhayliy, deb yozilgan.

xatoliklarni tuzatish) deb atala boshlagan. Kitobning muqaddimasi-  
sida aytilishicha, Ibn Sino mazkur asarni Xorazm shohining  
bosh vaziri Abul Hasan Muhammad as-Sahliyning taklifiga binoan  
yozgan. Kitob o'z nomidan kelib chiqib, tibbiy amaliyotda va  
hayotda xatoliklarga yo'l qo'yish natijasida paydo bo'ladigan kasallik  
holatlarining oldini olish va tuzatishga bag'ishlangan.

Xorazmda Ibn Sino 7 yilcha yashadi (1005—1011 yillar). Uning  
uchun bu davr eng samarali yillar bo'lgan. Lekin, 1011 yilning  
o'rtalarida u Xorazmni tark etishga majbur bo'ldi. Chunki, qo'shni  
mamlakat — Xurosonning hukmdori Sulton Mahmud G'aznaviy  
(Yaminiddin Mahmud ibn Sabuktagin) zo'rayib ketib, Xorazmga  
tahdid qila boshlagan. Mahmud Xorazm shohiga maktub yo'llab,  
undan saroydagi olimu va fozillarni G'aznaga, uning saroyiga  
yuborishni talab etdi. U Beruniydek ulug' olim, ibn Sinodek buyuk  
hakim, Masihiydek yirik fan arboblarni o'z saroyida xizmat  
qilishlarini istardi. Ammo, Sulton Mahmud juda mutaasib odam  
edi, u dahriy, deb ataluvchi erkin fikrli kishilarni yoqtirmasdi.  
Ibn Sino esa «dahriy», deb nom chiqargan edi. Shuning uchun  
uning Mahmud saroyida yashashi xavfli edi. Abu Sahl Masihiy esa  
g'ayri din (nasroniy) bo'lgan. Shuning uchun shoh Ma'mun  
Sulton Mahmudning xatini olimlarga o'qib berib, har kim bu  
masalani o'zi hal qilishini so'raganida Ibn Sino bilan Masihiy  
Sulton Mahmudning saroyiga bormasliklarini bildirdilar. Bu qarorni  
boshqalar qo'llab-quvvatladilar. Shoh Ma'mun ham bu qarorni  
ma'qul, deb topdi va vaziri Hasan as-Sahliyga Ibn Sino bilan  
Masihiy Xorazmdan yashirinch qiqarib yuborishni topshirdi.  
Ma'lumotlarga ko'ra Beruniy Ibn Sino bilan Masihiyga Jurjonga  
Qobus huzuriga yoki Rayga-Malika Sayida saroyiga borib, o'sha  
yerda xizmat qilishni maslahat bergan va ularning qo'liga bu shohlar  
nomiga xat bitib bergan. Xatda Beruniy bu shohlardan Ibn Sino va  
Masihiyga zarur sharoit yaratib berishni iltimos qilgan ekan. Abu  
Rayhon Beruniy bir vaqtlar Jurjonda, Qobus saroyida va Rayda  
Malika Sayida saroyida xizmat qilib, ularning hurmatiga sazovor  
bo'lgan ekan. Shuning uchun ularga xat orqali murojaat qilishga  
jur'at etibdi.

Sulton Mahmud haqiqatdan dindor odam bo'lganligi va  
dahriylarni yoqtirmaganligi to'g'ri. U o'z dushmanlariga nisbatan  
juda shafqatsiz bo'lgan. Lekin, ba'zi tarixchilar yozganlaridek,  
har qanday taraqqiyotga qarshi johil odam bo'lgan emac. U

mamlakat taraqqiyotida ma'rifatning tutgan o'rini tushunardi. Ilm-fan va madaniyat davlatning shuhratini oshirishini ham bilgan. Shu sababdan ilm ahllarini qo'llab-quvvatlagan. Ularga turli imtiyozlar ham bergan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Mahmudning o'zi va uning o'g'li Mas'ud hukmronlik qilgan davrda ular qo'li ostida bo'lgan shaharlarda ko'plab masjid-madrasalar, xonaqohlar, karvonsaroylar, kasalxonalar barpo etilgan. Masalan, Mas'ud G'azna shahrida katta shahar kasalxonasi barpo ettirgan. Unga o'sha davrning ko'zga ko'ringan hakimlaridan biri Abu Hamid an-Naqshiy boshchilik qilgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra bu hakim Abu Rayhon Beruniyini qandaydir og'ir hastalikdan operatsiya qilib tuzatgan ekan.

Sulton Mahmudning saroyida o'sha zamonning ko'pgina ko'zga ko'ringan fozillari xizmat qilganlar. Binobarin, Sulton Mahmud Ibn Sinoni o'z saroyiga taklif etganida uni o'ldirishni emas, balki bu hakim unga xizmat qilishini ko'zda tutgan edi. Lekin, Ibn Sino Masihiy bilan birga G'aznaga emas, Jurjon tomonga yo'l oldilar.

Urganch bilan Jurjon o'rtasida dahshatli Qoraqum sahrosi yotardi. Bu sahrodan o'tishda Masihiy yo'l azoblariga chiday olmay, olamdan o'tdi. Ibn Sino ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirib, hozirgi Turkmaniston hududida bo'lgan Niso shahriga yetib oldi. U yerda bir oz to'xtab, Abiverd shahriga ko'chdi. Ammo, bu shaharda ham uzoq qolmadi, chunki, Sulton Mahmud Ibn Sino uning saroyiga borishdan bosh tortgani uchun darg'azab bo'lib, ko'p shaharlarga o'z ayg'oqchilarini yuborib, ularga Ibn Sinoni topib zo'rlik yo'li bilan bo'lsa ham G'aznaga olib kelishni buyurgan edi. Shuning uchun Ibn Sino bir shaharda uzoq vaqt tura olmas edi.

Ba'zi tarixchilar Sulton Mahmud o'z saroyida xizmat qiluvchi kimyogar olim va musavvir Abu Nasr Arroqqa Ibn Sinoning suratini (yoddan) chizdirib, uni ko'paytirib ko'p shaharlarga yubortirgan, deb yozadilar. Bu haqiqatga to'g'ri kelmaydi, chunki, birinchidan odamning suratini yoddan chizib bo'lmaydi, ikkinchidan musulmon dinida odamning suratini chizish man' etilgan.

Ibn Sino o'z tarjimai holida yozishicha u Abiverddan Tusga, undan Shiqqanga, so'ng Samniqonga, keyin esa Jojorumga o'tib nihoyat Jurjonga yetib kelgan, ammo qo'lidagi xatni Qobusga topshira olmagan. U Qobusning oldiga kirmoqchi bo'lib turganida uni taxtdan tushurib, qal'aga qamab qo'yadilar. Shoh Qobus qal'ada vafot etadi. Shuning uchun Ibn Sino bu shahardan ham ketishga

majbur bo'ladi. U Jurjondan unchalik uzoqda bo'lmagan Dehstonga boradi. Lekin bu yerda qattiq isitma kasalligi (bezgak bo'lsa kerak) bilan og'rib qolib, Jurjonga qaytib keladi. Bu shaharda Ibn Sino Abu Ubayd Juzjoniylar ismli yosh olim va faylasuf bilan uchrashib, ular do'stlashib qoladilar.

Abu Ubayd Juzjoniylar (Abu Ubayd Abdul Vohid ibn Muhammad al-Juzjoniylar) asli Xurosonlik bo'lib, Hirotga yaqin joydagi Juzjon shahrida tavallud topgan. Abu Ali ibn Sino bilan Abu Ubayd Juzjoniylar Jurjonda uchrashib qolib, do'stlashgan kunlaridan boshlab, umr bo'yi birda bo'lganlar. Juzjoniylar Ibn Sinoning to'vafotiga qadar uning sodiq shogirdi bo'lib qolgan.

Juzjoniylarning yozishicha, Jurjonda ilm-fanni qadrlaydigan Abu Muhammad ash-Sheroziylar ismli badavlat kishi bo'lgan. U Ibn Sinoning muxlislaridan biri ekan. Shu kishi Ibn Sinoga bo'lgan zo'r hurmatini ifodalab, o'z hovlisiga yaqin joydan uy sotib olib, unga Ibn Sinoni ko'chirib olib keladi. Ibn Sino bu orttirgan do'stlari yordamida Jurjonda moddiy va ma'naviy jihatdan muhtojlik sezmay, yaxshi yashaydi.

Abu Ubayd Juzjoniylarning yozishicha Ibn Sino Jurjonda to'rt yilcha (1012—1015 yillar) yashagan. Bu davr Ibn Sino uchun Xorazmdan keyin ikkinchi osoyishta va tinch hayot yillari bo'lgan. Olim shu to'rt yil ichida yigirmadan ortiq katta-kichik asarlar yozgan va ko'p shogirdlar tayyorlagan. Juzjoniylarning guvohlik berishicha, Ibn Sino Jurjonda o'zining mashhur asari «Tib qonunlari kitobi»ni yoza boshlagan.

Sulton Mahmud Ibn Sinoni ta'qib qilishni to'xtatmaydi. U olimning Jurjonda ekanligini eshitib, bu shaharga ham tahdid soladi. Bir vaqt shaharda Sulton Mahmud Jurjonga yurish qilarnish, degan xabar tarqaladi. Bundan xavf olgan Ibn Sino 1015 yilning oxirlarida Jurjondan chiqib ketadi va Abu Rayhon Beruniylarning maslahatini eslab, Rayga tomon jo'naydi. Rayda Ibn Sinoni yaxshi kutib oladilar. Malika Sayida Beruniylarning xatini o'qib, Ibn Sinoga unda iltimos qilinganidek sharoit yaratib beradi.

Malika Sayidaning Majd ud-Davla ismli o'g'li bo'lib u qandaydir ruhiy kasallikka uchragan ekan. Ibn Sino uni davolab tuzatadi. Bundan mamnun bo'lgan malika Ibn Sinoga yana ham yaxshiroq munosabatda bo'ladi.

Sulton Mahmud Ibn Sinoning Rayda ekanligini eshitib, Sayidadan uni G'aznaga yuborishni talab qiladi, aks holda Rayga

harbiy yurish qilishini bildiradi. Ammo, Sayida urushning oldini olishga muvaffaq bo'ladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Sayida Sulton Mahmudga quyidagi mazmunda xat yuborgan ekan: «Agar urush natijasida siz meni yengsangiz, odamlar Sulton Mahmud bir ojiza ayolni yengdi, deydilar, xolos. Agar men sizdan g'olib chiqsam, sizdek buyuk shohga katta nomus bo'ladi». Sulton Mahmud bu xatni olganidan so'ng Ray ustiga qo'shin tortishni to'xtatadi. Tarixchilar bu xatning matnini Ibn Sino yozib bergan, deydilar. To'g'ri bo'lsa kerak.

Ibn Sino Sulton Mahmudning qo'li yetmaydigan birorta mamlakatga borib, o'sha yerda istiqomat qilmoqchi bo'ladi. Bu masalada uning uchun eng qulay joy Hamadon o'lkasi edi. Bu mamlakat Sulton Mahmudga tobe' bo'lmay, o'zi mustaqil siyosat olib borardi. Ibn Sino bir oz vaqt Qazvinda yashab, so'ng 1016 yilda Hamadonga keladi. Bu yerda olim o'zi uchun bir qadar tinchroq yashash sharoitini topgan edi. Hamadon hukmdori Shams ud-Davla tez-tez huruj qilib turadigan ichak kasalligiga muhtalo ekan, (u surunkali kolit bilan og'rigan bo'lsa kerak). Shuning uchun u doimo tajribali tabib yordamiga muhtoj bo'lgan. Shu sababdan Shams ud-Davla Ibn Sinodek buyuk tabibning o'z shahriga kelganligidan hursand bo'lib, uni juda yaxshi qabul qiladi. Ibn Sino shohni davolay boshlaydi. Shams ud-Davla sog'ayganidan so'ng Ibn Sinodan minnatdor bo'lib, unga ko'p qimmatbaho sovg'alar taqdim etadi va o'ziga shaxsiy tabib qilib tayinlaydi. Shams ud-Davla Ibn Sinoni ozidan yiroqlashtirmasdi. Olim uning eng yaqin kishilaridan biri bo'lib qolgan edi. Ibn Sinoning huquqshunoslik ilmi va davlat tuzilishi masalalarini yaxshi bilishidan habardor bo'lib, uni o'ziga vazir etib ham tayinlaydi. Vazir sifatida davlat ishlarini bajarish va shohning shahsiy tabibi vazifasini ado etish Ibn Sinoning ko'p vaqtini olardi. Lekin, Ibn Sino har bir bo'sh fursatni bekor o'tkazmay, boshlab qo'ygan kitoblarini tugatish va yangilarini yozish bilan shug'ullanadi.

Ibn Sino Hamadonda 8 yilcha (1016—1024 yillar) yashadi. Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha, olim shu 4 yil ichida bu shaharda bir necha yirik asar yozgan. Xususan, u Hamadonda o'zining mashhur tibbiy asari «Tib qonunlari»ning birinchi kitobini yozib tugatgan. Bundan tashqari tibga oid «Al-adviyat al-qalbiya» («yurak dorilari») nomli kitob ham yaratgan. 18 jiltlik falsafiy asari «Kitob ash-shifoh» («Shifo kitobi»)ning tabiat fanlari



Ibn Sino talabalar bilan dars o'tmoqda

haqidagi qismini tugatgan. Aristotelning falsafiy asarlariga sharhlar yozgan.

Hamadonda Ibn Sinoning ko'pgina shogirdlari va muxlisari bo'lgan. Olim kunduzlari saroy xizmati bilan band bo'lganligi uchun u shogirdlari bilan ko'proq kechalari shug'ullangan. Ibn Sino o'z shogirdlaridan doim rostgo'ylik, poklik va haqqoniylikni talab qilgan. Har xil masha'iy hislarga berilmaslik, har bir narsada me'yor bo'lishini uqtirgan. Tabiblik bilimi masalasida so'zlab, bu bilimni egalashni istagan kishi kamtarin, kasallarga nisbatan mehribon, oq ko'ngil, hushmuomala, shirinso'z bo'lishi zarurligini

uqtirgan. Ochko'z, ta'magir, g'arazgo'y bo'lmaslikni ta'kidlagan.

Ibn Sino vazirlik vazifasiga o'tganidan so'ng mamlakat aholisi manfaatini ko'zlab, ko'p tadbirlarni amalga oshirgan, obodonchilikka ahamiyat bergan, saroydagi ortiqcha dabdabalar va xarajatlarni cheklab qo'ygan. Bu saroy amaldorlari va harbiy boshliqlarga yoqmagan. Ular ibn Sinodan norozi bo'ladilar va unga qarshi dushmanlik ishlarini avj oldirganlar. Xatto shohdan Ibn Sinoni vazirlik lavozimidan bo'shatishni talab etganlar. Lekin, Shams ud-Davla bunga ko'nmagan.

Ibn Sino vazirlik vazifasini yaxshi bajarayotgan bo'lsa ham, o'zini siyosatchi emas, birinchi galda olim, deb hisoblardi. Shuning uchun o'z faoliyatida ilmiy- ijodiy ishlarni birinchi o'ringa qo'ygan. U davlat ishlari orasida, hatto harbiy yurishlar vaqtida ham qulay fursat bo'lib qolsa, kitob o'qish va asar yozish bilan shug'illangan.

Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha Shams ud-Davla harbiy yurishlardan birida qattiq kasal bo'lib qolib, ahvoli juda og'irlashib ketadi. Uni tuzatish uchun Ibn Sino har qancha urinishiga qaramay, u Hamadonga qaytish yo'lida vafot etadi.

Shams ud-Davlaning o'rniga taxtga o'tirgan o'g'li Samo ud-Davla Ibn Sinoga nisbatan unchalik iltifot qilmaydi. Shuning uchun ibn Sino vazirlik vazifasini topshirib, saroydan ketadi. Olimning maqsadi ilmiy-ijodiy ishlarini davom ettirish edi. Ammo Ibn Sinoning oldida yangi qiyinchiliklar va xavf-xatarlar paydo bo'ladi. Saroydagi Ibn Sinodan norozi kishilar va harbiylar yangi shohning olimga nisbatan iltifotsizligidan foydalanib, unga qarshi g'arazli ishlar qila boshlaydilar. Ibn Sino bu hujumlardan qutilish va o'zining hayoti hamda ijodiy ishlari uchun qulay sharoit topish maqsadida bo'lsa kerak, Isfaxon hukmdori A'lo ud-Davlardan o'ziga boshpana so'rab xat yozadi. Bu xatdan Samo ud-Davlaning vaziri Toj ul-Mulk xabardor bo'lib qolib, uni shohga ma'lum qiladi. Samo ud-Davla Ibn Sinoni hibsga olish haqida farmon beradi. Ammo, olimning do'stlari uni Shayx Abu G'olib al-Attor ismli bir ishonchli kishining uyiga yashirib joylashtirib qo'yadilar. Ibn Sino bu yerda ham vaqtni bekor o'tqazmay, o'z asarlari ustida ishlashni davom ettiradi.

Ibn Sino o'shanda o'zining «Kitob ash-shifo» nomli asarini tugatish arafasida edi. Ammo, uni bu yerdan topib olib, shahar chekkasidagi bir qal'aga qamab qo'yadilar. Olim bu qal'ada to'rt oy qamalib yotdi. Bu yerda ham tushkunlikka berilmay o'ziga xos matonat bilan kitob yozishni davom ettiradi. Xususan, olim bu yerda «Kitob al-hidoya» («Tog'ri yo'l kitobi») «Hayyi bin yakzon» («Uyg'oq o'g'li tirik») va «Kitob al-qulanj» («Yo'g'on ichak yallig'lanishi») nomli uchta kitob yozib tugatadi. Ularning oldingi ikkitasi filosofiyaga, keyingisi esa tibga oiddir. Bu voqea 1023 yilda bo'lib o'tgan edi. Demak, «Kitob al-qulanj» 1023 yilda yozilgan. O'shanda Isfaxon hukmdori A'lo ud-Davla Hamadonga yurish qilib, u yerga bostirib keladi. Samo ud-Davla bilan Toj ul-Mulk qochib ketadilar. Buning natijasida Ibn Sino hibsdan ozod bo'ladi. Uni Juzjoniy kutib olib, bir ishonchli kishining uyiga joylashtirib qoyadi. Ammo, Ibn Sinoning Hamadonda qolishi xavfli edi. Samo ud-Davla bilan, Toj ul-Mulk qaytib kelganlaridan so'ng uni yana hibsga olishlari yoki boshqa yo'l bilan undan o'ch olishlari mumkin edi. Shuning uchun Ibn Sino Juzjoniy va bu shaharga kelgan ukasi Mahmud bilan yashirincha Hamadondan chiqib ketib Isfaxonga jo'naydilar. Ularni Isfaxon darvozasi oldida A'lo ud-Davla yuborgan maxsus kishilar kutib oladilar. Bundan ko'rinadiki, A'lo ud-Davla Ibn Sinoga nisbatan katta hurmat bajo keltirgan. Bir oz vaqtdan

so'ng Ibn Sinoni saroyga chorlaydilar. Bu yerda uni A'lo ud Davla qabul qilib, saroy ahillariga tanishtiradi.

A'lo ud- Davlanning saroyida «Majlisi-ulamo» («Olimlar majlisi») tashkil etilgan bo'lib, unda saroydagi barcha olimlar birlashgan edilar. Ibn Sinoni ham shu «Majlis»ga kiritadilar. Bu «Majlis» a'zolari har juma kuni kechqurun yig'ilishib, fanning turli sohalarini bo'yicha suhbatlar, munozaralar va bahslar o'tkazib turar ekanlar. A'lo ud-Davlanning o'zi ham o'qimishli kishi bo'lgan. Shuning uchun anjumanni uning o'zi olib borar ekan.

Isfahonda Ibn Sino 14 yilcha (1024—1037 yillar) yashagan. Bu yerda ham u o'zining ilmiy-ijodiy ishini davom ettirib, fanning turli sohalariga oid ko'pgina asarlar, sharhlar va kitoblarga qo'shimchalar yozgan. Xususan, bu yerda u yigirma jildli «Kitob al-insof» («insof-adolat haqida kitob») nomli falsafiy asarini yozib tugatgan. Bu olimning so'nggi asari edi.

A'lo ud-Davla urushqoq shohlardan bo'lgan ekan. U ko'p vaqtini harbiy safarlarda o'tkazarkan. Ibn Sino shohni bu safarlarda kuzatib borishga majbur bo'lgan. Shu sababdan ba'zi asarlarini safarlarda yozgan ekan. Juzjoniyning guvohlik berishicha, Ibn Sino o'zining «Kitob an-najot» («Qutilish kitobi») nomli falsafiy asari va «Kitob ash shifoh»ning «An-nabotot» («O'simliklar») va «Al-hayvonot» («Hayvonlar»), deb atalgan boblarini shunday safarlardan birida yozib tugatgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Isfahonda Ibn Sino rahbarligida bir kasalxonaga barpo etilgan. Uni «Davolash uyi» deb atagan ekanlar. Kasalxonaga bunday nom berishning o'z tarixi bor ekan. Ibn Sino tuzgan loyihada bu kasalxonaga «Davolash uyi» deb atalgan ekan. Loyihani tasdiqlashda A'lo ud-Davla bu so'zni «Bemorlar uyi» deb o'zgartirib qo'yibdi. Shunda Ibn Sino odob va muloyimlik bilan A'lo ud-Davlagaga kasalxonani «Davolash uyi» deb atash maqsadga muvofiq, chunki bunda bemorda kasallikdan tuzalish umidi paydo bo'ladi. «Bemorlar uyi» deganda esa umidsizlik hissi paydo bo'lishi mumkin, deb tushuntiribdi va qo'shib qo'yibdi: «Mening ko'p yillik kuzatuvlarim shuni ko'rsatadiki, hastalikdan qutilish mumkinligi haqida ishonch borligi bemor uchun eng yaxshi donilardan biridir». Shunda A'lo ud-Davla Ibn Sinoga qarab, bir oz o'ylab qolibdi, so'ng «Bemorlar uyi» degan so'zni keskin o'chirib, «Davolash uyi» deb yozib qo'yibdi.

Abu Ubayd Juzjoniyni Ibn Sinoning tibbiy asarlari va amaliy tabiblik faoliyati haqida unchalik ko'p ma'lumot bermagan. Faqat




olimning tibga oid ba'zi asarlari qachon va qayerda yozilganligi haqida qisqa-qisqa ma'lumot berib o'tgan. Bir joyda «Shayx bemorlarni davolash jarayonida ko'p tajriba hosil qildi. Ularni «Al-qonun» kitobiga kiritmoqchi bo'ldi, lekin ular «Qonun» kitobi yozilishidan oldin turli sabablar bilan yo'qolib ketdilar», deb xabar qilgan, xolos.

Juzjoniyy Ibn Sinoning 47 asarining ro'yxatini bergan. Shularning ichida tibga oidi oltita, xolos. «Tib qonunlari» ham shuning xisobiga kiradi. Juzjoniyyning yozishicha «Alqonun» dastlab 14 jilddan iborat bo'lgan. Hozir u o'zbek va rus tillarida 5 kitob (6 jild) qilib chiqarilgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra Ibn Sinoning tibga oid 31 asari mavjud. Shularning har biri tib ilmining alohida mavzulariga bag'ishlangan. Bu kitoblar orasida eng muhimi va eng kattasi «Tib qonunlari kitobi»dir. Ibn Sino asosan shu kitobi tufayli butun jahonga mashxur bo'lgan.

Ibn Sinoning ko'pgina asarlari vaqt o'tishi va turli suronli voqealar natijasida yoqilib ketgan.

Ibn Sino hayotining so'ngi davri haqida Juzjoniyy quyidagi ma'lumotni bergan: hurmatli ustoz jismoniy jihatdan juda baquvvat odam edilar. U kishining gavdalari kasalliklarga nisbatan chidamli edi. Ammo, 425 hijriy (1035 milodiy) yilning yozida u kishida qandaydir ichak kasalligi paydo bo'ldi. Ustoz unga har qancha muolaja qilsalar ham kasallik tuzalmadi. Aksincha u kun sayin og'irlashaverdi. Bunday ahvol bir yildan ortiq davom etdi. Nihoyat ustozning darmoni butunlay qurib, ahvoli haddan tashqari og'irlashib qoldi va har qancha urinishlarga qaramay, 428 hijriy (1037 milodiy) yilning 24 iyulida olamdan o'tdilar. Qanchadan-qancha odamlarni o'lim changalidan olib qolgan buyuk hakim o'z dardiga davo topolmadi.

Tarixchilar Ibn Sino qulanj (yo'g'on ichak yallig'lanishi — kolit) kasalligidan vafot etgan, deb yozadilar. Bizning fikrimizcha, Ibn Sino ichakda paydo bo'lgan saraton (rak) kasalligidan vafot etgan. Fikrimizni shu narsa tasdiqlaydiki, birinchidan Ibn Sinodek buyuk hakim saratondan boshqa har qanday kasallikni muolaja yo'li bilan dayolay olardi. Ayniqsa o'zini. Ikkinchidan kasallikni dori bilan tuzatib bo'lmagan, chunki rak kasalligiga hech qanday dori kor qilmaydi. Uni operatsiya qilish kerak. Tabiiyki, Ibn Sino o'zini-o'zi operatsiya qila olmasdi. Ehtimol, Isfaxonda o'sha vaqtda bunday operatsiyani qila oladigan jarroh bo'lmagandur. Uchinchidan



Abu Ali ibn Sinoning maqbarasi

rak kasalligi bilan og'rigan odamning umri 1—1,5 yildan nari o'tmaydi. Ibn Sino ham kasallik alomati paydo bo'lgandan, so'ng bir yarim yilcha yashagan xolos. Hastalikning bunday kechishi aynan saraton kasalligi uchun xosdir. Shu dalillarga asosan biz Ibn Sino saraton kasalligi bilan og'rigan va shu kasallikdan vafot etgan, degan qat'iy fikrdamiz.

## VI b o b . QORAXONIYLAR DAVRIDAGI TIBBIYOT

Biz yuqorida X-asrning oxirida qoraxoniylar O'rta Osiyoni zabt etganlarini ko'rsatib o'tgan ebik. Ular turkiy qabilalar edilar. Qoraxoniylar bu yerdagi turkiy qabilalar bilan qo'shilib ketib, mamlakatda katta va kuchli davlat barpo etdilar.

Qoraxoniylar Samarqandni o'z davlatlarining poytaxti, deb e'lon qildilar. Shaharda har xil qurilish ishlari olib borildi. Boshqa binolar qatorida shifoxonalar, kasalxonalar va dorixonalar ham barpo etildi. Masalan, o'sha vaqtdagi Samarqand hukmdori Ibrohim ibn Nasr Tamg'och Bo'g'raxonning farmoni bilan 1066 yilda Samarqandda kasalxona barpo etilgan edi. Kasalxona bilan bir vaqtda

tibbiy bilimlarni o'qituvchi maxsus madrasa (tibbiy maktab) ham qurilgan. Uni «Tibbiy bilim maskani», deb ataganlar. Bu madrasa va kasalxonada xonning o'ziga qarashli vaqf yerlar va korxonalaridan keladigan daromad hisobidan ta'minlanib turilgan. Kasalxonaga o'sha vaqtda yashagan yirik hakimlardan biri Tohir ibn Abdurahmon al-Jazoliy boshchilik qilgan. Kasalxonada shtatida tabiblardan tashqari dorishunoslar va maxsus qon oluvchilar ham bo'lgan. Kasalxonada bemorlardan tashqari hech kimi yo'q qariyalar va nogironlar uchun ham o'rin ajratilgan. Shunday qilib, kasalxonada bir yo'la g'aribxonada rolini ham bajargan.

Kasalxonada uchun ajratilgan mablag' turli sohalar bo'yicha belgilab qo'yilgan. Chunonchi, umumiy mablag'dan 10 foizi kasalxonada xizmat qiluvchi tabiblarga maosh uchun; 15 foizi bemorlarning ovqati uchun; 15 foizi binoni ta'mirlash uchun; 5 foizi o'tin-ko'mir uchun; 2 foizi bo'yra, obdasta va sham sotib olish uchun; 3 foizi oshpaz uchun; 5 foizi farroshlar uchun belgilab qo'yilgan. Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek kasalxonada tabiblardan tashqari maxsus qon oluvchilar ham ishlaganlar. Ular uchun umumiy mablag'dan 2 foizi ajratilgan. Kasalxonada mablag'idan go'rkovlar uchun 3 foiz pul ajratib qo'yilgan ekan. Go'rkovlarga pul ajratib qo'yilishining boisi shuki, kasalxonada vafot etgan kimsasiz kasallar va nogironlarni dafn etish shu kasalxonada ma'muriyati zimmasiga yuklatilgan.

Umumiy mablag'dan 1000 dirhami ko'rpa, yostiq, choyshab va bemorlar kiyib yuradigan joma uchun ajratilgan.

Tibbiy maktabni mablag' bilan ta'minlash uchun bir yillik mablag' 35 ming dirham qilib belgilangan. Undan bosh mudarris 2000 dirham olgan. Maktabda dars beruvchi hakimlarga ularning bilim darajasi va o'qitadigan fanining tutgan o'rniga qarab, 1000 dirhamdan 1500 dirhamgacha maosh to'langan. Kutubxonada mudiri 1200 dirham olgan. Talabalarga nafaqa (stipendiya) berish uchun 1800 dirham ajratilgan. Nafaqa talabaning bilimni o'zlashtirish darajasiga qarab belgilangan. O'rtacha ular 30 dirhamgacha stipendiya olganlar. Demak, maktabda 30ga yaqin talaba o'qigan.

Samarqand kasalxonasi va tibbiy maktabiga o'xshash muassasalar boshqa shaharlarda ham bo'lgan. Kasalxonalar va tibbiy maktablarda bilimdon va tajribali hakimlar xizmat qilganlar. Ular orasida Muhammad al-Kalonisiy, Qatton al-Marvaziy va Najibuddin Samarqandiy ayniqsa mashhur bo'lganlar.

Muhammad al-Kalonisiy (Bahridin Muhammad ibn Bahrom al-Kalonisiy as-Samarqandiy) Samarqandda tavallud topib, shu yerda ta'lim olgan. Tug'ilgan yili ma'lum emas, vafoti 1194 yil.

Kalonisiyning ota-bobolari telpakchi (kalonchi) bo'lgan bo'lsalar kerak. Shu sababli u «Kalonisiy» (telpakchi) degan taxallus olgan. Kalonisiy yaxshi tajribali hakim va dorishunos bo'lgan. Uning dorishunoslikka oid «Kitob al-qarobodin» («Murakkab dorilar haqida kitob») nomli asari ham bor. Muallif kitobida murakkab dorilarni tayyorlash, saqlash va ishlatish usullarini bayon etgan. Xususan, u kukun dori (poroshok), xab dori, eritma, qaynatma va har xil surtma dorilarni tayyorlash usullarini ko'rsatgan.

Bizga Kalonisiyning tibga oid asari ma'lum emas. U ko'proq dorishunoslik ishi bilan shug'ullangan bo'lsa kerak.

Qatton al-Marvaziy (Ayn az-Zamon al-Qatton al-Marvaziy) ham o'z zamonasining ko'zga ko'ringan hakimlaridan bo'lgan. Qaysi yilda tug'ilib, qaysi yilda vafot etgani ma'lum emas. Manba'larda aytilishicha Marvaziy XII asrda yashagan mashhur faylasuf Abu Abbos al-Muqriyning shogirdi bo'lgan. Demak, u XII-asrda yashagan.

Qatton al-Marvaziy Marv shahrida tavallud topgan. Shuning uchun u «Marvaziy» taxallusini olgan. Olim tibbiyotdan tashqari tabiiy fanlar bilan ham shug'ullangan. Lekin olimning asosiy kasbi tabiblik bo'lgan. Bizga Marvaziyning tibga oid «Rasoil fi-t-tib» («Tib haqida risolalar») nomli kichik asari ma'lum.

Marvaziy o'z kitobida nazariy va amaliy tibbiyot haqida bir muncha qisqaroq ma'lumot bergan.

Najibuddin Samarqandiy (Najibuddin Abu Homid Muhammad ibn Ali ibn Umar as-Samarqandiy) XII asrning oxiri va XIII asrning boshida yashagan. Taxallusidan ma'lumki olim Samarqandda tavallud topgan. Ammo, tug'ilgan yili ma'lum emas, vafoti 1222 yil.

Najibuddin Samarqandiy umrining oxirida Marvda yashab, shu yerda fojiali halok bo'lgan. 1222 yilda mo'g'ul qo'shinlari Marvni qamal qilib, uning devorini buzib kirib shahar aholisini qirib tashlaydilar. Shu qirg'inda Najibuddin Samarqandiy ham halok bo'lgan.

Ma'lumki, XII-XIII asrlarda Samarqand sharqning eng rivoj topgan shaharlaridan biri edi. Shaharda ko'p madrasa va

shifoxonalar bo'lgan. Najibuddin Samarqandning katta madrasalaridan birida tahsil olgan. So'ng o'z bilimini kengaytirish va chuqurlatish maqsadida fanlarni mustaqil o'rganib, har tomonlama bilimdon olim bo'lib yetishgan. Najibuddin yosh chog'idayoq o'tkir zehn va zo'r qobiliyatga ega bo'lgan ekan. U juda erta tib ilmiga qiziqib qolib, bu kasbni mukammal o'zlashtirib olgan. Bu haqda mashhur O'rta asr tarixchisi Ibn Abi Usaybi'a «Najibuddin Samarqandiy tib ilmi sohasida har tomonlama chuqur bilimga ega edi. U qadimgi Yunoniston, Rum, Hindiston va boshqa mamlakatlar tib olimlarining asarlarini qunt bilan o'rgandi va o'zi ham buyuk hakim bo'lib yetishdi.», deb yozgan.

Najibuddin Samarqandiy fanning ko'p sohalari bilan shug'ullangan bo'lsa ham, u o'zini hakim, deb hisoblagan. Shuning uchun kitoblari orasida tibga oid asarlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bizga olimning tibga oid quyidagi asarlari ma'lum: «Kasalliklarning sabablari va alomatlari»; «Bemorlar g'izosi»; «Bo'g'imlar kasalliklarini davolash»; «Murakkab dorilarni tayyorlash usullari». Bu asarlar o'sha davr amaliy tibbiyotining rivojlanishida muhim ro'l o'ynagan edilar. Ayniqsa «Kasalliklarning sabablari va alomatlari» kitobi katta shuhrat qozongan. Bu kitob ko'p asrlar davomida tabiblar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Kitobda asosan tashxis (diagnostika) va davolash masalalari bayon etilgan. Dastlab har xil kasalliklarning kelib chiqish sabablari ko'rsatiladi. Bunda muallif mizojlar haqida umumiy fikr yuritishdan tashqari kasalliklarning kelib chiqishida tabiiy omillarning ahamiyatini ham ko'rsatib o'tadi. Masalan, u kasallik paydo qiluvchi omillardan buzuq havo, zararli shamol, ifloslangan suv, iqlim, ob-havo harorati kabi omillarni sanab o'tgan. Bulardan tashqari, Samarqandiy ovqatlanish tartibining buzilishi (sifatsiz ovqat yeyish, haddan tashqari to'yib ovqatlanish yoki yetarli ovqatlanmaslik va h.k.)ni ham kasallik sabablariga kiritgan. Shundan so'ng Samarqandiy har bir kasallikning o'ziga xos alomatlarini ko'rsatib o'tgan. Samarqandiyning ta'kidlashicha kasalga tashxis qo'yishda kasallik alomatlarini sinchiklab k o'zdan kechirish birinchi darajali ahamiyatga ega. Samarqandiyning bu kitobini hozirgi tilda «Ichki kasalliklar propedevtikasi» deb atash mumkin. «Bemorlar g'izosi» kitobida har xil holatlarda bemorni ovqatlantirish qoidalari bayon etilgan. Xususan, qanday kasallikda qanday ovqat berish, yoxud umuman vaqtincha

ovqatlantirmaslik usullari ko'rsatilgan. Bu kitobni hozirgi tilda diyetetika qo'llanmasi deyish mumkin.

Najibuddin Samarqandiy o'z kitobida ovqat maxsulotlaridan davo vositasi sifatida foydalanish mumkinligini ham ko'rsatgan. Uning yozishicha, ba'zan bemorga dori bermay faqat kerakli ovqat (diyeta) berib davolash ham mumkin. «Murakkab dorilarni tayyorlash usullari» kitobi amaliy tibbiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu kitobni o'sha vaqt uchun dorilar haqidagi to'liq qo'llanma, deyish mumkin. Kitobda murakkab dorilar tayyorlash va ishlatish usullari ancha aniq hamda to'liq berilgan. Bu haqda Najibuddin Samarqandiyning o'zi bunday deb yozgan: «Hozirgi kunda murakkab dorilar tayyorlashga bag'ishlangan kitoblar juda oz ekanligi, borlari esa juda qisqa, yuzaki va noaniq yozilganligi sababli men shu kitobni yozishga qaror qildim. Kitobda qo'limdan kelganicha murakkab dorilar tayyorlash usullarini to'liqroq va aniqroq ko'rsatib berishga harakat qildim». Haqiqatdan u vaqtda tabiblar murakkab dori retseptini tuzishda ko'p noaniqliklar va xatoliklarga yo'l qo'yganlar. Masalan, tabiblar ba'zan tasodifan, ba'zan esa bilmaslikdan o'z ta'sirlari bilan bir-birlariga qarama-qarshi xususiyatga ega bo'lgan moddalarni ham qo'shib yuborganlar. Samarqandiy shuni ko'zda tutgan bo'lsa kerak. «Bo'g'im kasalliklarini davolash» kitobi ham muhim ahamiyatga ega. Kitobda muallif har xil bo'g'imlarda paydo bo'ladigan turli kasalliklar (hozirgi tilda artritlar, artrozlar) haqida so'z yuritgan. Bunday kasalliklarni davolashda Samarqandiy har xil dori-darmonlar bilan birga issiqlik muolajasi bilan (masalan, haminomda bug'latish) foydalanishni tavsiya etgan.

O'zbekiston tibbiyoti tarixida Najibuddin Samarqandiy katta iz qoldirdi. U o'zining tibga oid asarlari bilan o'lkamizda tibbiyot ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

O'zbekistonning o'rta asr tibbiyoti haqida so'z borganda bir muhim masalani e'tiborga olish kerak. O'sha davrda yashagan olimlarning ko'pi qomusiy bilimga ega bo'lgan. Ular o'z davrlarida ma'lum bo'lgan deyarli hamma fanlarni, shu jumladan tibbiyotni ham yaxshi bilganlar.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra O'rta asr madrasalarida boshqa fanlar qatorida tibbiyot ilmi ham o'rgatilgan. Binobarin, madrasani tugatgan talabalar tibbiyot ilmi asoslari bilan ham tanish bo'lib chiqqanlar. Ba'zilar esa bu bilimni chuqurroq o'rganib, shu sohada asarlar ham yaratganlar. Masalan, o'sha vaqtdagi mashhur olimlardan

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning tibga oid asarlari ma'lum. Ular amaliy tibbiyot bilan shug'ullangan bo'lmisalar ham, bu fanni yaxshi bilganlar.

Abu Rayhon Beruniy dorivor o'simliklarni chuqur o'rgangan va bu sohadagi o'z bilim va kuzatuvlarini umumlashtirib, «Kitob as-saydana fi-t-tib» (Tibbiyotdan farmokognoziya kitobi) nomli asar yozgan. Kitobda muallif 1000 dan ortiq dorivor moddalarning xususiyatlari, ularni yig'ish va foydalanish yo'llarini ko'rsatib bergan. Bu kitob dorivor moddalar haqidagi bilimni ancha boyitdi.

Abu Nasr Forobiy ham tibbiyotni chuqur o'rgangan va bu bilim haqida ikkita asar yozgan. Ulardan biri «Odam gavdasining tuzilishi», deb atalgan. Kitobda a'zolarning anatomiyasi va funksiyalari ko'rsatib berilgan. Forobiyning ikkinchi kitobi «Nazariy va amaliy tibbiyot» deb atalgan. Bu kitobda muallif salomatlik va kasallik holatlari haqida so'z yuritib, bu holatlar tashqi muhit ta'siriga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

Forobiyning tibbiyot, uning mohiyati va vazifalari haqidagi fikrlari ko'p jihatdan hozirgi zamon ilmiy tibbiyoti xulosalariga mos keladi.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy har tomonlama chuqur bilimli olim, faylasuf va tabiatshunos bo'lgan. Tibbiyotni ham yaxshi bilgan. Olimning tibga oid fikr va mulohazalari uning «Majmu'an-navodir» («Nodir fikrlar to'plami») nomli asarida bayon etilgan. Bu kitob «Chahor maqola» («To'rt maqola»), deb ham yuritiladi. Kitobning to'rtinchi qismi tibbiyotga bag'ishlangan. Bu qism «tibbiyot va tabiblar uchun qo'llanma» deb ataladi.

Aruziy Samarqandiy tibbiyotning mohiyati va vazifalari haqida so'z yuritib, bu fan odamlarning sog'lig'ini saqlash uchun xizmat qilishi kerak, deydi. Ma'lumki, Abu Ali ibn Sino ham shu fikrda edi. Demak, Aruziy bu masalada Ibn Sino bilan hamohang bo'lgan.

Aruziy Samarqandiy tarixda tibbiyot bilimdoni sifatida mashhur bo'lgan.

## **VII b o b . BUYUK TEMURIYLAR DAVRIDAGI TIBBIYOT**

XIV-asrning ikkinchi yarmida hozirgi O'zbekiston hududida markazlashgan yirik Temuriylar davlati vujudga keldi. Bu davlatning asoschisi buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur edi. U ko'p qo'shni mamlakatlarni birlashtirib, Buyuk Temuriylar davlatini barpo etdi. Bu davlat tarkibiga Movarounnahr, Xuroson, Xorazm,

sobiq Oltin O'rda yerlari, Hindiston, Eron, Turkiya kabi mamlakatlar kirardi.

Temuriylar davlati siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlangan edi. Temur mamlakatni, xususan, uning negizi bo'lgan Movarounnahmi yanada obod qilishga katta ahamiyat berdi. Shaharlarda katta qurilishlar olib borildi. Hashamatli saroylar, masjid-madrasalar, karvonsaroylar, yo'llar, sardobalar\*, va hammomlar barpo etildi. Shular qatorida kasalxona va dorixonalar ham qad ko'tardi. Iqtisodiy jihatdan mamlakatda ichki bozor va tashqi savdo keng ko'lamda rivoj topdi. Bunday iqtisodiy va siyosiy yuksalish o'z navbatida madaniy va ma'rifiy rivojlanishni taqozo qildi. Mamlakatda ilm-fan, san'at va adabiyot yuksaldi. Yirik olimlar, faylasuflar, san'at va adabiyot namoyandalari yetishib chiqdilar. Shular qatorida yuksak bilim va tajribaga ega bo'lgan hakimlar ham bor edi. Temuriylar davrida fanning boshqa sohaları qatorida tibbiyot ilmi ham yuksak darajada rivoj topdi. Madrasalarda boshqa dunyoviy fanlar qatorida tibbiyot ilmi ham o'qitila boshladi.

Temur olim va fozillarni qo'llab quvvatlardi. Ularga hurmat bilan qarardi. Ayniqsa hayot uchun foydali fanlarning rivojlanishiga katta ahamiyat berardi. O'sha davr tarixchilarining yozishicha Temur o'zi zabt etgan mamlakatlardan Samarqandga qimmatbaho zebiziyatlar qatorida nodir kitoblarni ham olib kelarkan. Bu haqda S. Fenyutin ismli tarixchi bunday, deb yozgan: «Temur o'zi zabt etgan mamlakatlarda ilm-fanga dahldor bo'lgan narsalarni yo'q qilgan emas, balki ularni ehtiyotkorlik bilan asrab-avaylab, Samarqandga olib kelgan». Sho'rolar davridagi ba'zi tarixni soxtalashtiruvchi «olimlar» Temur o'z yo'lida uchragan hamma narsani vayron qilib, yo'q qilgan, deb yozardilar. Temurning ilm-fanga qanchalik katta ahamiyat berganligi shundan ma'lumki, uning farmoni bilan Samarqand saroyida kitoblar saqlash uchun maxsus bino («Kitob gumbazi») barpo etilgan. Bu «Gumbaz» (kutubxona)da juda ko'p nodir asarlar saqlangan. Bu kitoblar har kimning qo'lga tushib, yo'qolib, yo'q bo'lib ketmasligi uchun Temur maxsus farmon chiqarib, kitoblar faqat shu yerning o'zida o'qilishi kerak, ularni qo'lga berib yuborish mumkin emas, deb ta'kidlab qo'ygan ekan.

«Kitob gumbazi»da ko'p sonli olimlar xizmat qilganlar. Ular qo'lyozmalarni o'rganish va ularga izohlar yozish bilan

\* Karvon yollarida barpo etiladigan usti berk suv ombori, hovuz.



shug'ullanganlar. «Kitob gumbazi» tarixda «Temur akademiyasi» nomi bilan ham ma'lum. Bu «akademiya»da xizmat qilgan olimlar ro'yxatida biz hakimlardan quyidagilarning ismlarini uchratdik: Mavlono Fazlulloh Tabriziy, Mavlono Mansur ibn Muhammad Yusuf, Mavlono Xisomiddin Ibrohim Kermoniy. Ma'lumotlarga ko'ra Mavlono Fazlulloh Tabriziy Temurning shaxsiy tabibi bo'lgan.

Temur mamlakat obodonchiligi va aholi sog'lig'iga alohida ahamiyat bergan. Bu haqda Temurning o'zi yozgan, yoki aytib turib yozdirgan «Temur tuzuklari» («Temur qonun-qoidalari») nomli mashhur kitobida bunday deyilgan: «Men amr etdimki, katta-kichik har bir shahar va qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino etsinlar, faqiru-miskinlarga langarxona\* solsinlar, kasallar uchun shifoxonalar qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar». Temurning buyruq va farmonlari vojib hisoblangan, ular so'zsiz bajarilgan. Bundan kelib chiqadiki, Temur zamonida (XIV-asr) O'zbekiston hududidagi har bir shahar va katta qishloqda kasalxona bo'lgan. Samarqandning o'zida «Dor ush-shifoh», deb ataluvchi katta kasalxona barpo etilgan. Temur unga boshliq qilib, o'sha vaqtlardagi yirik hakimlardan biri bo'lgan Mir Sayid Sharifni tayinlagan ekan. «Dor ush-shifoh»da yana bir ko'zga ko'ringan hakim Mansur ibn Muhammad Yusuf ishlagan. Bu olim «Kitob gumbazi»da saqlanuvchi tibbiy kitoblarning ko'piga sharh tuzgan. O'zi ham tibga oid bir nechta asar yozgan. Bizga bu muallifning «Odam gavdasining tuzilishi», «Mansurning to'liq to'plami» va «G'iyosiya» nomli asarlari ma'lum.

«Odam gavdasining tuzilishi» kirish qism, 4 bob va xotimadan iborat. Kirish qismida odam gavdasining tuzilishi haqida umumiy ma'lumot berilgan. So'ng suyaklar, mushaklar, qon tomirlari va asab tomirlari bayon etilgan.

«Xotima»da ayrim a'zolar haqida so'z yuritiladi. «Mansurning to'liq to'plami»da kishi salomatligini saqlash, kasalliklarning sabablari, bemorga tashxis qo'yish va ularni davolash masalalari bayon etilgan. Turli kasalliklarda ishlatiladigan dorilar ham ko'rsatilgan.

«G'iyosiya» haqida yetari ma'lumot yo'q. Ma'lumotlarga ko'ra bu kitobning bir nushasi Kalkutta shahridagi kutubxonada saqlanar ekan.

Temur «Dor ush-shifoh»da xizmat qilgan hakimlarga yaxshi maosh to'lagan. Uning buyrug'i bilan hakimlarning maoshi

\* Kambag'al yetim yesirlarni ovqat bilan ta'minlaydigan joy, giroatxona.

munajjimlar, tarixchilar va huquqshunoslarning maoshiga tenglashtirilgan. Temur tabiblarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lgan. Ularga hurmat bilan qaragan. Bu haqda Temurning o'zi bunday deb yozgan: «Men olim va tabiblar bilan yaxshi munosabatda bo'ldim. Tabiblarda kasal navkarlarimni davolatdim». Bundan kelib chiqadiki, Temur qo'shinlarida kasallangan va jarohatlangan navkarlarni davolaydigan tabiblar bo'lgan.

Temur aholi o'rtasida har xil ommaviy kasalliklar tarqalmaligiga alohida ahamiyat bergan. Buning uchun shaharlar va aholi yashaydigan boshqa joylarni ozoda saqlash, xalqni toza ichimlik suv bilan ta'minlash choralari amalga oshirgan. Ozodalikka rioya qilmagan va ko'cha-ko'ylarga axlat tashlab, ularni iflos qilgan kishilarni jazolagan. Suvni toza saqlash uchun yopiq tipdagi suv quvurlari qurdirgan. Shaharlararo yo'llarda sardobalar barpo ettirgan. Samarqandda va Toshkent yaqinidagi Shohruhniya shaharlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida bunday inshootlar ko'p topilgan.

Temur vafotidan so'ng ham bir qancha vaqt mamlakatda obodonchilik ishlari davom ettirildi. Bu ish ayniqsa Temurning yuksak iste'dodli nabirasi Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda rivoj topdi. Mamlakatda buyuk quruluşlar olib borildi. Fan va madaniyat yuksaldi, maktab, madrasa va shifoxonalar barpo etildi.

Ulug'bek olim va fozillarni doim qo'llab-quvvatlagan. Ularga saroydan joy berib, yaxshi maosh tayinlagan. Ma'lumki, Ulug'bekning o'zi ham juda o'qimishli kishi bo'lgan. U jahonga buyuk astronom-olim sifatida tanilgan.

Boshqa fanlar sohasida ham chuqur bilimga ega bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Ulug'bek tibbiyot ilmiga ham qiziqqan. Tibbiy kitoblarni qiziqib o'qigan. Mashhur tarixchi V.V. Bartoldning yozishicha, Ulug'bek Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari kitobi»ni juda sinchiklab, o'qib chiqqan. Ulug'bek aholi salomatligini saqlash va kasallarni davolash masalasiga muhim ahamiyat bergan. Shu maqsadda Samarqandda maxsus kasalxona qurdirgan. Unga boshliq qilib, o'sha vaqtlarda mashhur bo'lgan tabiblardan Burxoniddin Nafis ibn Avaz Kermoniyni tayinlagan. Bu Hakim Ulug'bekning shaxsiy tabibi bo'lgan.

Nafis ibn Avaz Ulug'bek madrasasida talabalarga tibbiyot ilmidan dars ham bergan. Demak, madrasada boshqa bilimlar qatorida tibbiyot ilmi ham o'qitilgan.

Nafis ibn Avaz tibbiyotning turli sohalariga oid bir nechta kitob yozgan. Ammo, ularning ko'pi bizgacha yetib kelmagan.

Bizga bu olimning XIII-asrda yashagan mashhur hakim Najibuddin Samarqandiyning «Kasalliklarning sabablari va alomatlari» nomli kitobiga yozgan sharhi ma'lum. Bu sharh 1424 yilda yozilgan bo'lib, u «Kasalliklarning sabablari va alomatlariga sharh» deb atalgan. Muallif bu kitobni Ulugbekka bag'ishlagan va unga taqdim etgan. Nafis Ibn Avaz Najibuddin Samarqandiy kitobining mazmunini bayon etgan va uning qiyin joylarini izohlab bergan. O'sha davrda Samarqandda Tojiddin Hakim ismli mashhur jarroh ham yashagan. U ancha murakkab operatsiyalarni ham bajara olgan. Masalan, ko'z kataraktasini operatsiya yo'li bilan juda muvaffaqiyatli davolagan. Tojiddin Hakimning jarrohlik faoliyatidagi muhim tomonlaridan biri shuki, u operatsiya qilinayotgan joyga tashqaridan yiring paydo qiluvchi ko'zga ko'rinmas mavjudotlar (hozirgi tilda — mikroblar) tushishi mumkinligini bilgan va unga qarshi chora ko'rgan. Masalan, operatsiyada ishlatiladigan ashob qurollarni olovda qizdirib olib, so'ng ulardan foydalangan. Bu hozirgi tilda sterilizatsiya deyiladi. Operatsiya vaqtida esa mayda qilib to'g'rab qo'yilgan piyozga tez-tez qo'llarini botirib turgan. Buni antiseptika deyish mumkin. Ma'lumki, piyozda mikroblarni yo'q qiluvchi fitontsidlar bo'ladi. Shundan ma'lum bo'ladiki, Tojiddin Hakim ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsa ham (u vaqtda mikroskop kashf etilmagan edi) tabiatda zararli mikroblar borligini fikran bilgan. Binobarin Tojiddin Hakimni aseptika va antiseptikaning asoschisi, deb atash mumkin. Ingliz jarrohi Lister esa bu usulni Tojiddin Hakimdan 400 yil keyin ishlab chiqdi. Afsuski, u tibbiyot tarixiga aseptika va antiseptikaning asoschisi sifatida kirib qolgan.

Temuriylar davridagi tibbiyot XV-asrning ikkinchi yarmida juda yuksak darajaga ko'tarildi. Bu davrda mamlakatda Temuriylardan bo'lgan Husayn Boyqaro hukmronlik qilardi. U o'qimishli, bilimdon shoh bo'lgan, har xil fanlarga qiziqqan, olim va fozillarni qo'llab quvvatlagan.

Boyqaroning saroyida xizmat qilgan olimlar orasida hakimlar ham bo'lgan. Shulardan bizga quyidagilar ma'lum: Ne'matullo ibn Fahriddin Kermoniy, Abdulhay Ziyoratgohiy, Muhammad Husayn ibn Mirqivomiddin. Ne'matullo ibn Fahriddin Kermoniy o'z davrining ko'zga ko'ringan hakimlaridan bo'lgan. U Kermon shahrida tavallud topgan va o'sha yerda o'qib, tabiblik kasbini egallagan. Hakim Kermoniy Husayn Boyqaroning taklifiga binoan Hirotga ko'chib kelib, bu yerda saroy tabibi vazifasida xizmat qilgan.

Kermoniy olim, faylasuf va hakim bo'lgan. Badiiy adabiyotga ham qiziqqan va «Hakimiy» taxallusi bilan she'rlar yozgan. Ammo asosiy kasbi tabiblik edi.

Bizga Hakim Kermoniyning tibga oid «Bahr al-havvos» («Hosiyatlar dengizi») nomli asari ma'lum. Kitob kirish qismi, 3 bob va xulosadan iborat. Kirish qismida har xil o'simlik va minerallardan olinadigan dorilar, foydali hayvonlar va qushlar haqida ma'lumot berilgan. Dorilarning nomi 3 tilda (arab, fors va turkiy tilda) bayon etilgan.

Kitobning birinchi bobida sodda dorilar, ularning xossalari va ishlatish usullari ko'rsatilgan. Ikkinchi bob murakkab dorilarga bag'ishlangan. Bunda murakkab dorilarni tayyorlash, saqlash va ishlatish usullari ko'rsatilgan. Uchinchi bobda muallif qaysi dori qanday kasallikda qo'llanishini tushuntirgan. Shu bobda har xil ovqat mahsulotlaridan dori sifatida foydalanish haqida ham so'z yuritiladi. Xususan, qanday kasallikda qanday taomni iste'mol qilish kerakligi ko'rsatilgan. Kitobning xulosasida tibbiy atamalar haqida ma'lumot berilgan.

Abdulhay Ziyoratgohiy va Muhammad Husayn haqida yetarli ma'lumot mavjud emas.

Ma'lumki, Husayn Boyqaroning bosh vaziri buyuk mutafakkir olim va shoir Alisher Navoiy edi. U ko'p jihatdan tibbiyotga yaqin kishi bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Navoiy tabiblik kasbi bilan shug'ullangan bo'lmasa ham tibbiy bilimdan yaxshi xabardor bo'lgan. U Samarqandda mashhur olim Fazlulloh Abulaysiy rahbarlik qilgan madrasada tahsil olgan. Fazlulloh Abulaysiy (Abu Lays) tibbiy bilimni ham yaxshi bilgan. U Navoiyning ustozini hisoblanadi. Binobarin, Abulaysiy Navoiyga boshqa fanlar qatorida tibbiyotdan ham ta'lim bergan bo'lishi mumkin.

Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'sha davrda madrasalarda tibbiyot ilmi ham o'qitilgan. Abulaysiy o'zi tibbiyot bilimdoni bo'lgani uchun u rahbarlik qilgan madrasada tibbiy bilim o'qitilishi tabiiydir. Demak, Navoiy madrasani tugatganida tibbiyot fanidan ham bilimga ega bo'lib chiqqan. Tarixiy dalillar shuni ko'rsatadiki, Navoiy tibbiyotni juda qunt bilan o'rgangan va bu sohada o'zining mulohaza va fikrlariga ega bo'lgan. Navoiy tibbiyot va sog'liqni saqlash masalalari haqida juda to'g'ri fikr yuritgan. Navoiyning bu masalaga oid fikrlari uning mashhur «Mahub ul-qulub» («Sevgili qalblar») nomli asarida bayon etilgan. Bu kitobda Navoiy tibbiyot va tabiblar masalasiga maxsus (15-bob) bag'ishlagan.

Kitobda Navoiy inson salomatligi va tabiblar haqida soʻz yuritib, dastlab tabibning oʻzi qanday fazilatlariga ega boʻlishi lozim, degan masalaga toʻxtaladi. Navoiyning taʼkidlashicha tabibda birinchi galdan bu kasbga qobiliyat va intilish boʻlishi kerak. U oʻz kasbini aʼlo darajada egallagan boʻlishi zarur. Bundan tashqari tabibda kishilarga nisbatan jonkuyarlik, mehribonlik va samimiylik boʻlishi lozim. Tabib muloyim soʻz, ochiq koʻngil va kamtarin boʻlmogʻi darkor. Bundan koʻrinib turibdiki, Navoiy tabiblar oldiga juda masʼuliyatli talablar qoʻygan. Navoiyning taʼkidlashicha kishilar tabiblarga oʻzlarining eng bebaho boyliklarini, yaʼni hayotlarini ishonib topshiradilar. Tabiblar bu ishonchga loyiq boʻlishlari lozim. Yana Navoiy taʼkidlaydiki, tabibning eng yuksak vazifasi bemorni xastalik azoblaridan qutqarishdir. Buning uchun tabib yetarli bilim va tajribaga ega boʻlishi shart.

Alisher Navoiy har bir tabib uchun juda zarur boʻlgan xislatlardan shirinsoʻzlik va xushmuomalalikni alohida taʼkidlagan. Navoiyning uqdirishicha, shirinsoʻzlik va xushmuomalalik bemorga madad bagʻishlab, unda kasallikdan qutilish umidini oshiradi. Bu esa juda yaxshi davodir. Navoiy oʻzi tabib boʻlmasa ham, tabiblar faoliyatidagi bu nozik tomonni yaxshi tushungan. Bu haqda Navoiyning oʻzi bunday deb yozgan: «Xushmuomala va mehribon tabibning yuzi xastalar koʻngliga sevimlidir, soʻzi esa bemorlar joniga yoqimlidir. Uning har bir nafasi bemorlarga davodir». Demak, Navoiy bemorni faqat dori bilan davolab boʻlmasligini, uni muvaffaqiyatli davolash uchun xastaning ruhiga ham taʼsir qilish kerakligini bilgan. Navoiyning taʼkidlashicha bemorga har xil dori berilaversa-yu, lekin uning koʻngliga (ruhiga) salbiy taʼsir etilsa, u tuzalmaydi. Bu haqda Navoiy bunday, deb yozgan: «Tabib agar oʻz kasbiga mohir boʻlsa-yu, ammo oʻzi badfeʼl, qoʻpol soʻz boʻlsa, bemorni har qancha muolaja qilganda ham baribir uning ahvolidan ijobiy oʻzgarish paydo qilolmaydi. Afsuski, bunday tabiblar oz emas.»\* Tibbiyot ilmini yaxshi oʻzlashtirib olmagan, tajribasiz tabiblarni Navoiy jallodga oʻxshatadi. Bu haqda u bunday, deb yozgan: «Tabobat ilmini yaxshi bilmaydigan tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir. U tigʻ bilan oʻldirsa, bu zahar bilan azoblaydi, shubhasiz jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir, zero u gunohkorni qatl etadi. Bu esa begunohlarni halok qiladi. Hech bir gunohkor jallod qoʻlida

\* Alisher Navoiy, «Mahbub ul-qulub» «Fan» 1983y. 25 bet.

xor bo'lmasin, hech bir begunoh kasalmand bunday tabibga zor bo'lmasin».\*

Navoiy tabiblar haqidagi o'z fikr-mulohazalarini umumlash- tirib, bunday bayt aytgan:

Tabibi hoziq xushgo'y tan ranjig'a shifodur,

Omiyu .. tundu, badxo'y el jonig'a balodur

Mazmuni:

Shirin so'zli, mohir tabib tan xastasiga shifodur, Badfe'l, qo'pol va nodon tabib el joniga balodur.

Navoiyning «Mahbub ul-qulub»dan boshqa asarlarida ham tibbiyot, salomatlik va tabiblar haqida ko'p baytlar aytilgan.

Alisher Navoiy mamlakatda tibbiyot ilmi va sog'liqni saqlash ishlarining rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan. Chunonchi, tibbiy muassasalar barpo etish, tibbiy maktablar ochish, tibbiyot sohasida chuqur bilimli mutaxassislar yetishtirish ishlariga rahbarlik qilgan. Masalan, 1480-1482 yillarda Navoiyning rahbarligi ostida Hirot shahrida maxsus tibbiy majmua ( tibbiy kompleks) barpo etilgan. Bu majmua «Shifohiya» nomli kasalxona, «Ixlosiya» nomli madrasa va «Safohiya» nomli hammomdan iborat bo'lgan. «Shifohiya» qoshida tibbiy maktab ham ochilgan. Bu tibbiy majmua haqida mashhur tarixchi Xondamir (G'iyosiddin ibn Humomiddin) bunday ma'lumot bergan: «Bu binolar shahar chekkasida, Injil kanali bo'yidagi ko'rkam va bag'oyat bahavo joyda qurilgan. Jomiy madrasasining janub tomonida bag'oyat latofat va nazokat bilan «Shifohiya» qurilgan. Bu yerda Xizirmaqom hakimlar hamda Iso. damlik tabiblar doimo g'ariblar va bemorlarni muolaja qilish bilan mashg'uldirlar».\*\*

«Shifohiya»ga o'sha davrning mashhur hakimlaridan bo'lgan G'iyosiddin Muhammad (Mavloni G'iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin) rahbarlik qilgan va shu kasalxona qoshidagi tibbiy maktabda talabalarga tib ilmidan dars bergan. G'iyosiddin Muhammad ko'p qirrali olim bo'lgan. U tibbiyotdan tashqari boshqa bilimlar bilan ham shug'ullangan. Badiiy adabiyotga ham qiziqqan. Alisher Navoiy bu olimning bilimi va amaliy tabiblik faoliyatiga yuksak baho bergan. G'iyosiddin Muhammad haqida Xondamir bunday, deb yozgan: «Olimning chehrasi turli ilm va

\* Alisher Navoiy, «Mahbub ul-qulub» •Fan» 1983y. 26 bet.

\*\* Xondamir Xulosat ul-axbor, O'FAN sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondi, inv. №5366, 543-bet.

fazilatli fanlar bilan bezatilgan. Ayniqsa sharofatli tib ilmida zo'r mahorat hosil qilgan. Ko'p vaqt bo'ldiki, Navoiy hazratlarining «Dorush-shifoh»ida amaliy tib kitoblaridan dars berish va bemorlarni davolash bilan mashg'uldir.»\*

Tibbiy majmuada hammomning bo'lishi bejiz emas. Hammom faqat kishilar yuvinadigan joygina emas, shu bilan birga salomatlikni mustahkamlash omili deb ham hisoblangan. Hammomda ba'zi muolaja usullari ham amalga oshirilgan. Masalan, qo'l, oyoq, bo'g'imlarida paydo bo'lgan shish va og'riqlarni (artrit, artrozlar) hammomda parlatib, so'ng har xil dorilar surtib davolaganlar. Hammomlarda maxsus uqalovchilar (masajistlar) xizmat qilganlar Hirotdagi Shahristonda maxsus kasalxonona ham bo'lgan. Bu kasalxonada asosan saroy amaldorlari davolanganlar. Kasalxonaga o'sha davrdagi taniqli hakimlardan biri Darvesh Ali ismli hakim boshchilik qilgan. Bu olim chuqur bilim va katta tajribaga ega bo'lgan. O'sha zamon tarixchilarining yozishlaricha Darvesh Ali xushfe'l, kamtarin va juda bilimdon hakim bo'lgan. U tibbiyotdan tashqari boshqa bilimlar bilan ham shug'ullangan. She'rlar ham yozgan. Masalan, o'zining ba'zi tibbiy asarlarini nazm bilan bayon etgan. Lekin, Darvesh Ali o'zini shoir emas, hakim, deb hisoblagan. Bu kasbni mukammal bilgan. Kasallarga tashxis qo'yish va davolash usullarini takomillashtirgan.

Darvesh Ali tibbiy maktabda dars ham bergan. Olim tibbiyot ilmining nazariy va amaliy masalalariga oid bir nechta asar yozgan. Lekin, ular bizgacha yetib kelmagan.

Hirotdagi tibbiy majmuada ishlash uchun chuqur bilimli va yaxshi tajribali hakimlar tanlab olingan. Boshqa shaharlardan ham hakimlar taklif etilgan. Ular bemorlarni davolash bilan birga, shu yerdagi tibbiy maktabda talabalarga dars ham berganlar.

O'sha vaqtda Husayn Boyqaroning qo'li ostidagi boshqa shaharlarda ham shifoxonalar, kasalxonalar va boshqa tibbiy maskanlar bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra o'sha davrda shaharlarda mustaqil dorixonalar ham bo'lgan. Shunday dorixonalardan biri haqida Navoiy bunday ma'lumot bergan: «Hirotda Hoji Ali ibn Kermoniy ismli dorishunos yashaydi. Uning dorixonasi bor. U o'z kasbiga juda mas'uliyatlik bilan qaraydi. Dorilarni mohirlik bilan tayyorlaydi.»

---

\* Xondamir, Xulosat ul-axbor, O'z FA Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma fondi. inu. № 5366, 544-bet.

Alisher Navoiy davrida, uning sa'iy harakati bilan mamlakatda tibbiyot ilmi yuksak darajaga ko'tarildi. Bu sohada yirik olimlar, o'tkir tajribali hakimlar paydo bo'ldi. Ular tibbiyotning har sohalariga oid yirik asarlar yaratdilar.

Shaharlarda ko'plab shifoxonalar, kasalxonalar va tibbiy maktablar barpo qilindi. Ularda yuksak malakali hakimlar yetishtirildi. Shularning hammasiga Navoiy bosh-qosh bo'lgan edi.

Shunday qilib, Temuriylar davrida mamlakatdagi umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham yaxshi rivoj topgan edi.

## **VIII-bob. O'ZBEK XONLIKLARI DAVRIDAGI**

### **TIBBIYOT**

#### **Shayboniylar davri**

XV-asr oxiriga kelib, Temuriylar sulolasi zaiflashib qoldi. Toj-taxt uchun to'xtovsiz kurashlar natijasida mamlakat siyosiy va iqtisodiy jihatdan izdan chiqdi. Temuriylar davlati parchalanib ketdi. 1506 yilda oxirgi Temuriylardan biri bo'lgan Husayn Boyqaro vafot etdi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z kishilari bilan Hindistonga o'tib ketdi. Mamlakatda parokandalik va tushkunlik hukm sura boshladi.

Bundan foydalanib, Movarounnahmi Idil (Volga) bo'ylaridan kelgan Shayboniyxon qo'shinlari osongina zabt etdilar. Shayboniyxonning odamlari o'zlarini «biz o'zbeklarmiz», derdilar. Ular bu yerdagi o'zbeklar (turkiy xalqlar) bilan birlashib ketib, «O'zbek xonligi», deb ataluvchi yangi davlat barpo etdilar. Shayboniyxon Samarqandni o'z davlatining poytaxti, deb e'lon qildi. Buxoro yerlariga hukmdor qilib, ukasi Mahmud Sultonni tayinladi. Toshkent va Sirdaryo atrofidagi yerlarni qarindoshlari Ko'chkinchi Sulton va Suyunchixonga topshirdi.

Shayboniy Movarounnahrda mahkam oyoqqa turib olganidan so'ng Xurosonga yurish qilib, bu mamlakatni ham zabt etdi. Xurosonga o'g'li Temur Sultonni hukmdor qilib tayinladi. Shunday qilib, Shayboniylar sulolasi paydo bo'ldi.

Shayboniyxon yoshligida Buxorodagi bir madrasada tahsil olgan, ancha bilimli kishi bo'lgan. U o'sha vaqtda madrasalarda o'qitiladigan bilimlardan xabardor edi. Shayboniy o'z faoliyatida Buxoroda orttirgan bilimlaridan foydalandi.

Shayboniyxon Temuriylar shon-shuhrati darajasiga ko'tarilish uchun mamlakatda ko'p qurilish ishlari olib bordi. Masalan, 1502



yilda Zarafshon daryosi ustiga katta ko'prik qurdirdi. Yangi suv inshootlarini barpo ettirdi. Savdo-sotiq yo'llarida karvonsaroylar, sardobalar, hammomlar qurdirdi. Shaharlarda masjid- madrasalar, xonaqohlar bunyod qildirdi. Shular qatorida, kasalxonalar, dorixonalar va tibbiy maktablar ham bor edi. Masalan, o'sha vaqtda Toshkentning Chorbog' dahasida harbiylar uchun mahsus kasalxona qurilgan edi.

Shayboniyxon mamlakatda har xil fanlarning rivojlanishiga ham ahamiyat berdi. Masalan, u o'z saroyida katta kutubxona qurdirgan edi. Unda olim va fozillar kitoblarga sharh yozish, ularni tarjima qilish ishlari bilan shug'ullanardilar. Husniyat mutaxassislari kitoblarni bezash, ularni ko'paytirish ishlari bilan mashg'ul bo'lardilar. Olimlar muhim asarlar ham yaratdilar.

Shayboniylar davrida ba'zi chet el mamlakatlari bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalar ham olib borildi. Masalan, Buxoro xonligi Rusiya davlati bilan diplomatik aloqa bog'lagan edi. 1556 yilda Buxoroda rus podshohi Ivan IV (Grozni) ning vakili Antoni Jenkinson kelib, shu yerda bir qancha vaqt yashadi. U mamlakat hayoti bilan tanishib, bir kitob («Esdaliklar») ham yozgan. Jenkinson o'z esdaliklarida Buxoro aholisining hayoti, iqtisodiyoti, davlat tizimi, mamlakatning tabiiy boyliklari haqida batafsil ma'lumot bergan. Jenkinson Yovropaliklardan birinchi bo'lib, O'zbekiston hududida tarqalgan kasalliklar haqida ham ma'lumot bergan. Xususan, u o'sha vaqtda Buxoroda ko'p tarqalgan rishta kasalligi, bezgak, yomon jarhat kasalliklarini ko'rsatgan. Yovropa tibbiyoti rishta haqidagi ma'lumotni shu jenkinsonning «Esdaliklar» idan olgan edilar.

Shayboniylar davrida yashagan hakimlardan Shayx Ali ibn Sulaymon, Sulton Ali Xurosoniy, Ubaydullo ibn Yusuf Ali al-Kahhol, Mulla Muhammad ibn Yusuf Kahhol ayniqsa mashhur bo'lganlar.

Shayx Ali ibn Sulaymon Toshkentda tavallud topgan. Tug'ilgan yili va vafoti ma'lum emas. Dastlab Toshkent madrasalaridan birida tahsil olgan. So'ng tibbiyot fanini o'rganib, yaxshi kahhol, ya'ni ko'z kasalliklari bo'yicha mutahassis bo'lib yetishgan. Shu bilan birga badiiy adabiyotga ham qiziqqan, yaxshigina she'rlar yozgan. Olim o'zining ko'z kasalliklarga bag'ishlangan asarini ham she'r bilan bayon etgan.

Kitobning nomi «Ko'z kasalliklari haqida she'riy risola», deb ataladi. Kitobda ko'zning tuzilishi, uning ko'rish xususiyati,

kasalliklari va ularni davolash usullari bayon etilgan. Ko'z kasalliklarini davolashda ishlatiladigan dorilar ham ko'rsatilgan.

• Sulton Ali Xurosoniy ichki kasalliklar sohasida mutaxassis bo'lgan. Tug'ilgan yili va vafoti ma'lum emas. O'zi Xurosonlik bo'lgan. Tibbiyot bilimini o'rganib yaxshi tabib bo'lib yetishgan. Bu hakimni o'sha vaqtdagi Samarqand hokimi Ko'chgunchixon o'z saroyiga chaqirib, uni saroy tabibi etib tayinlagan.

Sulton Ali Xurosoniy chuqur bilimli va tajribali hakim bo'lgan. U tib ilmining muhim masalarini o'z ichiga olgan «Davolash dasturi» nomli kitobning muallifidir. Kitob 1527 yilda yozilgan. Unda amaliy tibbiyotning muhim masalari, salomatlikni saqlash qoidalari, kasallikning oldini olish, bemorga tashxis qo'yish va uni davolash usullari bayon etilgan. Kasallarni davolashda har xil dori-darmonlardan tashqari bemorning ruhiy- emotsional holatiga ta'sir etish usulini ham qo'llagan. (Bu hozirgi tilda psixoterapiya, deb ataladi) Xurosoniyning, bu kitobidan tabiblar o'z faoliyatlarida keng foydalanganlar.

Ubaydullo ibn Yusuf Ali al-Kahhol. Bu hakim ham o'z davrining ko'zga ko'ringan tabiblaridan biri bo'lgan. U ko'z kasalliklari sohasida mutahassis hisoblansa ham boshqa kasalliklarni ham bilgan. Bu haqda u kitob ham yozgan. Xususan, uning ichki kasalliklarga bag'ishlagan «Bemorlar muolajasi» nomli kitobi bor. Bu kitobda olim odam a'zolarining kasalliklari va ularni davolash usullarini bayon etgan. Kitob muqaddima va ikki qismdan iborat. Kitobning muqaddimasida muallif tib ilmi, uning vazifasi va halq salomatligini saqlashdagi o'rni haqida fikr yuritadi. Tabibning vazifasi va mas'uliyatini ham ta'kidlaydi. Muallifning ta'kidlashicha tabibning vazifasi eng avvalo odamlar sog'lig'ini saqlashdan iborat. Kasalga to'g'ri tashxis qo'yish va muvaffaqiyatli davolash ham tabibning asosiy vazifalaridan biridir, deb ta'kidlaydi. Kitobning birinchi qismida har bir a'zoning o'ziga xos kasalligi va ularning belgilari ko'rsatilgan. Birinchi qism 18 bo'lim va xulosadan iborat. Har bir bo'lim amaliy tibbiyotning ayrim masalalariga bag'ishlangan. Xususan, unda ayrim a'zolarining tuzilishi, vazifalari, ularda uchraydigan kasalliklar va ularni davolash usullari bayon etilgan. Dastlab bosh miya, unda uchraydigan kasalliklar, ularning alomatlari, tashxis qo'yish va davolash choralari ko'rsatilgan. Bu yerda muallif ruhiy kasalliklar haqida ham ma'lumot bergan. So'ng Ubaydullo Kahhol ko'z, quloq, tomoq, burun, havo tashuvchi

yo'llar (traxeya, bronxlar) kasalliklari, keyin yurak, qizilo'ngach, oshqozon, ichaklar, jigar, siydik qopchasi, erkak va ayol jinsiy a'zolari, teri kasalliklari, tashxis qo'yish va davolash usullarini ko'rsatgan. Kitobda ziynat (kosmetika) va toksikologiyaga alohida o'rin berilgan. Kitobning bir bo'limi (17-bo'lim) bolalar kasalliklariga bag'ishlangan. Xususan, bu bo'limda bolalik davrining gigiyenasi, bolani to'g'ri tarbiya qilish, bolalarda uchraydigan kasalliklar, ularni aniqlash va davolash usullari ko'rsatilgan.

Birinchi qismining 18-bo'limi umumiy kasalliklarga bag'ishlangan. Xususan, bu yerda isitmali kasalliklar, ularni aniqlash, tekshirish, tashxis qo'yish va davolash usullari ko'rsatilgan. So'ng isitmali kasalliklarning oqibati, krizlar (bemorning holatida ro'y beradigan keskin o'zgarishlar), o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan sabablar haqida so'z yuritilgan.

«Bemorlar muolajasi» kitobining ikkinchi qismi dorilar haqida. Xususan, unda murakkab dorilar bayon etilgan. Bunday dorilarni tayyorlash, saqlash va ishlatish qoidalari ko'rsatilgan.

Ubaydullo Kahholning kitobi tibbiyot tarixida muhim o'rin tutdi. U tabiblar o'rtasida uzoq vaqt qo'llanma sifatida foydalanildi.

Mulla Muhammad Yusuf Kahhol ham o'sha davrning ko'zga ko'ringan hakimlaridan biri bo'lgan. Bu hakim o'sha vaqtdagi Samarqand hukmdori Abdullatifxonning shaxsiy tabibi edi.

Mulla Muhammad tabib ko'z kasalliklari sohasida yaxshi mutaxassis bo'lgan. Bu sohaga oid «Zubdat ul-kahholin» («Kahholikning mohiyati») nomli asar ham yozgan. Bu asarda ko'z kasalliklarining belgilariga qarab, ularga tashxis qo'yish va davolash usullari bayon etilgan. «Zubdat ul-kahholin» tabiblar uchun yaxshi qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Mulla Muhammad tabib ko'z kasalliklaridan tashqari umumiy kasalliklar bilan ham shug'ullangan. Masalan, uning isitmali kasalliklarga bag'ishlangan «Tahqiq ul-hummiyot» («Isitmalmi aniqlash») nomli hamda bemor tomirini tekshirishga bag'ishlangan «Risola tahqiqi nabz va tafsir» («Tomir urishini tekshirish») nomli asarlari ma'lum.

O'sha vaqtda hozirgi O'zbekiston hududida yuqorida nomlari keltirilgan tabiblardan boshqa tajribali tabiblar ham yashaganlar. Lekin ular haqida qolimizda yetarli ma'lumot yo'q.

Shayboniylar davridagi tibbiyot Temuriylar davridagi tibbiyot darajasiga ko'tarilmagan bo'lsa ham, har holda ancha rivojlangan edi. Mamlakatda ko'pgina tajribali hakimlar yashaganlar. Ular

tibbiyotning ayrim sohalariga oid asarlar ham yaratganlar. Bu asarlar tibbiyotimizning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

### Ashtarxoniylar davri

Shayboniylar davlati XVI-asr oxiriga kelib, o'zaro nizolar va toj-taxt uchun kurashlar natijasida zaiflashib qoldi. Ayrim o'lkalarning hokimlari Markaziy hokimiyatning bunday zaifligidan foydalanib, mustaqil siyosat olib borishga urina boshladilar. Shayboniylar xonadonining oxirgi namoyandalaridan biri Abdulmo'min Murkaziy hokimiyatni mustahkamlashga urindi, lekin uni amalga oshira olmadi. 1599 yilda uni qatl etdilar. Uning o'rniga Movarounnahrning hokimi qilib boshqa o'zbek qabilasi - ashtarxoniylardan bo'lgan Boqi Muhammad saylandi. Shunday qilib, ashtarxoniylar sulolasi barpo topdi.

Ashtarxoniylar davrida mamlakatda unchalik katta o'zgarishlar bo'lmadi. Ammo zarurat tufayli tibbiyot sohasida bir oz siljish amalga oshdi. Ayrim shaharlarda kasalxonalar barpo etildi. Madrasalarda tib ilmi ham o'qitildi. 1682-yilda Buxoroda maxsus saroy kasalxonasi barpo etildi. Uni «Buq'ai dor ush-shifoh» («Davo maskani») deb atadilar. Bu «Davo maskani»ning barpo etilishi o'sha vaqtdagi Buxoro hukmdori Subxonqulixon nomi bilan bog'liq. «Davo maskani uning farmoni bilan qurilgan edi.

Subxonqulixon (Sayyidmuhammad Subxonquli ibn Sayyidnodir Muhammadxon) ilm-fanning ko'p sohalaridan xabardor, bilimdin shoh bo'lgan. U ayniqsa tib ilmini yaxshi o'zlashtirib olgan o'qimishli kishi edi.

«Dor ush-shifo» o'sha zamon me'morchiligi asosida ko'rkam qilib qurilgan ikki qavatli bino bo'lgan. Har bir qavat to'qqiztadan hujra (palata) va yordamchi xonalardan iborat edi. Kasalxona qoshida bemorlar qatnab davolanadigan kichik shifoxona (hozirgi tilda - ambulatoriya) bo'lgan. «Dor ush-shifo» bilan bir vaqtda tibbiy maktab ham barpo etilgan. Bulardan tashqari kasalxona majmuasi tarkibiga dorixona va kutubxona ham kirgan. Kasalxonaga o'z kasbining bilimdoni bo'lgan, tajribali tabib Mirqosim Hakim boshchilik qilgan. «Dor ush-shifo» tibbiy maktabning o'quv bazasi bo'lgan.

«Davo maskani» majmuasi (kasalxona, shifoxona, dorixona, tibbiy maktab va kutubxona) vaqf yerlardan olinadigan daromad hisobidan mablag' bilan ta'min etib turilgan. Shu hisobdan tibbiy

maktabda o'quvchi talabalarga nafaqa (sti pendiya) ham to'langan.

Tibbiy maktabning kutubxonasi kitobga juda boy bo'lgan. Unda Ibn Sinonig «Qonun»idan tortib, deyarli hamma mashhur hakimlarning asarlari saqlangan. Subxonqulixonning maxsus farmoni bilan kutubxonada to'plangan kitoblar o'rganilib, ularning ko'piga sharh yozilgan. Talabalar uchun keraklilari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Dorixonada asosan kasalxonada yotib davolanayotgan bemorlar uchun dori tayyorlab berilgan. Unda ikki kishi - dorixonona mudiri va uning yordamchisi ishlagan. Dorilar kasalxonada xizmat qiluvchi tabiblarning retsepti bo'yicha tayyorlangan.

Subxonqulixonning tibbiyot sohasidagi xizmati faqat «Davo maskani» majmuasini barpo etish bo'lmay, shu bilan birga butun mamlakatda tibbiyot ilmini rivojlantirishdan iborat bo'lgan. U xalqni sog'lomlashtirish, kasalliklarni kamaytirish, yuqumli kasalliklarning oldini olish masalalari bilan shug'ullangan. Masalan, Subxonqulixon yozgi ich ketish kasalliklarini kamaytirish usulini ishlab chiqqan va uni amalga oshirgan. Xon maxsus farmon chiqarib, Buxoro amirligiga qarashli hamma hududlarda yoz faslida barcha novvoylarga yopiladigan non yuziga kunjut sepishni buyurgan. Bu tadbir haqiqatan yozgi ich ketish kasalliklarini kamaytirgan. Kunjut ichni to'xtatuvchi xususiyatga ega, o'zi esa xushbo'ydir. Shuning uchun novvoylar ham, aholi ham bu farmonni mamnuniyat bilan qabul qilganlar. Xon farmoni bilan boshlangan bu tadbir keyinchalik odat bo'lib qolgan. Hozir ham mahalliy novvoylar nonlarning yuziga kunjut sepib yopadilar.

Subxonqulixon haqiqatan tibbiyot ilmini yaxshi bilgan. U mazkur sohaga oid asarlar ham yaratgan. Masalan, o'zbek (turkiy) tilda «Tibbi Subxoniy» nomli kitob yozgan. Bu kitobning barpo etilishi haqida Subxonqulixonning o'zi bunday, deb yozgan: «Bizdan oldingi hakimlar arab va fors tillarida yozilgan asarlar qoldirganlar. Bizning kishilarimiz bu asarlardan foydalana olmaydilar. Shuning uchun men bu kitobni turkiy (o'zbek) tilida yozdim, toki bizning xalqimiz undan foydalana olsinlar». Haqiqatan o'sha vaqtda tib sohasida o'zbek tilida yozilgan asar deyarli yo'q edi. Subxonqulixon birinchilardan bo'lib o'zbek tilida tibbiy asar yaratdi.

«Tibbi Subxoniy» kirish qism va 8 bobdan iborat. Har bir bob o'z navbatida to'rttadan qismga bo'lingan. Kitob asosan har xil kasalliklarni aniqlash (tashxis qo'yish) va ularni davolash haqidadir.

Bu kitob o'sha vaqtda nemis tiliga tarjima qilinib, Yevropa mamlakatlariga ham tarqalgan ekan. Demak, mazkur kitob bilan Yevropa hakimlari ham tanish bo'lganlar.

Subxonqulixon o'z kitobinig kirish qismida «Men bu kitobni yozishda boshqa mualliflarning asarlarini o'rganishdan tashqari o'z tajribamga asoslanganman», deb yozgan. Demak, Subxonqulixon amaliy tibbiyot bilan ham shug'ullangan. O'sha zamon tarixchilarining yozishicha Subxonqulixon o'zi barpo etgan «Davo maskani»ga tez-tez kelib turar va bu yerdagi kasallarni ko'rib, tashxis qo'yib, davo tadbirlarini tayinlar ekan.

Subxonqulixon olimlar, shoirlar va hakimlarni tez-tez o'z saroyiga yig'ib, fanning har xil sohalari bo'yicha suhbatlar va munozaralar o'tkazib turarkan. Har xil ilmiy kitoblar, ularning ahamiyati belgilanib, keraklilari tarjima qilish uchun mutaxassis olimlarga topshirilgan. Bunday kitoblarning ko'pchiligini tibbiy asarlar tashkil etgan. Shunday qilib, Subxonqulixon davrida, uning shaxsan tashabbusi hilan tibga oid ko'p kitoblar arab, fors tillaridan turkiy tilga tarjima qilindi va original asarlar ham yaratildi. Umumam Subxonqulixon hukmronlik qilgan davrda (XVIII- asr) O'zbekiston hududida tibbiyot ilmi ancha yuksak darajaga ko'tarildi.

O'zbekiston tarixida tibbiy bilimni yaxshi egallagan yana bir davlat boshlig'i bo'lgan. Bu Xorazim xoni Abulg'ozixonidir.

Abulg'ozixon (Abulg'ozii ibn Arabmuhammadxon Xorazmiy) juda bilimdon va mahoratli davlat arbobi bo'lgan. U davlat ishlari bilan bir qatorda turli bilimlar bilan ham shug'ullangan. Xususan, tarix, riyoziyot, badiiy adabiyotga qiziqqan. Tibbiyot ilmini ham qunt bilan o'rgangan.

Abulg'ozixon fanning ayrim sohalariga oid asarlar ham yaratgan. Masalan, uning tarixga oid asari ma'lum. Xususan, u Xorazm davlatining tarixini kitob qilgan. Bizga Abulg'oziyning tibga oid asari ayniqsa muhim. Bu sohada uning «Manofi' al- inson» («Insonlar uchun foydalar») nomli kitobi ma'lum. Bu kitob o'zbek (turkiy) tilda yozilgan dastlabki asarlardan biridir.

«Manofi' al-inson» 4 qismdan iborat. Birinchi qismda oddiy (yakka) dorilar, ularni tayyorlash, saqlash, ishlatish usullari ko'rsatilgan. Ikkinchi qism murakkab dorilarga bag'ishlangan. Bu qismda murakkab dorilarni tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalari bayon etilgan. Uchinchi qismda umuman dorivor moddalar haqida ma'lumot berilgan. To'rtinchi qismda muallif tib

ilmining nazariy va amaliy masalalari haqida o'z fikr va mulohazalarini bayon etgan. Boshqa hakimlarning fikrlarini ham keltirgan.

Abulg'ozixon amaliy tibbiyot bilan ko'p shug'ullangan bo'lmasa ham, o'lkamizda tibbiyot ilmining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan.

## **IX b o b . SO'NGGI O'ZBEK XONLIKLARI DAVRIDAGI TIBBIYOT**

XVII-asrning oxirida ashtarxoniylar davlati inqirozga yo'l tutdi. Ashtarxoniylar davlatiga kirgan ko'p mamlakatlar asta-sekin undan ajralib chiqib boshladilar.

Xorazim va Samarqand hokimlari o'zlarini mustaqil, deb e'lon qildilar. 1710 yilda Farg'ona hududida mustaqil xonlik vujudga keldi. Bu yangi davlatning hukmdori etib o'zbeklarning ming, deb ataluvchi qabilasidan bo'lgan Shohruhbiy saylandi. Mamlakatning poytaxti deb Qo'qon shahri e'lon qilindi. Bu shahar Xo'qand, deb ataluvchi qishloq asosida barpo etilgan edi.

1753- yilda Buxoro o'zbeklarning mang'it qabilasidan bo'lgan Muhammad Rahim qo'liga o'tdi. U o'zini Buxoro amiri deb e'lon qildi. Shunday qilib, ashtarxoniylar sulolasi tugadi. Mamlakat alohida xonliklar va amirliklarga bo'linib ketdi. Xonlar va amirlar aysh-ishrat va kayf-safoga berilib ketib, xalqni unutib qo'ydilar. Mamlakat obodonchiligi va xalq farovonligini o'ylamadilar. Buning natijasida iqtisodiy hayot izidan chiqdi. Ma'naviyat sohasida ham tushkunlik hukm surdi. Madrasalarda dunyoviy bilimlar o'qitilmay qo'ydi. Shifoxona, kasalxona, dorixona va tibbiy maktablar yo'q bo'lib ketdi. Tibbiyot sohasida yangi asarlar yaratilmadi. Faqat bitta-ikkita o'qimishli tabiblar eski tibbiy kitoblarga sharh yozish va ularni tarjima qilish bilan shug'ullanardilar, xolos.

XVIII-asrning o'rtalariga kelib, hozirgi Markaziy Osiyo yerlari uchta mustaqil o'zbek davlati - Xiva va Qo'qon xonliklari hamda Buxoro amirligi o'rtasida bo'lib olingan edi. Bu xonliklarda aholining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil etardilar. Ayrim shahar va qishloqlarda tojiklar yashardilar. Xiva xonligi va Buxoro amirligining g'arbiy va janubiy tumanlarida turkmanlar yashardilar. Qo'qon xonligining shimolida qozoqlar va qirg'zlar istiqomat qilardilar. Orol dengizining atroflarida qoraqalpoqlar yashardilar.

Xonlar o'zaro bir-birlari bilan kelisholmay tez-tez urushlar chiqarib turardilar. Bunday beqarorlik va urush janjallardan oddiy

xalq ko'p azob chekardi. Ular kambag'allashar va sog'liqlariga putur yetardi. Bu esa aholi o'rtasida har xil ommaviy kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishiga sabab bo'lardi. Bundan tashqari aholi o'rtasida o'lkaga xos kasalliklar ham tarqalgan edi. Ammo, ularni davolash uchun mamlakatda tibbiy muassasalar yo'q edi. Tabiblarning soni juda oz, ularning bilim va tajribalari esa o'rta asr sxolastik fan darajasidan yuqori emasdi. Ular bu davrda tez rivojlanib ketgan Yevropa ilmiy tibbiyotidan bexabar edilar. Faqat bitta-ikkita bilimdon tabib zamonaviy Yevropa tibbiyoti bilan qisman tanish edi, xolos. Shundaylardan bizga Solih ibn Muhammad Qandaxoriy, Junaydullo Hoziq, Ja'farxo'ja Hazoraspiy, Mahmud Yaypaniy, Atouлло tabib ma'lum, xolos.

Solih ibn Muhammad Qandaxoriy Hirotda tavallud topgan. O'sha yerda bilim olib, yaxshi hakim bo'lib yetishgan. Kasallarni muvaffaqiyatli davolab aholi o'rtasida hurmatga sazovor bo'lgan.

Muhammad Qandaxoriy ko'proq bolalar kasalliklari bilan shug'ullangan. Shuning uchun uning ko'pchilik asarlari pediatriya masalalariga bag'ishlangan. Olimning eng yirik asari «Tuhfat ul-shoista» («Arzigulik sovg'a») kitobdir. Kitob bolalarning sog'lig'ni saqlash va ularning kasalliklarini davolash haqida. U kirish qism va ikki bo'limdan iborat. Kitobda muallif dastlab bolalar organizmining o'ziga xos xususiyatlari, ularning nozikligi va har xil kasalliklarga oson berilishi ko'rsatilgan.

Qandaxoriy bola organizmining rivojlanishini ikki davrga bo'lgan. Birinchi davr olti yoshgacha bo'lgan davr. Ikkinchi davr olti yoshdan balog'atga yetgunga qadar bo'lgan davr. Shu davrlarning har birida bolada kasallik turlicha kechishini ta'kidlagan. Qandaxoriyning yozishicha bola organizmi kattatar organizmidan o'zining kichikligi bilangina emas, balki o'ziga xos fiziologik xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Bu fikr hozirgi zamon ilmiy tibbiyotida ham isbotlangan.

Qandaxoriyning ikkinchi kitobi «Tuhfat ul-ma'sumin» («Begunohlarga sovg'a»), deb ataladi. Kitob kirish qismi, ikki bo'lim va xulosadan iborat. Kitobda pediatriya masalalari bilan bir qatorda ayollar organizmining o'ziga xos xususiyatlari va kasalliklari haqida ham ma'lumot berilgan.

Kitobning kirish qismida havo, suv va turar joylarni ozoda saqlash sog'liq uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Kitobning birinchi bo'limida homiladorlikning



kechishi, homilador va tuqqan ayolga qanday sharoitlar yaratib berilishi zarurligi haqida tavsiyalar berilgan. Kitobning ikkinchi bo'limida bolalar kasalliklari va ularni davolash usullari ko'rsatilgan.

Solih Qandaxoriyning bu kitoblari O'rta Osiyo tibbiyoti tarixida maxsus bolalar fiziologiyasi va patologiyasi haqida dastlabki asardir. Bu haqda muallifning o'zi bunday, deb yozgan: «Meni mazkur kitobni yozishga shu narsa majbur qildiki, deyarli hamma tibbiy asarlarda bolalar kasalligiga o'rin berilmagan yoki bu haqda shunchaki «yol-yolakay» sozlab o'tilgan. Ko'pincha esa bu masalada noaniqliklarga yo'l qo'yilgan. Agar bolalarga tibbiy yordam yaxshi tashkil qilinsa, bevaqt o'lib ketgan bolalarning ko'pini saqlab qolish mumkin bo'lar edi. Shuning uchun men bolalarga bag'ishlangan mazkur tibbiy asarni yozdim».

Solih Qandaxoriyning dorishunoslikka oid asari ham mavjud. Unda muallif har xil dorivor moddalar, ularning xususiyatlari va ulardan foydalanish usullarini bayon etgan.

Shunday qilib, Solih ibn Muhammad Qandaxoriy O'rta Osiyo hududida birinchilardan bo'lib pediatriya masalalari bilan shug'ullangan hakimdir. Uni O'rta Osiyoda pediatriya ilmiga asos solgan olim deb atash mumkin.

Junaydullo Hoziq (Junaydullo ibn Islomshayx Hoziq) XVIII-asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashagan mashhur hakimlardan biri bo'lgan. Bu hakim ham Hirotda tavallud topib, o'sha yerda ta'lim olgan.

Junaydullo Hoziq ko'p bilimlar bilan shug'ullangan, badiiy adabiyotga ham qiziqqan, she'rlar ham yozgan. Ammo, uning asosiy kasbi tabiblik bo'lgan.

Junaydullo Hoziq XIX-asrning boshida Buxoroga ko'chib kelib, shu yerda tabiblik qilgan. Hoziq o'zining chuqur bilimi va tajribasi bilan bemorlarni juda muvaffaqiyatli davolab, katta hurmatga sazovor bo'lgan.

Junaydullo o'sha vaqtdagi ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan adolatsizlik va har hil jinoiy ishlarni qattiq qoralagan. Xatto Buxoro amiri Nasrulloxonning o'zimi ham tanqid qilgan. Buning natijasida amirning g'azabiga uchrab, Buxorodan ketishga majbur bo'lgan. Qo'qonga ko'chib borib, shu yerda tabiblik bilan shug'ullangan. Ammo, bu shaharda ham uzoq yashay olmay Xorazmga ko'chgan. Lekin, Xorazm xonining ham g'azabiga duchor bo'lgan. Xivada xonning farmoni bilan bir hammom qurilgan ekan. Saroy shoirlari

uni maqtab qasidalar yozganlar. Shunda xon Junaydullodan «Qalay, sizga hammom yoqdimi», deb so'ragan ekan, u hazil qilib, hammomga po'stin kiyib kirish kerak, chunki u yer juda sovuq, qo'lda yoqilgan sham bo'lishi kerak, chunki u yer qorong'i, hammomga kirishda oyoqlarga kalish kiyib olish kerak, chunki u yer juda sirpanchiq, yiqilib mayib bo'lish mumkin, debdi.

Junaydulloning bunday «g'aliz so'zligi»dan xon g'azabga kelibdi. Junaydullo esa vaqtni qo'ldan boy bermay, Xorazmni tark etibdi va Qo'qonga qaytibdi.

1842-yilda Buxoro amirining qo'shinlari Qo'qonni zabt etdilar. Qo'qon xoni Ma'dalixon (Muhammad Alixon) qatl etildi. Qo'qondagi olimlar, hakimlar, hunarmandlar, quruvchilar va boshqa nodir kasb egalari Buxoroga olib ketildi. Shular orasida Junaydullo Hoziq ham bor edi. Ammo, u bir itoj qilib, Shahrisabzga qochib ketadi. Bu shahar Buxoro amirligiga tobe' bo'lmay o'zi mustaqil siyosat olib borardi. Junaydullo bu yerda o'z kasbi bo'yicha ishini davom ettiradi. Lekin, Buxoro amiri eski adovati bo'yicha 1843 yilda Shahrisabzga yashirincha qotil yuborib, Junaydulloni qatl ettiradi.

Junaydullo Hoziq tibga oid bir nechta asar yozganligi ma'lum. Ammo, ular bizgacha yetib kelmagan. Faqat uning Chag'miniyning «Qonuncha» kitobga yozgan sharhi saqlanib qolgan, xolos. Bu asar «Taxqiq va qavoid» («Haqiqatni izlash va tekshirish»), deb ataladi. Kitobda muallif «Qonuncha»ning ijobiy tomonlari va kamchiliklari haqida fikr yuritadi. Junaydullo Hoziq XVIII va XIX asrdagi O'zbekiston tibbiyotida o'chmas iz qoldirgan.

Ja'farxoja Hazoraspiy (Ja'farxoja ibn Nasriddinxoja al-Husayn Qarvaqiy Hazoraspiy) Xorazmlik taniqli hakimlardan biridir. U o'z zamonasi darajasida yetarli bilim va tajribaga ega edi. Hazoraspiy zamonaviy tibbiyotdan ham habardor bo'lgan. Lekin, odam organizmidagi sodir bo'lib turuvchi jarayonlar va kasalliklarning sababi haqida rutubalar hamda mijozlar tushunchasiga asoslanib, xato fikrlarga ham yo'l qoingan. Masalan, u har qanday kasallikning dastlabki sababi odam tanasidagi rutubatlarning o'zgarishidandir, deb tushungan. Shunga asosan har qanday kasallikni davolashda dastlab tanani ortiqcha rutubatlardan tozalashni (surgi dori berish, qon olish va h.k.) tavsiya etgan.

Hazaraspiy kasallikning oqibatini (prognozini) oldindan bilishga alohida ahamiyat bergan. Uning ko'rsatishicha prognozni aniqlash

shuning uchun kerakki, tabib shunga qarab o'z davo tadbirlarini belgilaydi.

Bizga Hazoraspiyning «Tibbiy bilimlar majmuasi» nomli asari ma'lum. Kitobda muallif ayrim a'zolarning kasalliklari haqida so'z yuritadi. Xususan, unda rishta (gijja), teridagi har xil chiqiqlar, vilitigo (pes), kal, chiqqon va boshqa yiringli kasalliklar bayon etilgan. Har xil zaharli moddalar va ularga qarshi ishlatiladigan dorilar ko'rsatilgan. Har xil kasalliklarda qo'llanadigan dorilar haqida ham ma'lumot berilgan. Ularni tayyorlash, saqlash va ishlatish usullari ko'rsatilgan. Yuqumli kasalliklar haqida ham ma'lumot mavjud. Xususan, chechak, qizamiq, ko'k yotal, qizilcha kabi yuqumli kasalliklar bayon etilgan. Hazoraspiyning kitobida bir qancha tabiblar keng foydalanganlar.

Mahmud Yaypaniy (Mahmud Hakim Yaypaniy Qo'qondiy) XIX asrning oxiri, XX asrning birinchi yarmida yashagan taniqli o'zbek hakimi. U bilimlarning ko'p sohasiga qiziqqan, lekin ko'proq tibbiyot ilmi bilan shug'ullangan.

Hakim Yaypaniy 1851 yilda Qo'qon shahri yaqinidagi Yaypan qishlog'ida tavallud topgan. Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra Yaypaniyning ota-bobolari taniqli kishilar bo'lganlar. Masalan, uning bobosi Mullo Badal sardor Qo'qon xoni saroyida xizmat lavozimlardan birini egallagan. Otasi Shodibek Badaliyning Yaypan atrofida katta yerlari bo'lgan.

Mahmud yoshligida juda sho'x va o'tkir zehni bola bo'lgan ekan. Otasi o'g'lining bunday qobiliyatini ko'rib, u qishloqdagi ibtidoiy maktabni tugatganidan so'ng Qo'qonga olib kelib, mashhur «Jomiy» madrasasiga o'qishga joylashtiradi. Bu madrasada diniy bilimlar qatorida ba'zi dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Masalan, u yerda talabalarga to'rt amal (arifmetika), boshlang'ich handasa, qisman tarix va ilmi nujum (astronomiya)dan ham dars berar ekanlar. Mahmud Yaypaniy madrasadagi o'qitish usulidan qoniqmay bilimlarni o'zi mustaqil o'rganishga boshlaydi va tezda tabiat fanlari, matematika, falsafa va boshqa fanlarni o'zlashtirib oladi. So'ng tibbiyotni o'rganishga kirishadi. Xususan, u Hippokrat, Abu Bakr Rozi va Ibn Sino asarlarini o'qib chiqadi. Ma'lumki XIX asrga kelib bu olimlarning asarlari ancha eskirib qolgan edi. Eksperimental usuliga asoslangan Yevropa tibbiyoti juda yuksak darajaga yetadi. Mahmud Yaypaniy buni yaxshi tushunib, hozirgi zamon tibbiyotini o'rgatishga kirishadi. Shu maqsadda lotin va rus

tillarini o'rganib, zamonaviy tibbiyot bilan tanishadi. U hatto lotin alifbosida retsept yozishni ham bilib oladi.

Mahmud Yaypaniy hayotining ko'p qismi Qo'qonda o'tgan. U vaqtda bu shahar Qo'qon xonligining poytaxti edi. Shuning uchun u siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan shahar hisoblanardi. Shaharda ko'pgina olimlar, adiblar va tajribali hakimlar yashardilar. Binobarin, Yaypaniy ilmiy va ma'rifiy ko'tarinki sharoitda o'sib katta bo'ldi va olim sifatida shakllandi.

Mahmud Yaypaniy tib ilmini yaxshi o'zlashtirib olganidan so'ng amaliy tibbiyot bilan shug'ullana boshladi. U o'z tajribasini yanada orttirish maqsadida kasallarni shaxsan o'zi parvarish qilgan, ularga dorini ham o'zi tayyorlab bergan. Barcha muolaja usullarini ham o'zi bajargan. Bo'sh vaqtida esa kitob mutolaa qilish bilan shug'ullangan. Bunday tinimsiz mehnat va intilish tufayli Yaypaniy juda oz muddatda nazariy va amaliy tibbiyotni o'sha davr darajasida mukammal o'zlashtirib oladi. Kasallarga to'g'ri tashxis qo'yib, muvaffaqiyatli davolaydi. Buning natijasida uning obro'si oshib, Farg'ona viloyatida mashhur bo'lib ketadi.

Yaypaniyning dovrug' Qo'qon xoni Xudoyorga ham borib yetadi. U Yaypaniyni juda tajribali, bilimdon va mohir tabib ekanligini eshitib, uni o'z saroyiga taklif etadi. Xudoyor Mahmud Yaypaniyni o'zining shaxsiy tabibi etib tayinlamoqchi ekanini bildiradi. Ammo, Yaypaniy unga shaxsiy tabib bo'lishni istamaydi. U Xudoyorning taklifini topshirish uchun kelgan elchilarga bunday debdi: «Meni boylik va dahdabalar qiziqitirmaydi, chunki men boshimga yo'qsillik tojini kiyib olganman». Haqiqatan Mahmud Yaypaniy juda kamtarin va xokisor kishi bo'lgan. U o'zining nihoyatda insonparvarligi va odamlarga g'amxo'rligi bilan ajralib turgan. Daromadi oz, kambag'al bemorlarni bepul davolagan, ularga dorini ham pulsiz bergan.

Yaypaniy farmakologiya ilmi bilan ham shug'ullangan. U o'rmon, dala va tog'lardan dorivor o'simliklarni yig'ib kelib, ulardan qaynatmalar, tomchi dorilar, hablar, kukun dorilar (poroshoklar) tayyorlar ekan. Biz olimning Yaypandagi eski uyida suvni parlatib, tozalovchi moslama (перегонный куб) va har xil dori qoldiqlari saqlanib qolgan juda ko'p shishalarni ko'rdik.

Yaypaniy ko'pqirrali olim bo'lgan. U falsafa, tarix va boshqa tabiiy fanlar bilan ham shug'ullangan. Masalan, uning Qo'qon xonligi tarixiga oid asari mavjud. Unda Qo'qon xonligining harpo etilishi va uning rivojlanishi aniq dalillar bilan batafsil bayon

etilgan. Lekin, Mahmud Yaypaniyning asosiy asarlari tib ilmiga bag'ishlangan. Bizga Yaypaniyning tibga oid «Tariq ul-ilaj» («Davo o'lchovi») va «Qonun ul-ilaj» («Tabiblik qonuni») nomli ikki asari ma'lum.

«Tariq ul-iloj» 1913 yilda yozilgan. Kitob 3 qismdan iborat. Birinchi qismida Farg'ona o'lkasining tarixi va Qo'qon xonlari haqida ma'lumot berilgan. Ikkinchi qismda o'sha davrdagi xalq hayoti va turli tabaqalar haqida fikr yuritilgan. Unda o'zini bilimdon ko'rsatib yuruvchi nodonlar qattiq tanqid qilingan. Uchinchi qism tibbiyot masalalariga bag'ishlangan. Xususan, bu qismda kasallarga to'g'ri tashxis qo'yish va davolash usullari bayon etilgan. Har xil davolash moddalari, ulardan foydalanish usullari ko'rsatilgan. Kitobda o'zbek (turkiy) tilida o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan dorilarning ro'yxati berilgan.

«Qonun ul-iloj» tibbiyot ilmi, uning mohiyati va vazifalariga bag'ishlangan. Kitobda muallif boshqa olimlarning tibbiyot haqidagi faktlarini ham keltirgan. Mashhur hakimlar haqida ma'lumot ham bergan. So'ng tibbiyot ilmining turli masalalariga oid o'z fikrlarini bayon etgan.

Sharq tabiblari XIX - asrning oxiri va XX asrning o'rtalarida ham noto'g'ri rutubatlar nazariyasi va mavhum mizojlar tushunchasiga asoslanardilar. Bu hol Mahmud Yaypaniyga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan edi. U ham kasalliklarning umumiy kelib chiqish sabablari masalasida shu tushunchalarga asoslangan. Lekin Mahmud Yaypaniy o'zining chuqur bilimi va tajribasiga suyanib, mizojning mohiyati haqida boshqacharoq fikr yuritgan. U mizoj o'zgar olmaydi, u naslidir, degan fikrga qarshi o'laroq, organizmning bu xususiyati turg'un emas, u sharoitga qarab o'zgarishi mumkin, deb yozgan. Masalan, uning ko'rsatishicha yozda kishining mizoji issiq, qishda esa sovuq bo'lib qoladi.

Kasalliklarning umumiy kelib chiqish sabablari haqidagi Mahmud Yaypaniyning fikrlari ham diqqatga sazovor. Bu masalada u rutubatlar nazariyasiga asoslansa ham tanadagi suyuqlarning o'zi kasallik paydo qiluvchi ichki va tashqi omillar ta'sirida o'zgaradi, deb haqiqatga yaqinroq mulohazalar yuritadi. Bunday omillarga Mahmud Yaypaniy ovqatlanish tartibining buzilishi, noqulay ob-havo, og'ir jismoniy mehnat va ruhiy kechinmalarni kiritgan.

Mahmud Yaypaniy kasallik keltirib chiqaruvchi parazitlar mavjudligini ham bilgan. Masalan, u rishta va bezgak kasalligi tanaga

shularni paydo qiluvchi mayda tirik jonzotlar kirishidan kelib chiqadi, deb yozgan. Mahmud Yaypaniy odam ichaklarida yashovchi gijjalarni ham bilgan. Bulardan ko'rinadiki, har xil kasalliklarning kelib chiqish sabablari to'g'risida Yaypaniy to'g'riroq tushunchaga ega bo'lgan.

Mahmud Yaypaniy O'zbekiston tibbiyoti tarixida yirik olim va tajribali hakim sifatida alohida o'rin egallaydi. Olim 1930 yilda 79 yoshida vafot etgan.

Osha davrda Qo'qonda Hakimcha tabib ismli yana bir taniqli hakim yashagan. Ammo, bu hakim haqida biz yetarli ma'lumotga ega emasmiz. Biz bu hakim mashhur shoir, bastakor va dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziyning otasi ekanligini bilamiz, xolos. Hamzaning o'zi ham tibbiyotni yaxshi bilgan tibbiyotga oid kitoblarni ko'p o'qigan. Uning kitob javonidagi asarlar orasida tibga oid kitoblar ham bo'lgan.

O'sha davrda Samarqandda Atouлло tabib ismli hakim yashagan. U asli Afg'onistonlik bo'lgan. XX asrning boshlarida Samarqandga ko'chib kelib, shu yerda yashab tabiblik qilgan.

Atouлло tabib bilan muloqatda bo'lgan kishilarning aytishlaricha, u chuqur bilimli va yaxshi tajribali hakim bo'lgan. Rus tilini o'rganib, bu tilda yozilgan tibbiy kitoblarni ham o'qigan. Shu orqali zamonaviy Yevropa tibbiyotidan ham xabardor bo'lgan. Atouлло tabib lotin tilida retsept yozishni ham bilgan. Lekin, kasallarga dorini ko'proq o'zi tayyorlab bergan. Kasallarga tashxish qo'yish va ularni davolashda hozirgi zamon . diagnostikasi hamda terapiyasi usullaridan ham foydalangan. Masalan, u perkussiya, auskultatsiya va palpatsiya usullarini ham ishlatgan.

Atouлло tabib o'zining chuqur bilimi va yaxshi tajribasi bilan bemorlarni muvaffaqiyatli davolab aholi o'rtasida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Unda faqat Samarqand aholisi emas, boshqa shaharlardan kelgan bemorlar ham davolanganlar.

XX asrning boshlarida Toshkentda xalq o'rtasida tanilgan Ahmadxo'ja tabib, Hoji tabib va Qodir tabib ismli uchta hakim yashaganlar. Ularni men shaxsan tanirdim.

Ahmadxo'ja tabibda Toshkentning nufuzli kishilari davolanardilar. Mening bobom ham betob bo'lib qolsalar shu Ahmadxoja tabibga murojaat qilardilar. Men ko'pincha uning uyiga borib, bobom uchun dori olib kelardim. Uning uyi Shayhantohurda edi. Tabib o'tirgan uyning tokchalari kitobga tola edi. Ammo bu kitoblarni men qo'linga

olib ko'rgan emasman. (U vaqtda men yosh bola edim). Hoji tabib bilan Qodir tabibni ham aholi hurmat qilardi.

Hoji tabib «Qoryog'di» mahallasida, Qodir tabib esa «Samarqand darboza» mahallasida yashardilar.

O'zbekiston shaharlarida boshqa mamlakatlaridan kelgan tabiblar ham yashardilar. Yuqorida Afg'onistonlik Atouullo tabibni ko'rsatib o'tgan edik. Toshkentda ham bir Afg'onistonlik tabib yashardi. Aholi uni «Afg'ontabib», deb atardi.

Toshkentda Arabistondan kelgan Abu Bakr ibn Muhammad ismli hakim ham bor edi. U bizning mahallamizda istiqomat qilardi. Oilasiz bir o'zi yashardi. Uyi kichkinagina hovli va bitta xonadon iborat edi. Shu xonada o'zi ham yashardi, bemorlarni ham qabul qilardi. Uyining tokchalari kitoblar va har xil shisha idishlarga to'la edi.

Abu Bakr tabib yaxshi bilimli va tajribali hakim edi. Bemorlarni muvaffaqiyatli davolardi. Ularga dorini ham shahsan o'zi tayyorlab berardi.

Bu yuqorida nomlari keltirilgan tabiblar zamonaviy tibbiyot jihatidan yetarli bilimga ega bo'lmisalar ham har xolda bemorlar ulardan najot topardilar.

O'lkamiz tibbiyoti tarixini o'rganish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, ko'pgina o'zbek ziyolilari tibbiyot ilmi bilan ham qiziqqan ekanlar. Ba'zilar esa bu ilimni chuqurroq o'rganib, amaliy tibbiyot bilan ham shug'ullanarkanlar. Masalan, taniqli o'bek shoiri Furqat (Zokirjon mullo Xolmuhammad o'g'li) yaxshigina tabib ham bo'lgan. U o'z uyida alohida bir hona ajratib qoyib, shu yerda bemorlarni qabul qilgan. Bemorlarga dorini ham o'zi tayyorlab bergan. Furqatning dorivor moddalar sotiladigan dokoni ham bo'lgan ekan.

Yana bir o'zbek shoiri Muqimiy (Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li) ham tibbiyot va sog'liqni saqlash ishlari bilan qiziqqan. U aholi salomatligi masalasiga toxtab, o'sha davrdagi sharoit (aholining qashshoqligi, tibbiy yordamning yetarli emasligi va h.k.) xalqning salomatligiga salbiy ta'sir qilib, har xil kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda, deb yozgan edi.

Buxqrolik mashhur ma'rifatparvar Ahmad Donish va Xorazmlik taniqli ziyokor Komil Xorazmiy ham tibbiyot bilan qiziqqanlar. Komil Xorazmiyning tashabbusi bilan Xivada zamonaviy shifoxona barpo etilgan edi.

## Xalq tabobati

O'zbekistonda «Xalq tabobati», deb ataluvchi tibbiyot ham mavjud. Bu tibbiyot xalqning o'z empirik tajribasiga asoslanadi,. Kasallarni davolashda asosan har xil shifobahsh o'simliklardan foydalaniladi.

Xalq tabobatining tarixi uzoq otmishga borib taqaladi. Aslini olganda, yer yuzida tibbiyot dastlab aynan xalq tabobati sifatida kelib chiqqan. Xalq tabobati tibbiyotning shakllanayotg'an davridagi tibbiyotdir.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra xalq tabobati insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki bosqichida, ibtidoiy jamoa davrida zarurat tufayli paydo bo'lgan. Demak, xalq tabobati ibtidoiy odamlar tibbiyotidir. U vaqtdagi muolaja usullari xalqning empirik tajribasiga asoslanardi. Tibbiyot tom ma'nosi bilan xalq tabobati edi. Insoniyat taraqqiyotining keyingi davrlarida kasallarga tashxis qo'yish va ularni davolashda orttirilgan tajribalar umumlashtirilib, xulosalar chiqarilib, ilmiy tibbiyot shakillandi. Ammo, xalq tabobati ham yashashda davom etdi. Ilmiy tibbiyotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar (kambag'allar, ilmiy tibbiyot borib yetmagan joylarda yashovchi kishilar) xalq tabobatidan foydalanardilar.

Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, xalq tabobatining asosiy muolaja usullari har xil shifobaxsh o'simliklarni ishlatishdan iborat. Ammo, bu o'simliklar ko'pincha laboratoriya usullari bilan tekshirishdan o'tkazilmagan bo'ladi. Xalq tabobatining vakillari biror o'simlikning u yoki bu kasallikda yordam berishini biladilaru, lekin, o'simlikdagi shifobaxsh moddaning kimyoviy tarkibi qanaqa u qanday xususiyatgalarga ega ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun, ularning muolajalari aniq-ravshan emas. Ikkinchidan xalq tabobati kasallikni emas, balki kasallikning simptomlarini (belgilarini) davolaydi. Bu usul bemordagi kasallik alomatlarini vaqtincha yo'qotsa ham, uni kasallikdan butunlay sog'aytirib yubormaydi.

Xalq tabobatining vakillari ko'pincha biror tibbiy o'quv yurtida bilim olmagan kishilardir. Shuning uchun ular odam organizmi uning, tuzilishi, unda sodir bo'ladigan fiziologik, biologik va patologik jarayonlar haqida juda yuzaki tushunchaga ega bo'ladilar. Bu jarayonlarni bilmay turib kasal kishiga to'g'ri tashxis qoyish mumkin emas. To'g'ri tashxis qo'ymay turib, bemorni davolash ham mumkin emas. Shunga qaramay xalq tabobati bilan



shug'ullanuvchilar orasida yaxshi tajribali kishilar ham yoq emas. Ular o'zlarining empirik tajribalari va intuitsiyalariga suyanib, ko'pincha bemorlarni muvaffaqiyatli davolaydilar. Ammo, xalq tabobati vakillari orasida yetari tajribaga ega bo'lmagan, kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash masalasida juda yuzaki tushunchaga ega bo'lgan tibbiyotdan uzoq tasodifiy kishilar ham oz emas. Hatto bemorlarni aldab yuruvchi firibgarlar ham kam uchramaydi. Shunday firibgarlar haqida o'rta asrlik mashhur hakim va olim Abu Bakr Roziy bunday, deb yozgan edi: «Firibgar tabiblar» sodda odamlarni laqillatadigan har xil nayranglar shu qadar ko'pki, ularni butun bir kitobga ham sig'dirib bo'lmaydi. Ularning ba'zilari quyunchiq kasalligini bemorning gardonini ustara bilan tilib «tuzatadilar». Boshqa birlari bemorning burnini kavlab undan «chuvalchang yoki kalta kesak chiqarib oladilar», yana birlari qo'llarida bir kichkina oq matoni yashirib ushlab turib, uni bemorning «ko'zidan chiqarib oldim», deb ko'rsatadilar, yana birlari bemorning tili ostini tilib o'sha yerdan «kichkina qurbaqa bolasini chiqarib oladilar». Ba'zilari esa hatto «Jarrohiy operatsiyalami ham qiladilar». Masalan, bemorda bavasil» bor, deb uning orqa teshigini kesib azob beradilar. Bu muttahamlar jarohatlangan joyga o'zlari suyak yoki shisha tiqib yuborib, so'ng uni «chiqarib oladilar». Yana birlari bemor, shisha yutib yuborgan», deb ishontirib, uning tomog'ini qushning pati bilan qitiqlab qayt qilishga majbur qiladilar. Qusuqqa esa sezdimay shisha solib yuboradilar. Bu firibgarlar shu darajaga borganlarki, «kasalning qovug'ida tosh bor», deb uni kesadilar va qo'llarida yashirib turgan toshni ko'rsatib «buni bemorning siydik qopchasidan chiqarib oldim», deb, ko'rsatadilar. Bunday savodsiz operatsiyalardan bemorlar ko'p azob chekadilar, ba'zilari esa o'lib ketadilar. Bu muttaham «tabiblar» qanchadan-qancha odamning o'limiga sabab bo'lganlar! Shuning uchun o'zini tabib, deb yuruvchi har qanday kishiga ishonaverish xavflidir». Roziyning bundan ming yil muqaddam aytgan bu so'zlari hozir ham o'z ahamiyatini yoqotgan emas. Hozir ham xalq tabobati vakillari orasida bundaylar kam emas.

## **X b o b . MUSTAMLAKA DAVRIDAGI TIBBIYOT**

XIX- asrning 60- yillarida O'rta Osiyo hududi rus qo'shinlari tomonidan zabt etildi. Qo'qon xonligi tugatildi. Uning o'rnida chor hukumati Turkiston General- gubernatorligini tashkil etdi.

Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'z siyosiy mustaqilliklarini rasman saqlab qoldilar. Lekin ular Rusiyaning ta'siriga tushib qolgan edilar. 1886-yildan boshlab Turkiston General-gubernatorligi Rusiyaning Turkiston o'lkasi, deb atala boshladi. Unga hozirgi O'zbekiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston hududlari kirdi. Shunday qilib, butun O'rta Osiyo rus chorizmining mustamlakasiga aylangan edi.

O'rta Osiyo Rusiyaning mustamlakasiga aylantirilgandan so'ng bu yerda jiddiy siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi.

Siyosiy jihatdan mamlakatni boshqarish rus podshosining ixtiyoriga o'tdi. Iqtisodiy jihatdan bu yerda qishloq xo'jaligi (paxtachilik) va qisman kichik sanoat korhonalari rivojlana boshladi. Rus fabrikantlari o'zbek paxtasini arzon narxga sotib olib tashib keta boshladilar.

Paxtaning eksporti ko'payishi natijasida qishloqlarda boshqa ekinlar kamaytirilib, ko'proq paxta ekila boshladi. Paxta uchun yangi yerlar ham o'zlashtirildi. Ammo yerni ishlash texnologiyasi o'zgarmay qoldi. U eski omoch va ketmondan nariga o'tmadi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida mehnat juda og'ir edi. Bunday og'ir mehnat va o'lkaning jazirama issiq sharoiti kishilarning tinkasini quritib, ularning salomatligiga putur yetkazardi. Aholi o'rta Osiyoda har xil kasalliklar tarqalardi. Kasal odam dalada ishlay olmasligi va paxta yetishtirib bera olmasligi ma'lum. Shuning uchun o'lkada ma'muriyati tibbiyot masalasiga bir qadar e'tibor bera boshladi.

O'rta Osiyo hududining ruslar qo'lostiga o'tishi tibbiyot sohasida ha'zi ijobiy natijaga ham olib keldi. Bu yerda zamonaviy tibbiy muassasalar paydo bo'la boshladi. Chunonchi, 1868 yilda Toshkentda 30 o'rinlik harbiy lazaret ochildi. 1870 yilda uning negizida 400 o'rinli hospital barpo etildi. Shu yili Samarqandda 15 o'rinli kasalxona ochildi. 1873 yilda shunday kasalxona Kattaqo'rg'onda barpo etildi. Bu harbiy tibbiy muassasalar asosan rus harbiylari va ularning oilalariga xizmat qilardi. Lekin o'lkada zamonaviy tibbiy muassasalarning paydo bo'lishining o'zi ijobiy voqea edi. So'ngroq aholiga xizmat ko'rsatuvchi tibbiy muassasalar ham paydo bo'la boshladi. Masalan, 1890-yilda Toshkentda aholi uchun, 20 o'rinli kasalxona ochildi. 1898-yilga kelib undagi o'rinlar soni 50 taga yetkazildi. 1883-yilda Toshkentda ayollar ambulatoriyasi ochildi. 1886-yilda esa erkaklar ambulatoriyasi barpo etildi. Keyinroq bunday ambulatoriya va kasalxonalar boshqa shaharlarda ham qurila

boshladi. Lekin bu muassasalar asosan Rusiyadan ko'chirib olib kelingan rus fuqarolariga tibbiy yordam ko'rsatardi. Ular yerli aholini qabul qilmasdilar. Yerli aholi o'rtasida esa har xil kasaliklar ko'proq tarqalgan edi. Yerli tabiblarning tibbiyoti Yevropa tibbiyotidan ancha orqada edi. Shuning uchun o'sha vaqtdagi ilg'or o'zbek ziyolilari yerli aholi uchun ham zamonaviy tibbiy muassasalar barpo etish masalasini ko'tardilar. Shu maqsadda aholidan 38 ming so'm hayriya puli\* yig'ib olindi. Toshkentning katta boylaridan biri Orifxo'jaboy Shayxantohur dahasidagi katta yeridan bir qismini kasalxona qurish uchun ajratib berdi. Ammo kasalxona qurilmadi. Yu. Otabekovning yozishicha, kasalxona qurish uchun yig'ilgan pulni shahar hokimi B. Yu. Medinskiy bilan gubernator N.N. Golovachev bo'lib olib, o'z uylariga qimmatbaho jihozlar sotib olibdilar. Kasalxona uchun ajratilgan yerda esa politsiya mahkamasini quribdilar.

Toshkent viloyatidagi To'ytepa qishlog'ida qurilgan kasalxonaning taqdiri ham shunga o'xshash bo'lgan ekan. Bu yerda qishloq oqsoqolining tashabbusi bilan 1870- yilda aholidan pul yig'ib olib, maxsus loyiha asosida pishiq g'ishtdan kasalxona qurilibdi. Kasalxona uchun Peterburgdan kerakli jihoz va asbob-uskuna sotib olinibdi. Ammo, kasalxona ko'p yillar ishlamay shunday turaveribdi. Chunki rus podshohining Turkistondagi general-gubernatori kasalxonaga varch tayinlamabdi.

1874-yilda Toshkentda birinchi zamonaviy dorixonona ochildi. U Toshkent shahar boshqarmasi ixtiyorida bo'lgan ekan. So'ng xususiy dorixonalar paydo bo'la boshlabdi.

XX asrning boshlarida Turkistonda xususiy tibbiy muassasalar paydo bo'la boshladi. Chunonchi, 1908-yilda Toshkentda A.P. Predtechenskaya ismli vrach xususiy ayollar shifoxonasini ochdi. 1909-yilda akusherka Dominik - Yegorova 5 o'rinli tug'ruqxona ochdi. 1913-yilda shunday tug'ruqxonani doya ayol Kovaleva tashkil etdi. Bunday shifoxonalar asta-sekin o'lkamizning boshqa shaharlarida ham paydo bo'la boshladilar. Ammo, ular Turkistonning o'sha vaqtdagi 6 milliondan iborat aholisini tibbiy yordam bilan ta'minlay olmas edilar.

O'lkada zamonaviy tibbiy muassasalarning va dorixonalarning paydo bo'lishi mahalliy tabiblar faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ular zamonaviy Yevropa tibbiyoti bilan qisman tanishish

---

\* U vaqtda 38 ming so'm katta pul edi.

imkoniyatiga ega bo'ldilar. Xususiy dorixonalarda sotiladigan dorilardan foydalana boshladilar. Ammo, bu o'zgarishlar Xiva xonligi va Buxoro amirligiga qarashli yerlarga yetib bormadi. U yerlardagi aholi bu yangiliklardan bexabar edi. Faqatgina Xivada va Kogonda bittadan kichik kasalxona ochilgan edi, xolos.

O'rta Osiyoning Rusiya imperiyasiga qo'shib olinishi tibbiyot sohasida yana bir ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan edi. O'rta Osiyoda umumiy tibbiyotga ma'lum bo'lgan kasalliklardan tashqari shu o'lkaning o'ziga xos kasalliklar ham bor edi. O'zbekiston hududida bunday kasalliklardan rishta, yomon jarhat (leyshmanioz), bezgak, qora oqsoq (brutsellez) va turli gelmintozlar tarqalgan edi. Ruslar o'lkani zabt etganlardan so'ng bu kasalliklar rus askarlari o'rtasida ham tarqala boshladi. Shu sababdan rus harbiy vrachlari bu kasalliklarni tekshirdilar va muhim kashfiyotlar qildilar. Masalan, Samarqand garnizonining vrachi K.M. Aframovich va Jizzax garnizonining vrachi T. Klopotovskiy rishta kasalligini tekshirib, bu kasallikni maxsus gijja (gelmint) paydo qilishini aniqladilar. Harbiy vrach P.F. Borovskiy yomon jarhatning qozg'atuvchisini topdi. K.I. Skriyabin yangi shistozoma gijjasini aniqladi. Bu kashfiyotlar muhim amaliy ahamiyatga ega edi. Lekin, ruslarning o'lka ma'muriyati Turkistonda tarqalgan, kasalliklarni tugatishni xayoliga ham keltirmasdi. Binobarin, mustamlakachi ruslarning bizga keltirgan tibbiyoti «dengizdan bir tomchi» edi, xolos.

## **XI b o b . SHO'ROLAR DAVRIDAGI TIBBIYOT**

Sho'rolar davridagi tibbiyotining o'z shakillanish va rivijlanish tarixi bor. Mamlakatimizda zamonaviy tibbiyot tizimini tashkil etish 1917-yil noyabr oyida tibbiy ishlar bilan shug'ullanuvchi tashkilot — Sog'liqni Saqlash Halq komissarligi ta'sis etish bilan boshlandi. Bu tashkilot 11 bo'limdan iborat edi; 1. Tibbiy ta'minot bo'limi; 2. Epidemiologiya bo'limi; 3. Sanitariya Statistika bo'limi; 4. Ilmiy - amaliy bo'limi; 5 Sanitariya - texnika bo'lumi; 6. Sanitariya - maorifi bo'limi; 7. Bemorlarni davo muassasalari'ga joylashtirish bo'limi; 8. Sanatoriy - kuro'rt bo'limi; 9. Tibbiy hodimlarni safarbar qilish bo'limi; 10. Veterinariya bo'limi; 11. Adliya bo'limi. Bulardan tashqari yana tibbiy hodimlar rezervi bo'limi ham bor edi. Sog'liqni Saqlash Xalq komissarligi dastlabki yillarda unchalik ko'zga ko'rinarli ish qilaolmadi. Sog'liqni Saqlash muassasalari

uchun yangi tipovoy binolar yaratish o'rniga masjid va madrasalarda kasalxona va ambulatoriyalar tashkil qilindi. Shu bilan birga har xil tashkilotlarga qarashli binolar va ayrim kishilarga qarashli uy- joylarni ham musodara qilib, o'sha yerlarda ham tibbiy muassasalar tashkil etildi. Bu bilan kasallarga tibbiy yordam ko'rsatish ishi yaxshilanmadi. Tibbiy muassasalar yetarlicha jihozlanmagan edilar. Lekin, shunday bo'lsa ham, birinchi qadamlar qo'yilgan edi. 1919 yil 13 martda Sog'liqni Saqlash Xalq komissariyati «Turkiston respublikasidagi davolash muassalarini boshqarish» haqida nizom qabul qildi. Unda tibbiy muassalarning asosiy vazifalari belgilab qo'yilgan edi. O'sha yilli 7 mayda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissarligining faoliyati haqida maxsus nizom ham tasdiqlandi. Uning birinchi bandida «Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati butun o'lkada Sog'liqni Saqlash ishlarini boshqaradi», deyilgan edi. Shu nizomda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissarining va bo'limlar boshliqlarining huquq va vazifalari belgilab qo'yildi. 1920-yilda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati tarkibiga oldingi 11 bo'limdan tashqari yana Ona va Bolalikni muhofaza qilish bo'limi, Badantarbiya bo'limi va Uy joy sanitariyasi bo'limi kiritildi. 1922-yilda Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati tarkibiga Dorixonalar Bosh Boshqarmasi va Mehnatni tibbiy jihatdan muhofaza qilish bo'limi kiritildi. Shunday qilib, Sog'liqni Saqlash Xalq Komissariyati 16 bo'limdan tashkil topdi.

1919-yil iyul oyida Sog'liqni Saqlash muassasari rahbarlarining birinchi qurultoyi chaqirildi. Unda Sog'liqni Saqlash muassasalarining ish uslubini takomillashtirish, bemorlarga ambulatoriya va kasalxonalarda tibbiy yordam ko'rsatish ishini yaxshilash, kasalxonalar va ulardagi o'rinlar sonini ko'paytirish, respublikaning orombaxsh joylarida sanatoriy - kurortlar barpo etish masalalari muhokama qilindi va bu haqdagi zarur ishlar belgilab olindi.

1922-yil oktabr oyida Turkiston vrachlarining birinchi ilmiy syezdi bo'lib o'tdi. Syezdda O'lkamizda tibbiyot sohasida olib borilgan ilmiy - tadqiqot ishlariga dastlabki yakun yasaldi. Syezdda Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasining a'zosi, respublika Halq Xo'jaligi Oliy Kengashining raisi Abdulla Qodirov qatnashdi va nutq so'zlashdi\*. Notiq o'z nutqida respublika hukumati olimlardan o'lkamizda tibbiyot ilmini yuksak darajaga ko'tarishni kutadi va bunga ishonadi, dedi: A. Qodirovning taklifi bilan syezd delegatlari

\* Bu kishi mazkur kitob muallifning otasidir.

nomidan markaziy hukumatga tabrik telegrammasi yuborildi. Turkiston vrachlarining birinchi ilmiy syezdi O'zbekistonda tibbiyot ilmi va sog'liqni saqlashni rivojlantirishda muhim masalalardan biri zamonaviy bilimga ega bo'lgan tibbiy hodimlar yetishtirishdan iborat, deb qaror qabul qildi. O'lkada vrachlar soni juda kam, yerli aholidan esa bunday mutaxassislar umuman yo'q edi.

1918-yilda bir guruh O'zbek ziyolilari Turkistonda zamonaviy oliy o'quv yurti tashkil etish masalasini ko'tarib chiqdilar va bu masalani ijobiy hal qilishni so'rab Moskvaga o'z vakillarini yubordilar. O'sha vaqtda markaziy hukumatning boshlig'i bo'lgan V.I.Lenin bu masalaga ijobiy qarab, Toshkentda dorulfunun tashkil qilish haqidagi dekretga qo'l qo'ydi. Dorulfunun 1920 yil sentyabr oyida ochildi. Uning tarkibida tibbiyot fakulteti ham bor edi. Shunday qilib, 1920 yilda Turkistonda oliy tibbiy ta'limga asos solingan edi.

1918 yilda Toshkentda o'rta tibbiy hodimlar tayorlovchi «Musulmon tibbiy maktabi» tashkil qilindi. U keyinroq «Respublika o'rta tibbiy hodimlar maktabi»ga aylantirildi. O'sha vaqtda bu o'quv yurtlari butun O'rta Osiyo miqyosida birinchi va yagona tibbiy o'quv yurtlari edilar. Keyinroq bunday tibbiy o'quv yurtlari boshqa shaharlarda va qo'shni respublikalarda ham ochildi.

O'zbekistonda Sho'rolar davrida muhim ilmiy - tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Biz yuqorida ko'rsatib o'tkanimizdek, O'zbekiston hududida odatdagidek kasalliklardan tashqari o'lkamizga hos kasalliklar ham tarqalgan edi. Boshqa tibbiy muammolar qatorida shular ham ilmiy jihatdan o'rganildi. Hususan, bu kasalliklarning etiologiyasi, xususiyatlari, patogenez va oqibatlari tekshirildi, Ularni tugatish choralari ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Shu maqsadda respublikamizda bir qancha ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etildi. Birinchi shunday muassasa — Bakteriologik institut 1920 yilda Toshkentda ochildi. Bu institut har-xil ommaviy kasalliklarning etiologiyasi va epidemiologiyasini o'rgana boshladi. Yuqumli kasalliklarga qarshi vaksinalar ishlab chiqardi.

Ikkinchi ilmiy muassasa Tropik kasalliklar instituti 1924-yilda rishta kasalligining o'chog'i bo'lgan Buxoro shahrida ochildi. Bu institut Tropik kasalliklar (rishta, bezgak, har xil gelmintozlar) ni o'rgandi, ularni tugatish choralarini ishlab chiqdi va amalga oshirdi. Institut hodimlarining ilmiy va tashkiliy rahbarliklari ostida 1932-yilda o'lkamizda rishta kasalligi tugatildi. Shu institut ishtirokida 1955-yilga kelib, bezgak kasalligi ham tugatildi.

O'lkamizda tibbiyot ilmining boshqa sohalari bilan shug'ullanuvchi maxsus institutlar ham tashkil etildi. Hususan, "Ona va Bolalikni muhofaza qilish instituti (1927), Rentgenalogiya - radiologiya va onkologiya instituti (1931), Sil kasalliklari instituti (1932), Teri va tanosil a'zolari kasalliklari instituti (1932), Eksperimental tibbiyot instituti (1934), Sanitariya va gigiyena instituti (1934), Qon quyish instituti (1940), O'lka kasalliklari instituti (1957), ko'krak jarrohiyasi instituti (1972), Kardiologiya instituti (1976); tashkil etildi. Bu institutlarda har hil kasalliklarning sabablari, tarqalish yo'llari, ularning oldini olish va davolash usullari ishlab chiqilardi. Buning natijasida o'lkamizda bir qancha ommaviy kasalliklar tugatildi, Ba'zilar kamaytirildi. O'zbekistonda tibbiyot ilmining rivojlanishida bu institutlar muhim ro'l o'ynaydilar.

1950 - yillarga kelib, O'zbekistonda tibbiyot ilmi sohasida olib borilgan ilmiy - tadqiqot ishlari umumjahon miqyosiga ko'tarildi: hususan, o'lka (tropik) kasalliklarni o'rganish sohasida katta natijalarga erishildi. 1954 - yilda Toshkentda tropik (o'lka) kasalliklariga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy sessiya bo'lib o'tdi. Unda o'lka kasalliklarini ilmiy jihatdan o'rganish va bunday kasalliklarni tugatish yo'lida olib borilgan ishlariga birinchi yakun yasaldi: Sessiyada O'zbekistonlik olimlar faol qatnashdilar va o'lka kasalliklarini ilmiy jihatdan o'rganish va ularga qarshi kurashish yo'lida olib borilgan ishlar haqida ma'ruzalar bilan chiqdilar. Xususan, professor L.M. Isaev «O'rta osiyoda bezgak kasalligini ilmiy jihatdan o'rganish va uni tugatish» haqida, tibbiyot tarixchisi A.A.Qodirov «O'zbekistonda rishta kasalligini ilmiy jihatdan o'rganish va bu kasallikning tugatilishi tarixi» xaqida ma'ruza qildilar. Sessiya mamlakatimizda o'lka kasalliklarini o'rganish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega, deb topdi va bu ishni davom ettirish zarurligini ta'kidladi: Bu ishni bir muassasada jamlashtirish maqsadida O'zbekistonda «O'lka kasalliklari instituti» o'chish haqida qaror qabul qildi: Institut 1957-yilda tashkil etildi.

1970 - yillarda amaliy tibbiyotda yangi soha — tibbiy yordamning iqtisodiy samaradorligini o'rganish sohasi paydo bo'ldi: Bu ish bilan dastlab Bo'lg'ar va Chex hakimlari shug'ullangan ekanlar. Ular sanoat korxonalarida sog'liqni saqlash ishini yahshi yo'lga qo'yib, korxonaning ishchi va xizmatchilari sog'lomlashtirilsa korxonaning ish unumdorligi ko'tarilib, u qo'shimcha mahsulot chiqarishi mumkin ekanligini isbot etibdilar.

O'zbekistonda bu ish bilan birinchi bo'lib, Samarqand tibbiyot institutining ijtimoiy gigiena va sog'liqni saqlash ishini tashkil qilish kafedrasida\* shug'ullana boshladi. Bu ishda eksperimental baza sifatida Samarqanddagi teri zavodi tanlab olindi. Avvalo barcha asosiy mutaxassisliklar bo'yicha brigada tuzib, zavodning hamma ishchi va xizmatchilari tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Sog'lom kishilar, kasallar va surunkali kasallik bilan og'riganlar aniqlandi. Qanday kasalliklar ko'proq, qandaylari kamroq uchrashishi belgilandi. Bir yilda kasallik tufayli qancha ishi kuni yo'qotilishi hisoblab chiqildi. U qancha iqtisodiy zarar keltirishi aniqlandi.

Zavodning sexlari, ularning gigienik holati tekshirildi. Salomatlikka putur yetkazuvchi omillar belgilandi. So'ng to'plangan natijalar umumlashtirilib, xulosalar chiqarildi. Natija shuni ko'rsatdiki, zavod har yili ishchi va xizmatchilarning vaqtincha kasalligi tufayli bir necha yuz ming so'mlik mahsulotni kam chiqarar ekan. Mutaxassislarimiz zavod ishchi va xizmatchilarining sog'ligini saqlash va kasalliklarni kamaytirishga qaratilgan bir qancha gigienik va amaliy tibbiy maslahat va tavsiyalar yozib berdilar. Zavod ma'muriyati tuman sog'liqni saqlash bo'limi bilan birga ularni amalga oshirib, ijobiy natijalarga erishdilar. Ishchilarning sog'ligi yaxshilandi, kasallar soni kamaydi, ish unumdorligi oshdi, zavod ko'p miqdorda qo'shimcha mahsulot ishlab chiqara boshladi.

Bizning tekshirishlarimizdan shunday xulosa chiqdiki, sog'liqni saqlash organlari sanoat korxonalaridagi ishchi va xizmatchilarning salomatligini mustahkamlab, ularning mehnat unumdorligini oshirib, moddiy boylik ishlab chiqarishda bilvosita ishtirok etar ekan. Binobarin, sog'liqni saqlash tizimini moddiy boylik ishlab chiqaruvchi sohalardan biridir deb hisoblash mumkin. Albatta, tibbiy xodimlar zavod sexlari va stanoklar oldida turib, moddiy boylik ishlab chiqarishda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etmaydilar. Lekin ularning mehnati ishlab chiqarishning umumiy ko'lamiga qo'shiladi. Bu kashfiyot juda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ldi. U bilan sanoat korxonalarining rahbarlari qiziqib qolishdi. 1978-yilda Qarshi va Buxoroda shu masalaga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Konferensiyada tibbiy xodimlardan tashqari, sanoat korxonalarining vakillari ham qatnashdilar.

---

\* O'sha vaqtda shu kafedraning mudiri mazkur kitobning muallifi professor A. A. Qodirov edi.



Biz to'plagan materiallarimizni statistik jihatdan ishlab xulosalar chiqardik, natijalarini institutimizning yillik ilmiy konferensiyasida ma'ruza qildik.

## **XII b o b . MUSTAQILLIK DAVRIDAGI TIBBIYOT**

1991-yil 31-avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqriq navbatdan tashqari VI sessiyasi Respublika davlat mustaqilligi to'g'risida bayonot qabul qildi. Shu kuni Oliy Kengash O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risida qonun qabul qildi. Shunday qilib O'zbekiston bir yarim asrlik mustamlaka davridan so'ng ozodlikka erishdi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng respublikamizda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning hamma sohaslarida tiklanish davri boshlandi. Tibbiyot sohasida ham yangi davrga qadam qo'ydik. Xususan, sog'liqni saqlash ishini tubdan yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirila boshlandi. Bu yo'lda birinchi bo'lib, 1996-yil 26- avgustda «O'zbekiston fuqarolarining sog'lig'ini saqlash to'g'risida» maxsus Davlat qonuni qabul qilindi. Bu jihatdan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan quyidagi uchta muhim masala qonunlashtirilgan edi: 1) fuqarolar sog'lig'ini saqlashga doir huquqlarning davlat tamonidan kafolatlanishini ta'min etish; 2) fuqarolar sog'lom turmush tarzini shakllantirish; 3) mamlakatdagi barcha davlat va jamoat tashkilotlarining fuqarolar sog'lig'ni saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan belgilab qo'yish.

«Sog'liqni saqlash tog'risidagi» qonunda fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy qoidalari belgilandi. Bu qoidalar quyidagilardan iborat: 1) sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi 2) aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi; 3) profilaktika chora-tadbirlarining ustivorligi; 4) sog'lig'ini yo'qotgan fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi; 5) tibbiy fanlarning amaliyot bilan birligi. «Qonunda» O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining tuzilishi va vakolatlari ham belgilandi. Bundan tashqari, «Qonun» aholini sanitariya-epidemiologiya jihatidan xavotirsizligini ta'min etishni ham aniqlab qo'ydi. «Qonun»da har bir bemor kishining sog'liqni saqlash sohasidagi huquq va imtiyozlari ham ko'rsatilgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ikkinchi muhim tadbir sog'liqni saqlash

tizimini isloh qilish bo'ldi. Bu haqda mamlakat prezidenti mahsus farmon chiqardi. Shu farmonga muvofiq sog'liqni saqlash tizimida xizmat qiluvchi mutaxassislar, olimlar, xuquqshunoslar va bu ishga mutasaddi tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash tizimini isloh qilish dasturini ishlab chiqdilar. Bu dastur Respublika Sog'liqni Saqlash Vazirligining kollegiyasida va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasida muxokama qilinib, sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning asosiy dasturi sifatida tavsiya etilganidan so'ng 1998-yil 10-noyabrda prezidentning farmoni bilan tasdiqlandi. Dasturda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning quyidagi konsepsiyasi tavsiya etildi: bepul tibbiy yordam ko'rsatadigan va budjetdan moliyalanishi lozim bo'lgan davolash-profilaktika muassasalarining ro'yxatini tuzish, qishloq vrachlik punktlarining tarmog'ini rivojlantirish, yuksak tajribali. shifokor kadrlar va o'rta tibbiy xodimlar tayyorlash, shu maqsadda tibbiy bilim yurtlarini kasb-hunar kollejlariga aylantirish.

Dasturda tez tibbiy yordam tizimini yuksak darajaga ko'tarish maqsadida bir qancha tibbiy muassasalar (Toshkent shahar tez tibbiy yordam stansiyasi, Respublika va Toshkent viloyati sanitariya aviatsiyasi) negizida Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazini va uning mintaqaviy filiallarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Farmonga ko'ra, oliy tibbiy o'quv yurtlari qoshida uch yil o'qish muddati bilan oliy malakalik tibbiyot hamshiralari (reanimatologlar, tug'ru-xona akusherkalari) tayyorlash bo'linmalarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Farmonda xalqaro tashkilotlar, xorijiy sarmoyadorlar, jamg'armalar va ta shkilotlarning mablag'larini ham sog'liqni saqlash tizimiga jalb qilish ko'zda tutilgan.

Mazkur farmonni bajarish yuzasidan 1999-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi va uning joylardagi tashkilotlarining asosiy vaziflari to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining markaziy apparati va uning ma'muriy boshqaruv tizimlarini tasdiqladi. «Vazirlikning rahbariyati—asosan; vazir va uning 4 nafar o'rinbosaridan tashkil topdi. Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmasining boshlig'i o'z lavozimiga ko'ra Sog'liqni saqlash vazirining» o'rinbosari, deb belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'zining 1999-yil 14-yanvardagi qaroriga ilova sifatida «O'zbekiston Respublikasi

Sog'liqni Saqlash Vazirligi to'g'risida Nizom» ham chiqardi. «Nizom»da O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining maqomi, vazifalari, vakolatlari va faoliyatining tashkiliy asoslari belgilab berildi. Unda takidlanishicha, Sog'liqni Saqlash vazirligi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi konstitutsiyasi, O'zbekiston Oliy Majlisining qarorlari, Prezident farmonlari va boshqa davlat hujjatlariga amal qiladi.

Aholining sog'lig'ini saqlash, yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, sanitariya-epidemiologiya xizmatiga bog'liq. Bunda sanitariya nazoratini to'g'ri tashkil qilish va uni aniq ham tezkorlik bilan amalga oshirish hal qiluvchi ahamiyatga egaligi ta'kidlangan. 1992-yil 3-iyulda «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida qonun» qabul qilindi. Unda sanitariya-epidemiologiya nazoratining asosiy qoidalari aniqlab qo'yilgan. Xususan, salomatlik uchun qulay atrof muhit sharoitini yaratish; radiatsiya xavfsizligini ta'minlash ustidan nazorat olib borish; tashkilotlar, muassasalar va ayrim shaxslar tamonidan sanitariya qoidalari buzilganligi uchun javobgarlikni oshirish tadbirlari rasmiy jihatdan qonunlashtirilib qo'yilgan. Bu qonunda sanitariya - epidemiologiya masalalarida chet mamlakatlar bilan xalqaro shartnomalar tuzish ham ko'zda tutilgan.

Aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati hamda uning samaradorligi tibbiy xodimlarning tajribalariga bog'liq. Shuni hisobga olib, mamlakaimizda yetuk bilimga ega bo'lgan tajribali vrachlar yetishtirishga alohida e'tibor berila boshlandi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng oliy tibbiy ta'lim sohasida ham keskin ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Tibbiy o'quv yurtlarimiz chet ellardagi ilg'or tibbiy o'quv markazlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Prezidentimiz I. A. Karimovning tashabbusi bilan chet ellardagi oliy o'quv yurtlariga ko'plab talabalar, aspirantlar va ilmiy xodimlar yuborildi. Bu tadbirlar o'z samarasini berib, oliy o'quv yurtlarimizdagi o'qitish tarbiya ishlari ancha yuksaldi. Tibbiyot sohasida bizning o'quv yurtlarimiz jahon fani darajasiga yaqinlashdi.

Aholini zarur dori-darmon bilan ta'minlash masalasida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Bu sohada xususiy tadbirkorlik amalga oshirila boshlandi. Buning natijasida dorixona egalari bizda yo'q dorilarni chet ellardagi farmatseptika firmalaridan keltirish imkoniyatiga ega bo'rdilar. Ammo bu ishda dastlabki vaqtlarda ba'zi qonunbuzarliklarga yo'l qo'yildi. Ba'zi dorixona egalari o'z

xuquqlarini suiste'mol qila boshladilar. Ular orasida nopok yo'l bilan boyluk ortirishga mukkasidan ketganlar ham paydo bo'lib qoldi. Masalan, ba'zi dorishunoslar qalbaki dorilar ishlab chiqara boshladilar. Bunday «tadbirkorlik» qanchalik zararli ekanligi o'z-o'zidan ma'lum. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999-yil 14-yanvarda «dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari sotishni tartibga solish to'g'risida» maxsus qaror qabul qildi. Bu qarorga muvofiq chakana dorixonona tarmoqlarida dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlarining sifati va "narxini belgilashning yagona tartibi joriy qilindi. Sog'liqni Saqlash Vazirligi huzurida maxsus nazorat inspeksiyasi tashkil etilib, unga dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarining sotilishi va xarid qilinishi ustidan nazorat o'rnatish vazifasi topshirildi.

Xususiy dorixonalar paydo bo'lishining yana bir salbiy tamoni ko'rinib qoldi. Xususiy dorixonadan istagan dorini retseptsiz sotib olish mumkin bo'ldi. Buning natijasida odamlar bilar-bilmas o'zlarini-o'zlari davolay boshladilar. Bu esa ko'ngilsiz natijalarga olib keldi. Masalan, bemor dorini noto'g'ri ishlatib, tuzalmay qolishi, kasallik surunkalik holatga o'tib ketishi va hatto zaharlanib qolishi mumkin. Shuni nazarda tutib, qarorda dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini sotishda qonunni buzganligi uchun dorixonona xodimlarini ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortish kuchaytirildi.

Respublika hukumatining joriy etgan muhim tadbirlaridan biri tibbiy xodimlarning moddiy manfaatdorligini oshirish bo'ldi. Shu maqsadda vrachlarga bemorlarni davolashda va dorixonona egalariga aholini dori-darmonlar bilan ta'minlashda xususiy tadbirkorlik ko'rsatishga ruxsat berildi. Buning natijasida vrachlar va dorishunoslarning ishlarida shaxsiy manfaatdorlik paydo bo'ldi. Bu esa ularni faollashtirdi. Vrachlar bemorlarni mumkin qadar yaxshi davolashga intila boshladilar. Dorishunoslar esa kamyob dorilarni izlab topish va ularning xillarini ko'paytirishga harakat qildilar. Iekin bu ishlarda kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi. Masalan, ba'zi vrachlar o'z shaxsiy davolash vositalari (kasallarni qabul qilish uchun alohida xona, bemorlarga tashxis qo'yish uchun zarur asbob-uskunalar, kasallarning qonini va chiqindilarini tekshirish uchun xususiy laboratoriya, Rentgen apparati, fizioterapevtik apparatlar)ga ega bo'lmay turib davlatga qarashli vositalardan foydalanib, kasallarni xususiy usulda davolay boshladilar va ulardan ko'p pul undirib, boyib olish yo'liga kirib

oldilar. Xususiy dorixona egalari esa dorilarning narxini juda ko'tarib yubordilar. Shuning uchun vrachlarning pullik davolash ishlari cheklab qo'yildi. Faqat yaxshi tajribali va o'z xususiy davolash vositalariga ega bo'lgan vrachlar hamda bir jamoaga birlashgan vrachlar guruxlariga xususiy vrachlik faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat berildi. Masalan, xususiy stomatologiya poliklinikalari shular jumlasidandir. Ammo tajriba shuni ko'rsatdiki, xususiy tashxis va davolash vositalarini sotib olish imkoniyatiga ega bo'lgan vrachlar juda oz ekan. Dorixona egalari ustidan qattiq nazorat o'rnatildi.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'ni yetkazib berish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1997-yil 2-dekabrda «Davolash–profilaktika muassasalarini mablag' bilan taminlash tizimini takomillashtirish to'g'risida» qaror qabul qildi. Qarorda hukumat tamonidan ajratilgan mablag'dan tashqari har xil hayriya jamiyatlari, chet el investitsiualari va tijorat muassasalarining sarmoyalaridan foydalanish ham ko'zda tutilgan. Unda davolash uchun sarf bo'ladigan mablag'ning bir qismini bemorlarning o'z zimmalariga yuklash ham hisobga olingan. Masalan, 1998-yil 1-yanvardan hoshlab bemorlar shifoxonalarda davolanishlari davrida ovqatlanishlari pullik qilindi. Bulardan tashqari, sog'liqni saqlash tizimini qo'shimcha mablag' bilan ta'minlashni ko'zda tutib, har xil nodavlat jamg'armalar ham ta'sis etildi. Bu tadbirlar natijasida Respublikamizda sog'liqni saqlash ishini isloh qilish va uni takomillashtirish yo'lida bir muncha ijobiy natijalarga erishildi.

1998-yili O'zbekiston shifokorlar uyushmasining tashabbusi bilan «Ibn Sino xalqaro xayriya jamg'armasi» tashkil etildi. Jamg'arma Prezidentning farmoni bilan rasmiylashtirildi. Farmonda aytilishicha bu jamg'arma «Sog'liqni Saqlash tizimidagi islohatlarni tezlashtirishga yordam berishi, tibbiy - ijtimoiy hayriya tashkilotlarini, nuroniylar uchun gerontologiya markazlarini ochish va Ibn Sino ta'limoti hamda zamonaviy ilm-fan asosida Sharq tabobatini rivojlantirish, Abu Ali ibn Sino merosini chuqur o'rganish ishlarini tezlashtirish, tibbiy maktablar va o'quv yurtlari uchun yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqarishda ishtirok etish, buyuk olim asarlarini tartibga solish va ularni nashr etishga ko'maklashish va Ibn Sino kutubxonasini ochish, Ibn Sinoning hayoti va tabiblik faoliyati haqida kitoblar chiqarish hamda Ibn

Sino muzeyini tashkil etish, Ibn Sinoning ilmiy merosiga bag'ishlangan xalqaro simpoziumlar, anjumanlar o'tkazish ishlari bilan shug'illanishi kerak. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino mamlakatimizda ilmiy tibbiyotning shakillanishi va rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan allomadir.» Olimning nomi xalqimiz yodida abadiy saqlanib qoladi.

2003-yil 26-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish chora tadbirlari to'g'risida» farmoni e'lon qilindi. Farmonda ta'kidlanishicha mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurroq va kengroq miqyosda olib borish, yuksak jahon talablari darajasidagi iqtisoslashtirilgan tibbiy markazlarni shakillantirish, ilg'or tibbiy texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy-iqtisodiy va xuquqiy shart-sharoitlarni vujudga keltirish ko'zda tutiladi. Xususan zamonaviy tashxis va davolash uskunalari bilan jihozlangan maxsus klinikalar va tibbiy markazlarni tashkil etish rejalashtirildi. Masalan Respublikada ixtisoslashtirilgan urologiya, jarrohlik, ko'z mikrohurugiyasi, iqtisoslashtirilgan kardiologiya markazlari tashkil etiladi. Bu muassasalarga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan shifokor mutaxassislar tayyorlanadi. Ular yuksak ilmiy darajada rivojlangan chet el klinikalarida o'z malakalarini oshiradilar.

2003 yil 1-fevralda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining majlisida prezident farmonini amalga oshirish yuzasidan qilingan ishlar ko'rib chiqildi. Majlisda Respublika Sog'liqni Saqlash Vazirligi, Jahon Sog'liqni Saqlash tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi, bir qancha vazirliklar va mutasaddi tashkilotlarning vakillari qatnashdilar. Majlisda muhim masalardan biri sifatida dori-darmonlar va maxsus tibbiy asbob-uskunalar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish ta'kidlandi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha chora-tadbirlar mamlakatimizda tibbiyot fani va sog'liqni saqlash ishini rivojlantirish yo'lida qo'yilgan dastlabki qadamlardir. Kelgusida Respublikamizda sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va rivojlantirish sohasida yana ko'p ishlar qilinishi kerak.

Bu kitobda O'zbekiston hududida tibbiyotning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixi-arxeologik ashyoviy dalillar va ilmiy tarixiy adabiyot bayon etildi.

## MUNDARIJA

|                  |  |           |
|------------------|--|-----------|
|                  | Kirish .....   | 3         |
| <b>I bob.</b>    | <b>O'zbekiston hududida tibbiyotning kelib chiqishi .....</b>                  | <b>10</b> |
|                  | Dastlabki muolaja usullarining ishlab chiqilishi. ....                         | 10        |
|                  | Tibbiyotning kasb sifatida shakllanishi .....                                  | 15        |
|                  | Kasalliklarning sabablari haqidagi dastlabki<br>tushunchalar .....             | 18        |
|                  | Ilmiy tibbiyotning shakllanishi .....  | 21        |
|                  | <b>II bob. O'zbekistonning qadimgi zamon tibbiyoti. ....</b>                   | <b>22</b> |
| <b>III bob.</b>  | <b>O'zbekiston hududida O'rta asrlarda tibbiyotning<br/>rivojlanishi. ....</b> | <b>29</b> |
| <b>IV bob.</b>   | <b>Xorazm davlatidagi tibbiyot. ....</b>                                       | <b>33</b> |
|                  | Abu Abdulloh Iloqiy .....  | 35        |
|                  | Abul Hayr Hammor .....   | 37        |
|                  | Ismoil Jurjoniy .....  | 39        |
|                  | Umar Chag'iniy .....   | 41        |
| <b>V bob.</b>    | <b>Buxoro davlatidagi tibbiyot. ....</b>                                       | <b>43</b> |
|                  | Abu Ali ibn Sino .....   | 43        |
| <b>VI bob.</b>   | <b>Qoraxoniylar davridagi tibbiyot. ....</b>                                   | <b>58</b> |
| <b>VII bob.</b>  | <b>Buyuk Temuriylar davridagi tibbiyot. ....</b>                               | <b>63</b> |
| <b>VIII bob.</b> | <b>O'zbek xonliklari davridagi tibbiyot. ....</b>                              | <b>72</b> |
|                  | Shayboniylar davri .....   | 72        |
|                  | Ashtarxoniylar davri .....   | 76        |
| <b>IX bob.</b>   | <b>So'nggi o'zbek xonliklari davridagi tibbiyot. ....</b>                      | <b>79</b> |
| <b>X bob.</b>    | <b>Mustamlaka davridagi tibbiyot. ....</b>                                     | <b>89</b> |
| <b>XI bob.</b>   | <b>Sho'rolar davridagi tibbiyot. ....</b>                                      | <b>92</b> |
| <b>XII bob.</b>  | <b>Mustaqillik davridagi tibbiyot. ....</b>                                    | <b>97</b> |

Q 65

**Qodirov A.A.**

O'zbekiston tibbiyoti: O'zbekistonda tibbiyotning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishi. — Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri. T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashr., 2004. 104 b.

BBK 5g (5U)

*O'quv nashri*

**Asadulla Abdulla o'g'li Qodirov,**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**O'ZBEKISTON TIBBIYOTI**

Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti,  
Toshkent — 700129, Navoiy ko'chasi, 30.

Muharrir *Sh. Inog'omova*  
Texnik muharrir *U. Kim*  
Badiiy muharrir *T. Qanoatov*  
Musahhih *S. Abdunabiyeva*

IB 2936

Bosishga 14.06.2004 da ruxsat etildi. Bichimi 84x1081/32. Adabiy garnitura. Shartli bosma taboq 5.46. Nashr bosma taboq 6.2. 95—2003-raqamli shartnoma. Jami 1500 nusxa 4058-raqamli buyurtma. Narxi shartnoma asosida

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 1-bosmaxonasi. 700002. Toshkent, Sag'bon ko'chasi, 1-berk ko'cha, 2-uy.